ISSN 2181-9335

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI
UNIVERSITETI



2022
MAXSUS SON

JAMOAT XAVFSIZLIGI
ilmiy-amaliy jurnali

30 YIL

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KONSTITUTSIYASINING
30 YILLIGIGA BAG‘ISHLANADI

Muassis:
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

“JAMOAT XAVFSIZLIGI” ilmiy-amaliy jurnali harbiy, siyosiy, yuridik, tarix, texnika, filologiya, iqtisodiyot, pedagogika va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAKning 2021 yil 30 sentabr kunidagi 306/4-son qarori.

MUNDARIJA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI QABUL QILINGANLIGINING 30 YILLIGIGA

SAIDOV A.X.
Yangi O‘zbekiston sharoitida qiynoqlarga qarshi kurashish: holati, muammolari va tahlili..... **3**

ISLAMOV B.D.
Konstitutsiya va sud tizimi: huquqiy asos, samarador amaliyot, istiqbol rejalari..... **12**

YO‘LDOSHEV N.T.
Konstitutsiyaviy islohot: maqsad inson qadri va huquqlarini ta’minlash..... **18**

DJURAYEV R.M.
Jamoat xavfsizligini ta’minlovchi organlarning konstitutsiyaviy-huquqiy maqomining shakllanishi.... **22**

TURSUNOV B.R.
Konstitutsiyada fuqarolik jamiyati institutlari maqomi mustahkamlanmoqda..... **25**

MAMAYUSUPOV S.D.
Konstitutsiyaviy islohotlar sharoitida harbiylar ongiga milliy qadriyatlarni singdirish masalalari.... **28**

RUSTAMBAYEV M.X.
Mustaqil odil sudlovga murojaat qilish – inson manfaatlarini ta’minlovchi asosiy konstitutsiyaviy kafolat..... **32**

XATAMOB P.A.
Конституция Республики Узбекистан – правовая основа деятельности органов внутренних дел по защите прав человека, обеспечению общественного порядка и безопасности.... **36**

MIRAKULOV M.M.
Konstitutsiyaning mohiyati va ijrosi..... **41**

CHORIYEV T.R.
Jamoat tartibini saqlashga oid qonunchilikning takomillashuvi **45**

KARIMOV T.P.
Qonunchilikdagi islohotlar – fuqarolik huquqining kafolati **48**

SHIRINOV D.D.
Konstitutsiyada fuqarolik jamiyati institutlari masalasi **53**

TAXIROV F.
Shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini kafolatlashning konstitutsiyaviy asoslari..... **58**

RUZIYEV R.D.
Mulk va uni amalga oshirishning konstitutsiyaviy asoslari mazmunining fuqaroviy-huquqiy talqini... **64**

MUXAMMADIYEV A.A.
Konstitutsiyada xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi **68**

МИРАЗОВ Д.М.
Конституционно-правовое обеспечение прав человека на неприкосновенность..... **71**

MAXMUDOV R.M., QORABOYEV A.A.
O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi fundamental qonun sifatida **74**

СЕЛИМАНОВА С.М.
Конституционная реформа: опыт и перспективы..... **79**

USMANOVA M.A., AXMEDOVA M.T.
O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - mehnat qilish huquqining kafolatidir..... **81**

ZULFIQOROV Sh.X., XOMIDOV E.O.
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining konstitutsiyaviy maqomi va uni takomil-lashtirishning ayrim masalalari..... **86**

MAXSADOV M.I., RASULOVA N.S., YUNUSOV U.A., JUMAEV A.J.
Koreya Respublikasi Milliy politsiya agentligining ta’lim muassasalari faoliyatining ijobiy jihatlari va ularni milliy amaliyotga qo‘llash masalalari..... **92**

NURMUHAMMEDOVA G.B., NIZAMETDINXODJAYEV U.R.
O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida jamoat xavfsizligini ta’minlash masalalarining tartibga solinishi **101**

XOMIDOV E.O.
Ta’lim olishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari va uni takomillashtirish masalalari..... **106**

KUCHKAROV X.Z.
Sud qarorlarini qayta ko‘rishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari **110**

MUSLIMOV I.
Jazo tayinlashda hisobga olinadigan sodir etilgan jinoyatning xususiyatini tavsiflovchi jazoni yengillashtiruvchi holatlar tahlili..... **117**

MUHAMMADIYEVA M.Y.
Konstitutsiyaviy islohotlar hozirgi va kelajak barqaror rivojlanishning zarur yuridik zaminidir..... **126**

ТАДЖИЕВА М.М.
Нормы-принципы Конституции Республики Узбекистан..... **132**

XO‘JAMBERDIYEV F.K.
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatida Konstitutsiya normalarining o‘rni va ahamiyati **137**

ATANIYAZOV J.K.
Konstitutsiya – insonparvarlik aktlari asosi yoxud afv etish institutini qo‘llash samaradorli-gini oshirishning amaliy jihatlari **143**

RAVSHANOV U.M.
Xalqaro gumanitar huquq normalarini mamlakat qonunchiligiga implementasiya qilishda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining o‘rni va ahamiyati..... **154**

Saidov Akmal Xolmatovich,
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi
Spikerining birinchi o‘rinbosari, Inson huquqlari bo‘yicha
O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi direktori, akademik

YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA QIYNOQLARGA QARSHI KURASHISH: HOLATI, MUAMMOLARI VA TAHLILI

Yangi O‘zbekistonni bunyod etish sharoitida jamiyatimizda ochiqlik muhiti tobora mustahkam qaror topmoqda. Natijada jamiyatimiz hayotining barcha sohalari bo‘yicha muhim va zarur ma’lumotlardan imkon qadar o‘z vaqtida xabardor bo‘lib bormoqdamiz. Birgina misol: 2022 yilning 9 oyida Toshkent shahrida qaysi jinoyat turlari oshgani Internet sahifalarida ochiq-oshkora e’lon qilindi [1]. Ma’lum bo‘ldiki, poytaxtimizda 2021 yilning shu davriga nisbatan sudlar tomonidan ko‘rilgan ishlar soni asosan kredit, yerga oid, noqonuniy qurilmalarni buzish, sug‘urta shartnomasiga doir, nikohdan ajratish va oldi-sotdi shartnomasidan kelib chiqadigan nizolar hisobiga oshgan.

O‘z navbatida, ushbu ma’lumotni ikki xil: ijobiy va salbiy ma’nolarda talqin qilish mumkin. Ijobiy ma’noda: umuman olganda, jinoyat ishlarining sudlarda ko‘rilishi hajmi oshganligi holati yurtimizda sud tizimiga nisbatan ishonchning ortib borayotganini tasdiqlaydi. Salbiy ma’noda: davlat va jamiyat hayotining ko‘rsatib o‘tilgan yo‘nalishlarida jinoyat ishlari miqdorining ko‘payganligi ayni shu sohalarda inson huquqlari jiddiy buzilayotganini ko‘rsatadi. Bu holat tashvish va xavotir uyg‘otmasdan qolmaydi.

Jinoyat – u kattami yo kichikmi, bundan qat’i nazar, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga mutlaqo zid harakat yoki harakatsizlikdir. Inson huquqlarini poymol etadigan har qanday jinoyat odilona jazolanishi zarur, chunki bunday nomaqbul xatti-harakat tufayli, bir tomondan, insonlar aziyat cheksa, ikkinchi tomondan, jamiyat ma’naviyatiga zarba yetadi, uchinchi tomondan esa, davlatning jahon maydonidagi obro‘si to‘kiladi.

Bu haqda fikr yuritganda, xususan, jinoyatchilikning eng qaltis turlaridan biri – qiynoqlarga qarshi kurashishning dolzarb muammolari haqida alohida to‘xtalish maqsadga muvofiqdir.

Bu haqda fikr yuritganda, xususan, jinoyatchilikning eng qaltis turlaridan biri – qiynoqlarga qarshi kurashishning dolzarb muammolari haqida alohida to‘xtalish maqsadga muvofiqdir.

Binobarin, so‘nggi yillarda mamlakatimizda fuqarolar huquq va erkinliklari kafolatlarini yanada kuchaytirish, jumladan qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo‘llash holatlariga mutlaqo yo‘l qo‘ymaslik maqsadida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Aslida, insonni qiynoqqa solishdan maqsad uning shaxsi va sha’nini oyoqosti qilish, or-nomusi va qadr-qimmatini toptash hamda xo‘rlashdir. Shuning uchun Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning teng huquqli a’zosi hisoblanuvchi O‘zbekiston ham qiynoqlarni muayyan odamlar tomonidan boshqalariga nisbatan qo‘llanadigan eng g‘ayriinsoniy qilmish sifatida har doim qoralab keladi.

Xalqaro huquqqa ko‘ra, qiynoqlar – insoniyatga qarshi jinoyatdir. Xususan, Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 7-moddasiga ko‘ra, “javascript: send Feyedback (5582583) Hech kim qiynoqlarga yoki shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoki jazoga duchor etilmasligi kerak. Jumladan, hech bir shaxs ustidan o‘zining erkin roziligisiz tibbiy yoki ilmiy tajriba o‘tkazilishi mumkin emas” [2].

Shu asosda qabul qilingan barcha hujjatlarda qiynoqlar qat’iyan taqiqlanadi va qiynoqqa solish holatini oqlashga hech

qachon va hech qanday yo‘l qo‘yilmaydi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasi talabiga muvofiq, hech kim qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas [3].

BMT Bosh Assambleyasi 1997 yilda 26 iyun – Qiynoq qurbonlarini qo‘llab-quvvatlash xalqaro kuni, deb e’lon qilgan [4]. Mazkur xalqaro sanada dunyo miqyosida qiynoqlarga butunlay barham berish hamda BMTning Qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo‘llashga qarshi konvensiyasi [5] yanada samarador ishlashini ta’minlashga qaratilgan turli tadbirlar o‘tkaziladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “Qiynoqqa solish holatlarini aniqlash va ularning oldini olish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorini 2021 yil 26 iyun – Qiynoq qurbonlarini qo‘llab-quvvatlash xalqaro kuni nishonlangan muhim sanada imzolagani bejiz emas [6]. Bu voqelik O‘zbekiston inson huquqlari sohasida shiddatli va aniq tizimli islohotlarni amalga oshirish asnosida, mazkur yo‘nalishdagi sinovdan o‘tgan xalqaro tajriba hamda dunyo andozalariga har tomonlama uyg‘unlashishga qat’iyat bilan intilayotganining yana bir yaqqol dalolatidir.

Prezidentimizning ushbu qarori parlamentga taqdim etgan Murojaatnomalari, dasturiy ma’ruza va nutqlari, shuningdek Milliy strategiya [7] hamda Davlat dasturida [8] belgilangan vazifalar ijrosi doirasida qabul qilingan. Qarordan ko‘zlangan maqsad – BMTning ustav organlari va shartnomaviy qo‘mitalari tavsiyalarini hisobga olgan holda, qiynoqqa solishning oldini olish bo‘yicha milliy preventiv mexanizmlarni takomillashtirishdan iborat.

Bu o‘rinda Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) huzurida tuziladigan Qiynoq holatlarini aniqlash va ularning oldini olish bo‘yicha jamoatchilik guruhlari haqida alohida to‘xtalish joiz, deb hisoblayman. Jamoatchilik guruhlari tarkibiga Inson huquqlari bo‘yicha milliy markaz ekspertlari, tibbiyot xodimlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari vakillari jalb etiladi. Bunda ana shu mutaxassislarning monitoring tashriflarini amalga oshirish uchun kasbiy malakasi va amaliy bilimlarga ega bo‘lishi hamda gender tengligi ta’minlanishi hisobga olinadi.

Jamoatchilik guruhlarining asosiy vazifalari ham Prezident qarorida ko‘zda tutilgan [9]. Bular, asosan, gauptvaxta, maxsus qabulxona, vaqtincha saqlash hibsxonasi, tergov hibsxonasi, jazoni ijro etish muassasasi, intizomiy qism, majburiy davolash muassasalarida qiynoqqa solishning oldini olish bo‘yicha monitoring tashriflarini muntazam ravishda amalga oshirishdan iboratdir.

Qarorda ushbu maxsus muassasalarga nisbatan **“harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan joylar”** degan yagona atama qo‘llangan [10]. Endilikda harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan joylarga joylashtirilgan shaxslarning yagona elektron reyestrini yuritish amaliyoti yo‘lga qo‘yiladi. Binobarin, “Harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslarning yagona reyestri” elektron tizimi harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslarning yaqin qarindoshi, qonuniy vakili va advokati shaxs saqlab turilgan joy va vaqt bilan bog‘liq ma’lumotlarni olishini ta’minlaydi.

Bunday amaliyot, shuningdek harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslarni belgilangan muddatdan ortiqcha vaqt davomida ushlab turish, ushlab turish boshlangan vaqtni kechiktirib ko‘rsatish, g‘ayriqonuniy ravishda ushlab turish kabi salbiy illatlarning oldini olish imkonini beradi.

Bundan tashqari, harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar tomonidan qiynoqlar bo‘yicha amaldagi qonunchilik talablaridan kelib chiqqan holda, advokatga yoki yaqin qarindoshiga telefon orqali murojaat qilish amaliyoti yanada takomillashtiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, biz **“hibsga olingan va jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslarga nisbatan qiynoqqa solish, ruhiy hamda jismoniy bosim o‘tkazish va boshqa g‘ayriinsoniy zo‘ravonlikka solish holatlariga qarshi prinsipial kurash boshladik. Fuqarolarni soxta dalillar, tuhmat va bo‘htonlar asosida javobgarlikka tortishdek nomaqbul amaliyotga barham berildi”** [11].

Yurtboshimiz tashabbusi bilan **Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi** [12] qabul qilinib, amalga oshirila boshlandi. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash hamda inson huquqlari bo‘yicha xalqaro standartlarni milliy qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotida amalga oshirish xalq uchun farovon va munosib turmush sharoitini yaratishga yo‘naltirilgan demokratik islohotlarning asosiy mezoniga aylandi.

Shu asosda inson huquqlarini himoya qilishda muhim o‘rin tutadigan sud tizimida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, nazorat instansiyasi bekor qilinib, fuqarolar va advokatlarning shikoyatlari ham, xuddi prokuror protesti kabi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘riladigan tartib o‘rnatildi.

Ilk bor mansabdorlarni noqonuniy harakatlardan tiyib turadigan ma’muriy sudlar faoliyati yo‘lga qo‘yilib, ular orqali o‘tgan qisqa davrda minglab fuqaro va tadbirkorning huquqlari tiklandi. Iqtisodiy va fuqarolik sudlarida prokurorning ishtiroki cheklandi, jinoyat ishlarini asossiz ravishda suddan chaqirib olish bilan bog‘liq amaliyotga barham berildi.

2022 yilning muhim voqealaridan biri – 25 mart kuni O‘zbekiston Prezidentining “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi faoliyatining moddiy-texnika ta’minotini yanada yaxshilash to‘g‘risida”gi qarori [13] qabul qilingani bo‘ldi. Mazkur qaror birinchi navbatda O‘zbekistonning BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashi bilan doimiy hamkorlik munosabatlarini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan. Prezident qarori bilan Milliy markaz tarkibida Inson huquqlari bo‘yicha axborot-kutubxona markazi – **“Inson huquqlari uyi”** tashkil etildi.

BMTning inson huquqlari bo‘yicha institutsional tizimida inson huquqlari bo‘yicha konvensiyaviy (shartnomaviy) organlar inson huquqlari bo‘yicha alohida shartnomalar asosida tuzilgan va muayyan shartnoma qoidalarini, unga a’zo bo‘lgan davlatlar tomonidan qanday bajarib borilayotganligini nazorat qiladi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi **Qiynoqlarga qarshi qo‘mita** bilan **Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq, shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konvensiya** [14] bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishi yuzasidan hamkorlikda ish olib boradi.

BMTning Qiynoqlarga qarshi qo‘mitasi [15] – 10 nafar ekspertdan tashkil topgan. Ekspertlarning har biri to‘rt yil muddatga saylanadi. Qo‘mita Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq, shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konvensiya qatnashchisi bo‘lgan davlatlarning mazkur Konvensiya bo‘yicha zimmaga olgan majburiyatlarini bajarishi yuzasidan ma’ruzalarini ko‘rib chiqadi. Qoidaga ko‘ra, qo‘mita har yili navbatdagi ikkita sessiyasini o‘tkazadi.

Konvensiyaga a’zo bo‘lgan har bir davlat Qo‘mitaga Konvensiya-dan kelib chiqadigan majburiyatlarining bajarilishi to‘g‘risida ma’ruza taqdim etadi. Birinchi ma’ruza tegishli davlatga Konvensiya kuchga kirgandan so‘ng bir yil ichida taqdim qilinishi shart. Keyingi ma’ruzalar 4 yilda bir marotaba taqdim etiladi.

Har bir ma’ruzadan so‘ng Qo‘mita maqsadga muvofiq deb topsa, o‘z mulohazasini bildiradi. Qisman o‘sha davlatga Konvensiyada ko‘rsatib o‘tilgan majburiyatlarni bajarmaganligini ham aytib o‘tishi mumkin. Qiynoqlarga qarshi qo‘mitaning mulohazalari yuridik kuchga ega bo‘lmasa-da, lekin ular yagona ekspert organining fikrini o‘zida aks ettiradi.

O‘zbekiston BMTning Qiynoqlarga qarshi konvensiyasini 1995 yilda ratifikatsiya

qilib [16], qiynoqlarga yo‘l qo‘ymaslik uchun zarur tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlarni yaratishga doir xalqaro majburiyatlarini bajarish yo‘lida tizimli, izchil va bosqichma-bosqich chora-tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligiga BMT Bosh Assambleyasining 2015 yil 17 dekabrdagi rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan **“Mahbuslar bilan muomala qilishning minimal standart qoidalari”ni (Nelson Mandela qoidalari)** [17] joriy qilib kelinmoqda.

Qiynoqlarning oldini olish tizimini takomillashtirish sohasida 2021-2022 yillarda yanada muhim qadamlar qo‘yildi. Jumladan, xalqaro majburiyatlarni bajarish doirasida BMTning Qiynoqlarga qarshi qo‘mitasiga O‘zbekistonning beshinchi ma’ruzasi taqdim etilgan [18]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2021 yil 22 fevral kuni BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashi 46-sessiyasida milliy preventiv mexanizmni takomillashtirish, BMTning Qiynoqlarga qarshi konvensiyasi **Fakultativ protokolining** O‘zbekiston tomonidan **ratifikatsiya qilish** hamda **BMTning Qiynoqlar masalalari bo‘yicha maxsus ma’ruzachini O‘zbekistonga tashrifini** tashkil qilinishi ma’lum qilindi [19].

O‘zbekiston Prezidentining 2021 yil 22 fevral kuni BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashi 46-sessiyasining oliy darajadagi Segmentida ilgari surgan tashabbuslarini amalga oshirish maqsadida 2021 yil 26 iyunda davlat rahbarining “Qiynoqqa solish holatlarini aniqlash va ularning oldini olish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi [20]. Qarorga muvofiq:

birinchidan, qiynoq holatlarini aniqlash va ularning oldini olish bo‘yicha jamoatchilik guruhlarini tashkil qilish, ularning vazifalarini aniq belgilash, monitoring tashriflarini muntazam ravishda amalga oshirish orqali qiynoq holatlarining bartaraf etilishiga erishish;

ikkinchidan, “Harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslarning yagona reyestri” elektron tizimini yuritishni yo‘lga qo‘yish;

uchinchidan, O‘zbekiston Respublikasining BMT Qiynoqlarga qarshi konvensiyasi Fakultativ protokoliga qo‘shilishi yuzasidan takliflarni ishlab chiqish;

to‘rtinchidan, qiynoqdan jabrlangan shaxslarga ijtimoiy, huquqiy, psixologik yordam ko‘rsatish;

beshinchidan, qiynoqqa solishdan jabrlangan shaxslarga yetkazilgan zararni kompensatsiya qilish tartibini ishlab chiqish

oltinchidan, harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar tomonidan qiynoqlar bo‘yicha advokatga yoki yaqin qarindoshiga telefon orqali murojaat qilish amaliyotini takomillashtirish;

yettinchidan, tezkor-qidiruv, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergovni amalga oshiruvchi organlar va jazoni ijro etish muassasalari xodimlari uchun qiynoqqa solishga qarshi kurashish bo‘yicha o‘quv kurslari tashkil etilishi belgilandi.

Qarorda bu borada bir qator muhim vazifalar ko‘zda tutilgan. Xususan, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi Ombudsman va Tashqi ishlar vazirligi bilan birgalikda Vazirlar Mahkamasiga kiritishi zarurligi belgilangan.

Ma’lumki, Nyu-Yorkda 2002 yil 18 dekabrda qabul qilingan Qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo‘llashga qarshi konvensiyaning Fakultativ protokolini o‘tgan davrda dunyoning 91 ta davlati ratifikatsiya qilgan. O‘z navbatida, Armaniston, Ozarbayjon, Estoniya, Gruziya, Litva, Moldova, Ukraina, Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Afg‘oniston, Chexiya, Finlyandiya, Fransiya, Germaniya, Italiya, Polsha, Ispaniya, Turkiya kabi o‘ndan ortiq davlat ushbu xalqaro-huquqiy hujjatni imzolagan [21].

Shu ma’noda, BMTning Qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo‘llashga qarshi konvensiyasi Fakultativ protokoliga O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi masalasi bo‘yicha taklifning kun tartibiga qo‘yilgani juda muhim. Umuman, O‘zbekiston Prezidentining “Qiynoqqa solish holatlarini aniqlash va ularning oldini olish tizimini

takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori O‘zbekistonda qiynoqlarning oldini olish bo‘yicha milliy tizimni umume’tirof etilgan xalqaro-huquqiy standartlarga muvofiqlashtirishga xizmat qiladi [22].

Prezidentimiz qarorida nazarda tutilgan yangilanishlar amaliyotga o‘z vaqtida va to‘liq joriy qilinishi, shubhasiz, mamlakatimizning ushbu yo‘nalishdagi islohotlariga xalqaro hamjamiyatning ijobiy fikrlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Binobarin, bir tomondan, yurtimizda qiynoqqa solish holatlariga uzil-kesil barham berilsa, ikkinchi tomondan, O‘zbekistonning xalqaro imidji yanada ortadi.

O‘zbekiston Prezidenti 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga taqdim etgan Murojaatnomasida inson huquq va erkinliklarini kafolatli himoya qilish, qonun ustuvorligini ta’minlashga qaratilgan islohotlar izchil davom ettirilishini ta’kidlar ekan, tyezkor-qidiruv, tergov va jazoni ijro etish sohasida qiynoqlarning oldini olish tizimini tubdan takomillashtirish zarurligiga e’tiborni qaratgandi [23]. Nega deganda, afsuski, mazkur sohada qiynoqqa solish holatlari hali ham uchrab turibdi.

Davlat rahbari, avvalambor, Oliy Majlis palatalari va Inson huquqlari bo‘yicha milliy markaz zimmasiga qiynoqlarning oldini olish bo‘yicha Ombudsman vakolatlarini kengaytirish, shuningdek jamoatchilik nazoratini kuchaytirish yuzasidan o‘z takliflarini ishlab chiqish vazifalarini yukladi. Bunda Ombudsman tomonidan har chorakda jamoatchilik vakillari bilan birgalikda tergov izolyatori va jazoni o‘tash muassasalariga “monitoring tashriflari” tizimi yo‘lga qo‘yilishi zarurligiga e’tibor qaratildi [24].

Shuningdek, Oliy Majlis palatalari har yili Ombudsmanning qiynoqlarning oldini olish bo‘yicha ma’ruzasini eshitib, bu illatga butunlay barham berish bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni belgilashi ko‘rsatib o‘tildi. Bu muhim vazifalar ayni paytda izchillik bilan amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 iyunda “Qiynoqqa solish holatlarini aniqlash va ularning oldini olish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qaroriga [25] asosan:

qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo‘llash holatlarini aniqlash va ularning oldini olish tizimi samaradorligini oshirish bo‘yicha qiynoqqa solish holatlarini aniqlash va ularning oldini olish tizimini xalqaro huquqning inson huquqlari sohasidagi umume’tirof etilgan prinsiplari va normalariga muvofiqlashtirish;

harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar tomonidan inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlarga yuborilgan murojaatlarning muassasa ma’muriyati tomonidan ko‘zdan kechirilmasligini hamda qabul qiluvchiga zudlik bilan yuborilishini qat’iy ta’minlash;

qiynoqqa solish holatlari to‘g‘risidagi murojaatlarning tezkor va xolisona ko‘rib chiqilishi hamda aybdor shaxslarning muqarrar javobgarlikka tortilishi mexanizmini takomillashtirish;

qiynoqqa solishdan jabrlanganlarga ijtimoiy, huquqiy, psixologik va tibbiy yordam ko‘rsatilishini hamda ularga yetkazilgan zararning kompensatsiya qilinishini ta’minlash;

qiynoqqa solish holatlarini aniqlash va ularning oldini olish faoliyatiga fuqarolik jamiyati institutlarini keng jalb qilish hamda ularning davlat organlari bilan samarali hamkorligini ta’minlash;

qiynoqqa solish holatlarini aniqlash va ularning oldini olish bo‘yicha faoliyat natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni keng jamoatchilikka yetkazish;

qiynoqqa solishning oldini olish borasida xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlarning milliy institutlari bilan yaqin hamkorlikni yo‘lga qo‘yish ustuvor vazifalar etib belgilandi.

Bir so‘z bilan aytganda, so‘nggi yillarda mamlakatimizda fuqarolar huquq va erkinliklari kafolatlarini yanada kuchaytirish, jumladan qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini

qo‘llash holatlariga mutlaqo yo‘l qo‘ymaslik maqsadida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ayniqsa, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi tomonidan BMTning Inson huquqlari bo‘yicha qo‘mitasi va Qiynoqqa qarshi qo‘mitasi tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan hamda 2022 yil 29 martda qabul qilingan Qonun bilan Fuqarolik kodeksiga kiritilgan qo‘shimchaga ko‘ra, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura organlari va sud tomonidan shaxsga nisbatan har qanday qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo‘llash natijasida yetkazilgan zarar davlat tomonidan to‘la hajmda qoplab beriladigan bo‘ldi [26].

Bu o‘rinda qiynoqqa solishdan jabrlangan shaxslarga yetkazilgan zararni kompensatsiya qilish tartibini huquqiy mustahkamlash haqida so‘z bormoqda. Ya’ni, qonun talabiga muvofiq, bundan buyon qiynoqqa solishdan jabrlangan shaxslarga yetkazilgan jismoniy va ruhiy zarar, moddiy zarar yoki boy berilgan foyda, ma’naviy zarar, yuridik yordam, dori vositalari va tibbiy xizmat, psixologik va ijtimoiy xizmatlar uchun qilingan xarajatlar davlat tomonidan to‘lab berilishi nazarda tutilmoqda.

Qiynoqlarning oldini olish bo‘yicha preventiv mexanizmni yanada takomillashtirish borasidagi ushbu ibratli natijaga O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini 2022 yilda amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”da belgilangan chora-tadbirlar ijrosi tufayli erishildi. Taraqqiyot strategiyasida qiynoqlarning oldini olish bo‘yicha xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka keng joriy qilish va preventiv milliy mexanizmning qonunchilik asoslarini rivojlantirish vazifalari kun tartibiga qo‘yilgan.

Bundan tashqari, tezkor-qidiruv, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov, jazoni ijro etish muassasalari xodimlarining qiynoqqa solishning oldini olish va ozodlikdan mahrum qilish joylarida inson huquqlarini ta’minlash sohasidagi bilim va malakalarini oshirish maqsadida 2021 yil noyabr oyida mamlakatimiz jazoni ijro etish muassasalari xodimlari uchun **“Nelson Mandela qoidalarining asosiy tamoyillari”** mavzusida amaliy trening tashkil etildi. Mazkur trening Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi tomonidan Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik tashkilotining O‘zbekistondagi Loyihalari muvofiqlashtiruvchisi va Daniyaning Qiynoqlarga qarshi kurash instituti bilan hamkorlikda o‘tkazildi.

Treninglar davomida Nelson Mandela qoidalarining asosiy tamoyillari, tegishli huquqbuzarliklarni aniqlash, mahkumlarni qiynoqlar va shafqatsiz muomaladan himoya qilish yuzasidan jazoni ijro etish muassasalari xodimlarining bilimini oshirish va ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratildi. Shunday qilib, birgina 2021 yilning o‘zida:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan Ichki ishlar vazirligi tizimida faoliyat olib boruvchi tezkor-qidiruv, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov faoliyatini amalga oshiruvchi organlar va jazoni ijro etish muassasalarining 1 ming 214 nafar xodimlari uchun;

Andijon, Namangan, Farg‘ona, Jizzax, Sirdaryo, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahridagi jazoni ijro etish muassasalarining 30 nafar;

xotin-qizlar axloq tuzatish muassasalarining 30 nafar;

Bosh prokuratura, Oliy sud, Statistika davlat qo‘mitasi, yuridik yo‘nalishdagi oliy o‘quv yurtlarining 28 nafar;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro, Navoiy, Samarqand viloyatlari jazoni ijro etish muassasalarining 35 nafar;

Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi va uning viloyat bo‘linmalarining 30 nafar xodimlari uchun inson huquqlari sohasidagi bilimini yanada mustahkamlash maqsadida o‘quv kurslari tashkil etildi.

Shu bilan birga, islohotlarning amaldagi bosqichi qiynoqqa solishning barvaqt

oldini olish, u bilan bog‘liq murojaatlarni tezkor ravishda xolisona ko‘rib chiqish, harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan joylarga monitoring tashriflarini muntazam amalga oshirish bo‘yicha samarali huquqiy mexanizmlarni yaratish ishlarini davom ettirish masalasini kun tartibiga qo‘ydi.

Mazkur dolzarb masala Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasida o‘z aksini topdi [27]. Mamlakatimizda izchil amalga oshirilayotgan “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” Davlat dasturida ham bu borada aniq vazifalar nazarda tutildi [28].

Ayni chog‘da, 2019-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasining jinoyat-ijroiya qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasi [29] qabul qilindi hamda Jinoyat-ijroiya kodeksining yangi tahriri ishlab chiqildi. Ayblov dalili sifatida noqonuniy usullar bilan olingan ma’lumotlardan foydalanish uchun qat’iy javobgarlik belgilandi. Jinoyat kodeksining 235-moddasi qiynoqlar masalasiga bag‘ishlangan bo‘lib, u BMT Qiynoqlarga qarshi konvensiyasining 1-moddasiga muvofiqlashtirildi.

Mahkumlar va qamoqda saqlanayotgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish mexanizmini mustahkamlash maqsadida, BMT shartnomaviy va ustav organlarining tavsiyalariga muvofiq, "Ombudsman-Plyus" modeliga asoslangan qiynoqlarning oldini olish bo‘yicha milliy preventiv mexanizm yaratildi. Ombudsman, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, Biznes-ombudsman va nodavlat notijorat tashkilotlarining qiynoqlar va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala va jazo turlarini oldini olish borasidagi roli kuchaytirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 10 dekabrdagi qarori bilan Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markaziga jazoni ijro etish muassasalariga, qamoqda saqlash va maxsus qabulxonalarga moneliksiz kirish huquqi berildi [30]. Ushbu huquqlar Milliy markazning Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash bo‘limi mas’ul xodimlari tomonidan amalga oshirilmoqda.

Prezident Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan yurtimizda demokratik islohotlarni amalga oshirish, jumladan, inson huquq va erkinliklari hamda qonun ustuvorligini ta’minlash borasida izchil va samarador ishlar amalga oshirilmoqda. **O‘zbekiston birinchi marta BMTning Inson huquqlari bo‘yicha kengashi a’zoligiga saylangani** bu sohadagi amaliy faoliyatimizning yuksak e’tirofi bo‘ldi [31]. 2021 yil 1 yanvardan buyon mamlakatimiz BMTning Inson huquqlari bo‘yicha kengashi a’zosi sifatida faol va samarali faoliyat olib bormoqda.

O‘zbekistonning Jeneva shahridagi BMT bo‘linmasi va boshqa xalqaro tashkilotlardagi doimiy vakili BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashi raisi o‘rinbosarligiga saylandi. O‘zbekiston vakili bu yuksak lavozimdagi vazifalarini 2022 yildan bajarishga kirishdi.

Mamlakatimizda yashayotgan har bir insonning huquq va erkinliklarini kafolatlash va to‘liq himoya qilish ham eng ustuvor vazifa sifatida belgilab olindi. **Inson huquqlari madaniyatini shakllantirish – ustuvor ahamiyatga ega.**

Bugungi kunda inson huquqlari va erkinliklari sohasida O‘zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan 80 dan ortiq xalqaro hujjatdagi holatlar milliy qonunchilikda o‘z ifodasini topgan. Mamlakatimiz qo‘shilgan xalqaro hujjatlarning bajarilishi yuzasidan milliy ma’ruzalar BMTning Inson huquqlari bo‘yicha kengashi hamda shartnomaviy qo‘mitalariga doimiy ravishda taqdim etib borilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, **2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi**ni amalga oshirish uchun 2022 yilga – **«Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili»** deb nom berilgani ham bejiz emas. Inson qadri degani, sodda qilib aytganda, insonni ulug‘lash va insonlar o‘rtasidagi o‘zaro mehr-muhabbatni qadrlash deganidir.

Dunyodagi hech bir mamlakatda so‘nggi yillarda O‘zbekistondagi kabi keng

ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmagan. O‘zbekiston jahon minbarlaridan ilgari surgan xalqaro, mintaqaviy va milliy tashabbuslar inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini har tomonlama ta’minlashga, bunda aynan “Inson qadri uchun” degan ustuvor tamoyilni to‘la ro‘yobga chiqarishga qaratilgani uchun ham xalqimiz, ham xalqaro hamjamiyatning e’tirofiga sazovor bo‘lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Тошкент шаҳрида қайси жиноят турлари ошгани маълум қилинди/ 20.10.2022//https://uza.uz

2. Фуқаровий ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пакт//https://lex.uz/docs/2640479#5582581

3. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси//https://lex.uz/docs/20596

4. Саидов А.Х. Қийноқлар – инсониятга қарши жиноят. – Т.: Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази, 2021. – Б.4.

5. БМТнинг Қийноққа солиш ва бошқа шафқатсиз, ғайриинсоний ёки қадр-қимматни камситувчи муомала ҳамда жазо турларини қўллашга қарши конвенцияси// https://lex.uz/docs/2655293

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 июндаги “Қийноққа солиш ҳолатларини аниқлаш ва уларнинг олдини олиш тизимини такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори// https://lex.uz/docs/5475607

7. Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий стратегияси//https://lex.uz/docs/4872355

8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 3 февралдаги “2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини «Ёшларни қўллаб-қувватлаш ва аҳоли саломатлигини мустаҳкамлаш йили»да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида”ги фармони// https://lex.uz/docs/5260791

9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 июндаги “Қийноққа солиш ҳолатларини аниқлаш ва уларнинг олдини олиш тизимини такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори// https://lex.uz/docs/5475607

10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 июндаги “Қийноққа солиш ҳолатларини аниқлаш ва уларнинг олдини олиш тизимини такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори// https://lex.uz/docs/5475607

11. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Т.: “O‘zbekiston” нашриёти, 2022. Б.45.

12. Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий стратегияси//https://lex.uz/docs/4872355

13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 25 мартдаги “Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази фаолиятининг моддий-техника таъминотини янада яхшилаш тўғрисида”ги қарори// https://lex.uz/uz/docs/5926102

14. БМТнинг Қийноққа солиш ва бошқа шафқатсиз, ғайриинсоний ёки қадр-қимматни камситувчи муомала ҳамда жазо турларини қўллашга қарши конвенцияси// https://lex.uz/docs/2655293

15. Қаранг: Акмал Саидов. Инсон қадри учун: юридик публицистика. – Т.: Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази, 2022. – Б.27.

16. Ўзбекистон Республикаси мазкур Конвенцияга Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг 1995 йил 31 августдаги 130-I-сонли «1984 йил 10 декабрдаги Қийноқларга солишга ва муомалада бўлиш ва жазолашнинг бошқа шафқатсиз, ғайриинсоний ёки қадр-қимматни таҳқирловчи турларига қарши конвецияга қўшилиш ҳақида»ги қарорига мувофиқ қўшилган.

17. БМТ Бош Ассамблеясининг 2015 йил 17 декабрдаги резолюцияси билан қабул қилинган “Маҳбуслар билан муомала қилишнинг минимал стандарт қоидалари”ни (Нелсон Мандела қоидалари)// https://cdn.penalreform.org/wp-content/uploads/2019/07/Nelson-Mandela-Rules_Uzbek-Language.pdf

18. БМТ Қийноқларга қарши қўмитасининг 68-чи сессиясида Ўзбекистон делегацияси иштирок этди/ 16.11.2019 //https://pravacheloveka.uz/

19. Президент БМТ Инсон ҳуқуқлари бўйича кенгаши сессиясида нутқ сўзлади//https://www.gazeta.uz/uz/2021/02/22/un-human-rights/

20. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 июндаги “Қийноққа солиш ҳолатларини аниқлаш ва уларнинг олдини олиш тизимини такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори// https://lex.uz/docs/5475607

21. Саидов А.Х. Мамлакатимизда қийноқларнинг ҳар қандай кўринишига мутлақо йўл қўйилмайди/ 02.07.2021//https://pravacheloveka.uz/

22. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 июндаги “Қийноққа солиш ҳолатларини аниқлаш ва уларнинг олдини олиш тизимини такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори// https://lex.uz/docs/5475607

23. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси/29.12.2020//https://president.uz/uz/lists/view/4057

24. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси/29.12.2020//https://president.uz/uz/lists/view/4057

25. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 июндаги “Қийноққа солиш ҳолатларини аниқлаш ва уларнинг олдини олиш тизимини такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори// https://lex.uz/docs/5475607

26. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 29.03.2022 йилдаги ЎРҚ-761-сон//https://lex.uz/uz/docs/5930229

27. Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий стратегияси//https://lex.uz/docs/4872355

28. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 3 февралдаги “2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини «Ёшларни қўллаб-қувватлаш ва аҳоли саломатлигини мустаҳкамлаш йили»да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида”ги фармони// https://lex.uz/docs/5260791

29. 2019-2021-йилларда Ўзбекистон Республикасининг жиноят-ижроия қонунчилигини такомиллаштириш концепцияси//https://lex.uz/docs/4045443

30. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 10.12.2018 йилдаги ПҚ-4056-сон/Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида// https://lex.uz/uz/docs/4098056

31. Саидов А.Х. Янги Ўзбекистонни барпо этиш йўлида/23.07.2022 //http://insonhuquqlari.uz/uz

Islamov Baxtiyor Djaxangirovich,
O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi

KONSTITUTSIYA VA SUD TIZIMI: HUQUQIY ASOS, SAMARADOR AMALIYOT, ISTIQBOL REJALARI

Yakuniga yetayotgan 2022 yilda xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yorqin ifodasi bo‘lmish O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 30 yillik bayrami keng nishonlandi. Asosiy qonun amal qilib kelayotgan shu qisqa davrda mamlakatimiz mustaqil va suveren davlat sifatida shakllanib, jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin egalladi, milliy huquq va qonunchilik asoslari shakllantirildi.

Konstitutsiyamiz mustaqillik davrida amalga oshirilgan demokratik islohotlar hamda ularning qonunchilik asoslarini yaratishning bosh huquqiy asosi, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishning kafolati bo‘lib xizmat qilmoqda. Chunki Asosiy qonunda xalqimiz uzoq yillar orzu qilgan milliy mustaqillik va rivojlanish yo‘limiz, inson huquq va erkinliklari kafolatlari belgilab berilgan.

Ayniqsa, so‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev rahbarligida mamlakatimizda **“Inson qadri uchun”** tamoyili asosida amalga oshirilayotgan davlat siyosati Konstitutsiya va xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalarida mustahkamlangan inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash, inson hayoti, daxlsizligi, qadr-qimmatini himoya qilishning samarali mexanizmlarini shakllantirishga qaratilganini ta’kidlash lozim. Zero, inson sha’ni, qadr-qimmati, huquq va erkinliklari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlari aynan adolatli va xolis, kuchli va mustaqil sud orqali himoya qilinadi.

Bu haqda so‘z borganda, Konstitutsiyamizning 11 ta moddadan iborat XXII bobi bevosita sud tizimiga bag‘ishlangani haqida to‘xtalish maqsadga muvofiqdir. Xususan, Bosh qomusimizning 106-moddasida “O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi” degan norma belgilab qo‘yilgan bo‘lsa, 112-moddada “Sudyalar mustaqildirlar, faqat qonunga bo‘ysunadilar. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo‘l qo‘yilmaydi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi. Sudyalarning daxlsizligi qonun bilan kafolatlanadi” degan konstitutsiyaviy qoidalar mustahkamlangan.

Davlatimiz rahbarining har yili Oliy Majlisga taqdim etayotgan Murojaatnomalarida, Prezidentimizning tashabbuslari bilan ishlab chiqilgan Harakatlar strategiyasi va Taraqqiyot strategiyasida hamda mamlakatimiz sudyalari bilan uchrashuvlarida inson huquq va erkinliklarini kafolatli himoya qilish, qonun ustuvorligini ta’minlashga qaratilgan islohotlarni izchil davom ettirish zarurligi qayta-qayta ta’kidlangani bejiz emas.

Yurtboshimiz ta’biri bilan aytganda, **“Adolat bu – davlatchilikning mustahkam poydevoridir. Adolat va qonun ustuvorligini ta’minlashda esa sud hokimiyati hal qiluvchi o‘rinni egallaydi”.**

Shu asosda mamlakatimizda sudlar mustaqilligini mustahkamlash, ishlarni ko‘rishda xolislik, adolat va qonuniylikni ta’minlash choralari ko‘rilmoqda. So‘nggi olti yilda bu tizimga oid 50 dan ortiq qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi.

O‘z navbatida, yurtimiz sud-huquq tizimini demokratlashtirish va erkinlashtirish, sud hokimiyati mustaqilligini ta’minlash, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Keyingi yillarda ushbu tizimning barcha yo‘nalishlari qatori jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchilikka ham ko‘plab o‘zgartirishlar kiritilgani ham buni yaqqol

tasdiqlaydi.

Xususan, 2021 yil 18 fevralda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq uchta muhim huquqiy institut – ko‘rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo‘yish, jinoyat ishi bo‘yicha dastlabki eshituv, aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv amaliyotga joriy etildi.

Birinchi huquqiy institut – ko‘rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo‘yish jarayoni guvoh va jabrlanuvchini ishni sudga qadar yuritish bosqichida prokurorning iltimosiga asosan so‘roq qilish bo‘lib, bu sud tomonidan amalga oshiriladi. Guvoh va jabrlanuvchini obyektiv sabablarga ko‘ra keyinchalik so‘roq qilish mumkin bo‘lmay qoladigan hollarda ularning ko‘rsatuvlari oldindan mustahkamlab qo‘yilishi mumkin.

Ikkinchi huquqiy institut – jinoyat ishi bo‘yicha dastlabki eshituv – jinoyat ishini to‘xtatib turish, tugatish, birlashtirish, ayblov dalolatnomasi yoki xulosasini, tibbiy yo‘sindagi majburlov chorasini qo‘llash to‘g‘risidagi qarorni prokurorga yuborish hamda nomaqbul dalillarni chiqarib tashlash uchun asoslar mavjud bo‘lgan taqdirda o‘tkaziladi. Dastlabki eshituvni o‘tkazish davomiyligi 10 sutkadan oshmasligi kerak. Bu amaliyotda turli pala-partishliklar va ortiqcha ovoragarchiliklarning oldini olishga hissa qo‘shadi.

Uchinchi huquqiy institut – aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv – o‘ta og‘ir jinoyat hisoblanmaydigan jinoyatlar bo‘yicha aybiga iqror bo‘lgan, jinoyatni ochishga ko‘maklashgan va zararni bartaraf etgan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining iltimosnomasiga asosan prokuror bilan tuziladigan institut hisoblanadi. Qonun-chilikka muvofiq aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzilganda jinoyatlar bo‘yicha jazo belgilangan eng ko‘p jazoning yarmidan oshmagan holda tayinlanadi.Bu taraflarga yengillik yaratishi barobarida jamiyatda insonparvarlik tamoyillaring keng yoyilishiga xizmat qiladi.

Ushbu qonun bilan jinoyat ishida himoyachi ishtirok etishi shart bo‘lgan holatlar ham kengaytirildi. Avvalambor, endilikda shaxs amalda ushlangan yoki uni ushlash bilan bog‘liq tezkor-qidiruv tadbiri yakunlangan paytdan boshlab, u bilan bog‘liq protsessual harakatlar amalga oshirilgunga qadar himoyachi bilan xoli uchrashishi ta’minlanadi.

Bundan tashqari, tezkor-qidiruv faoliyatni amalga oshiruvchi organlar tomonidan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchidan arizalar, tushuntirishlar va ko‘rsatuvlar olish surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudyaning yozma ruxsatiga asosan faqat himoyachi ishtirokida amalga oshiriladi. Albatta, himoyachidan voz kechilgan hollar bundan mustasno.

Bunday yangiliklar advokatura institutining mavqeini mustahkamlash va tortishuv prinsipining keng qo‘llanishiga imkon yaratadi, albatta.

Shuningdek, ushlab turish muddati shaxs amalda ushlangan paytdan e’tiboran ko‘pi bilan 48 soatni tashkil etadi. Ilgari bu muddat shaxs ichki ishlar organiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi organga keltirilgan vaqtdan boshlab hisoblangan.

Yana bir muhim jihat shundaki, himoyachi ishtirok etishi shart bo‘lgan holatlar tasnifi mukammallashdi. Bu holatlar toifasiga:

- dastlabki eshituv o‘tkazilayotgan;
- o‘ta og‘ir jinoyat sodir etganlikda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxslarga oid;
- shaxsga nisbatan qamoqqa olish yoki uy qamog‘i tarzidagi ehtiyotchorasini qo‘llash masalasi ko‘rib chiqilayotgan;
- aybiga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzilgan ishlar kiritildi.

Jinoyat ishini qo‘shimcha tergov yuritish uchun qaytarish institutibekor qilindi va dalillarga baho berish instituti tubdan takomillashtirildi. Bu, o‘z navbatida, ish bo‘yicha barcha holatlar sud tomonidan har tomonlama tekshirilib, dalillarga xolisona baho berilgan holda oqlov hukmlari ko‘payishiga asos yaratdi.

Bu boradagi ayrim raqamlarga e’tibor qarataylik: mamlakatimiz sudlari tomonidan

2017-2021 yillarda 3 ming 702 nafar shaxs oqlangan,20 ming 121 nafar shaxs sud zalidan ozod qilingan bo‘lsa, birgina2022 yilning o‘tgan 10 oyida 760 nafar shaxs oqlanib, reabilitatsiya qilingan. Sud zalidan ozod qilingan shaxslar soni 6 ming 917 nafarga teng bo‘ldi.

Shu davrda 47 ming 340 nafar sudlanganlarning 31 ming 318 nafariga ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa turdagi jazolar tayinlangan bo‘lsa, 1 ming 178 nafar shaxs shartli hukm qilingan.

Shuningdek, 47 ming nafar shaxsga nisbatan dastlabki tergov organlari tomonidan asossiz ravishda qo‘yilgan moddalar ayblovdan chiqarib tashlandi yoki qayta malakalandi.

Yarashuv institutining samarali qo‘llanilishi natijasida 12 ming 310 nafar shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod etildi.

Yetkazilgan 1 trillion 55 milliard so‘mdan ziyod moddiy zararning o‘rnini qoplagani tufayli 6 ming 502 nafar shaxsga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazo tayinlangan.

Viloyat va unga tenglashtirilgan sudlarning jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay’atlari tomonidan apellatsiya tartibida 12 ming 43 nafar shaxsga nisbatan 8 ming 744 ta jinoyat ishi ko‘rib chiqildi.

Shundan 856 nafar shaxsga nisbatan quyi sudlar tomonidan chiqarilgan qarorlar bekor qilinib, 2 ming 959 nafar shaxsga nisbatan chiqarilgan sud qarorlari o‘zgartirildi.

Oliy sudning jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati tomonidan kassatsiya tartibida 5 ming 221 nafar shaxsga nisbatan 5 ming 23 ta jinoyat ishi ko‘rib chiqildi. Bunda 969 nafar shaxsga nisbatan quyi sudlar tomonidan chiqarilgan qarorlar bekor qilinib, 441 nafar shaxsga nisbatan chiqarilgan sud qarorlari o‘zgartirildi.

Kassatsiya instansiyasida 219 nafar shaxsga nisbatan 195 ta jinoyat ishi takroran ko‘rib chiqildi va 123 nafar shaxsga nisbatan chiqarilgan qarorlar bekor qilinib, 76 nafar shaxsga nisbatan chiqarilgan sud qarorlari o‘zgartirildi.

Bir qarashda oddiy sonlar yig‘indisidek tuyuladigan bu raqamlar ortida shuncha kishining taqdiri o‘z aksini topgan. Eng asosiysi, sudlar tomonidan bu yo‘lda qo‘yilayotgan odil va insonparvar qadamlarning barchasi sud-huquq tizimidagi ijobiy o‘zgarishlardan yaqqol dalolatdir.

Sud-huquq sohasining yana bir muhim yo‘nalishi bo‘lgan sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish borasida ham jadal chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ishlarni inson omilisiz, ya’ni avtomatik ravishda taqsimlash, sud majlisi jadvalining yagona elektron bazasini joriy etish, sud qarorlarini rasmiy veb saytda e’lon qilish, sudga elektron murojaat va sud hujjatlarini taraflarga elektron shaklda yuborish, sud majlislarini audioyozuvdan foydalangan holda qayd etib borish kabi zamonaviy yondashuvlar evaziga odil sudlov samaradorligiga erishilmoqda.

O‘zbekiston Prezidentining 2020 yil 3 sentabrdagi “Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori odil sudlov sifati va samaradorligini oshirishda sohani raqamlashtirishni yanada kengaytirish maqsadiga qaratilgan.

Unga ko‘ra, Oliy sud axborot tizimini 28 ta davlat organi axborot tizimiga integratsiya qilish orqali ma’lumotlar almashinuvini 100 foiz raqamli shaklga o‘tkazishni nazarda tutuvchi “Yo‘l xaritasi”, shuningdek, 2020-2023 yillarda sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish dasturi tasdiqlandi.

Barcha sud majlislarini audioyozuvdan foydalangan holda qayd etib borish, birinchi instansiyada to‘liq joriy qilingan ishlarni sudyalar o‘rtasida avtomatik ravishda taqsimlash tartibini apellatsiya va kassatsiya instansiyasi sudlarida ham yo‘lga qo‘yish ishlari jadal sur’atda davom etmoqda. Bunda taraflarni sud majlislarining vaqti va joyi haqida elektron xabardor qilish, sud majlislarida videokonferensaloqa rejimida ishtirok etish imkonini beruvchi mobil dastur amaliyotga joriy etilayotgani barchaga qulaylik tug‘dirmoqda.

Sudlarning ochiqligi va shaffofligini ta’minlash borasida ham muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, sudlar chiqargan qarorlar Oliy sud veb-saytida muntazam ravishda e’lon qilib borilmoqda.

2020 yil 21 fevralda Oliy sud Plenumining “Sud muhokamasi oshkoraligini va sudlar faoliyatiga doir axborot olish huquqini ta’minlash to‘g‘risida”gi qarorni qabul qildi. Bundan ko‘zlangan maqsadsud muhokamasi oshkoraligini, sudlar faoliyatiga doir axborot olish huquqi to‘liq amalga oshirilishini ta’minlashdir.

Ushbu qarorda qayd etilishicha, sud muhokamasi oshkoraligi, sudlar faoliyatiga doir axborotni olish fuqarolik, jinoyat, iqtisodiy va ma’muriy sud ishlarini yuritish vazifalarini amalga oshirishga xizmat qilishi va sudlov faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga olib kelmasligi lozim.Chunki mamlakatimiz Konstitutsiyasining 112-moddasiga asosan sudyalar mustaqildir va faqat qonunga bo‘ysunadi.

Ommaviy axborot vositalari muayyan ish yuzasidan sud muhokamasi natijalarini oldindan bashorat qilishga yoki sudga boshqacha tarzda ta’sir etishga, jumladan, bosim o‘tkazishga haqli emas. Sudyaning sud qarori qonuniy kuchga kirmagan ish bo‘yicha intervyu berish yoxud ommaviy axborot vositalarida chiqish qilish taqiqlanadi. Sud muhokamasi oshkoraligi protsess ishtirokchisi bo‘lmagan shaxslarga, shu jumladan, ommaviy axborot vositalari vakillariga sud majlisida qatnashish imkoniyati berilishi bilan ta’minlanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda sud-huquq tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar amaldagi qonunlarga, shu jumladan Konstitutsiya normalariga tuzatishlar kiritishni talab etmoqda. Binobarin, mamlakatimizda barpo etilayotgan Yangi O‘zbekistonda davlat hokimiyati organlarining konstitutsiyaviy burchi inson qadri va xalq manfaatlarini ustuvor vazifasi etib belgilab beradigan konstitutsiyaviy islohotlar izchil davom etayotgani xususida fikr yuritishdan oldin Harakatlar strategiyasi doirasida o‘tgan besh yilda bu borada qo‘lga kiritilgan yutuqlarimizga muxtasar to‘xtalmoqchimiz.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 107-moddasida amaldagi sud tizimiga doir normalar mustahkamlangan. Sud tizimida yangi ixtisoslashtirilgan sudlar tashkil etilishi munosabati bilan hozirga qadar mazkur moddaga ikki marotaba o‘zgartirish kiritilgan.

Birinchi marta fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlar tashkil etilishi munosabati bilan 2003 yilda Konstitutsiyamizning ushbu moddasi takomillashtirilgandi. So‘ngra 2017 yilda ma’muriy sudlar tashkil etilishi munosabati bilan unga ikkinchi bor o‘zgartirish kiritilgan.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 iyulda qabul qilingan “Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq, sud tizimida 2021 yil 1 yanvardan boshlab:

– viloyat va unga tenglashtirilgan fuqarolik ishlari bo‘yicha, jinoyat ishlari bo‘yicha sudlar va iqtisodiy sudlar negizida sudyalarning qat’iy ixtisoslashuvini saqlab qolgan va sud ishlarini yuritish turlari bo‘yicha alohida sudlov hay’atlarini tashkil etgan holda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar umum-yurisdiksiya sudlarini tashkil etildi;

– ma’muriy va boshqa ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarni ko‘rishga ixtisoslashtirilgan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida tumanlararo ma’muriy sudlar tashkil etilib, shu munosabat bilan tuman (shahar) ma’muriy sudlari tugatildi. Bunda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar ma’muriy sudlari saqlab qolindi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 107-moddasi birinchi qismida mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatadigan sudlar belgilangan. Farmonga asosan sud tizimida tashkiliy-tuzilmaviy o‘zgarishlar amalga oshirilayotganligini inobatga olib, 2021 yil 8 fevralda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan Konstitutsiyaning 107-moddasi birinchi

qismiga tegishli o‘zgartishlar kiritildi.

Mamlakatimizning Asosiy qonuniga kiritilgan o‘zgartirishlar quyidagilardan iborat bo‘ldi:

birinchidan, viloyat va unga tenglashtirilgan fuqarolik ishlari bo‘yicha, jinoyat ishlari bo‘yicha sudlar va iqtisodiy sudlar negizida sudyalarning qat’iy ixtisoslashuvini saqlab qolgan va sud ishlarini yuritish turlari bo‘yicha alohida sudlov hay’atlarini tashkil etgan holda, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar umumyurisdiksiya sudlari tashkil etildi;

ikkinchidan, ma’muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarni ko‘rishga ixtisoslashtirilgan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida tumanlararo ma’muriy sudlar tashkil etilib, shu munosabat bilan tuman (shahar) ma’muriy sudlari tugatildi. Bunda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar ma’muriy sudlari saqlab qolindi.

Bu borada Prezidentimizning 2022 yil 29 yanvarda qabul qilingan “Davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari huquqlarining samarali himoya etilishini ta’minlash hamda aholining sudlarga bo‘lgan ishonchini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ulkan ahamiyat kasb etdi. Qarorga asosan ma’muriy sudlar tizimida "yagona darcha" tamoyilini keng joriy etish maqsadida arizalarni sudga taalluqliligidan qat’i nazar qabul qilish tartibi joriy qilinmoqda.

Bunda fuqarolar va tadbirkorlar ovoragarchiliklarining oldini olish, ularning vaqt va resurslarini tejash uchun sudlar tomonidan da’vo arizasi, ariza hamda shikoyatni sudga taalluqli bo‘lmagani sababli qabul qilishni rad etish yoki ish bo‘yicha ish yuritishni tugatish taqiqlanadi. Yanada muhimi, ish fuqarolik, iqtisodiy yoki ma’muriy sudga taalluqli bo‘lishidan qat’i nazar, arizalar ushbu sudlar tomonidan qabul qilinadi va tegishli sudlarga taalluqliligi bo‘yicha yuboriladi.

Ma’muriy sudlarda mansabdor shaxslarning qarorlari ustidan berilgan shikoyatlarni ko‘rib chiqish tizimini takomillashtirish orqali sud nazoratini qo‘llash sohasi kengaytirilmoqda. Shu maqsadda qarori, harakati yo harakatsizligi noqonuniy emasligini ma’muriy sudda isbotlash majburiyatini uni qabul qilgan mansabdor shaxsning o‘ziga yuklash tartibi — sudning faol ishtiroki" tamoyili joriy etilmoqda.

Bunda ma’muriy sudlarga ishning haqiqiy holatlarini aniqlash uchun o‘z tashabbusi bilan dalillarni yig‘ish majburiyati yuklanadi. O‘z navbatida, huquqi buzilgan fuqaro yoki tadbirkorlik subyekti dalillarni yig‘ishda faqat imkoniyati doirasida ishtirok etishiga sharoit yaratiladi.

Sud amaliyoti tahlili ma’muriy sudlarda ish holatlarini isbotlash majburiyati taraflarning o‘ziga yuklatilgani ularni tengsiz holatga keltirayotganini ko‘rsatdi. Jumladan, huquqi buzilgan fuqaro yoki yuridik shaxsning o‘z talablarini isbotlab berish bo‘yicha imkoniyatlari davlat organlarining resurslariga qaraganda birmuncha cheklangan hisoblanadi. Ushbu holatda ma’muriy sud ishlarini ko‘rishda sudning faol ishtiroki orqali taraflarning teng imkoniyatlari ta’minlanadi.

Bularning barchasi, avvalambor, ma’muriy sudlarning mustaqilligini ta’minlash, ularning adolatli va asosli sud qarorlarini qabul qilishi uchun huquqiy maydonni Konstitutsiya darajasida yanada mustahkamladi. Shu bilan birga, sudlar faoliyatiga davlat boshqaruvi va boshqa organlar tomonidan turli aralashuvlarning oldini olishga xizmat qilmoqda. Sudlar tomonidan qonun ustuvorligi hamda fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlari himoya qilinishini ta’minlashga yordam berayotir.

Mazkur o‘zgartirishlar fuqarolarning sudma-sud sarson bo‘lib yurishiga ham barham berdi. Yurtdoshlarimizning muammolari bir joyda hal qilinishiga, ortiqcha ovoragarchiliklarning oldini olishga sharoit yaratdi.

Yanada muhimi, O‘zbekiston

Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan ushbu o‘zgartirishlar odil sudlovga erishish imkoniyatlarini kengaytirdi. Sud tizimini boshqarish takomillashishiga, sudning chinakam mustaqilligi, qonun ustuvorligi, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning ta’minlanishiga xizmat qilib kelmoqda.

Ushbu islohotlar, shubhasiz, davlatimiz uchun xalq manfaatlari, adolatli sud tizimi va qonun ustuvorligi barcha narsadan muhim ekanini yaqqol namoyon etadi. Mazkur jarayonda erishilayotgan barcha yutuqlarning mustahkam huquqiy poydevori – Konstitutsiyamiz hisoblanadi.

Bundan bir yil muqaddam Prezidentimiz Prezidentimizning “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz” nomli nutqida jahon konstitutsiyaviy tajribasini o‘rganib, puxta o‘ylagan holda bugungi va kelgusi taraqqiyotimizni belgilab beradigan Asosiy qonunimizni takomillashtirish masalasi ilgari surilgan edi.

Ma’lumki, ayni paytda mamlakatimizda Konstitutsiyaga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha muhokamalar bo‘lib o‘tmoqda. Davlatimiz rahbari ta’biri bilan aytganda, ushbu konstitutsiyaviy islohotlarni Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining mazmuni va mantig‘i, xalqimiz bildirayotgan talab, istak va takliflar, shiddat bilan o‘zgarayotgan davrning o‘zi taqozo etmoqda.

Shu ma’noda, mamlakatimiz sud tizimi vakillari joriy konstitutsiyaviy islohotlarni to‘liq qo‘llab-quvvatlaydilar. Sudyalar va sud xodimlari tomonidan Asosiy qonunimizni jamiyatdagi bugungi real voqelikka, shiddatli islohotlarning mantig‘iga moslashtirishga qaratilgan ko‘plab takliflar Konstitutsiyaviy komissiya e’tiboriga taqdim etilgani bu fikrimizning amaliy ifodasidir.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy yangilanishlar – xalqparvar davlat barpo etishning eng muhim sharti. Shu nuqtai nazardan, 2022 yil milliy huquq va qonunchilik tarixida yangi davrni boshlab berdi. So‘nggi yillarda fuqarolarimiz tomonidan Bosh qomusimizni takomillashtirish bo‘yicha ko‘plab fikrlar bildirildi.

Hozirgi vaqtda Oliy Majlis palatalari Kengashlarining 2022 yil may oyidagi qarori asosida tuzilgan Konstitutsiyaviy komissiya tomonidan Bosh qomusimizni takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan Konstitutsiyaviy qonun loyihasini maromiga yetkazish borasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Konstitutsiya va qonun ustuvorligi davlat va jamiyat taraqqiyotining eng muhim omilidir. Binobarin, yurtimizning kelajagi, farzandlarimizning ertangi kuni aynan shu omil bilan bevosita bog‘liq.

Buni fuqarolarimiz ham chuqur anglamoqda, ular islohotlarning natijasiga ishongan holda, jamiyatda ro‘y berayotgan barcha ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etmoqda. Buni ikki oydan ko‘p vaqt mobaynida ochiqlik va oshkoralik prinsiplari asosida tashkil etilgan umumxalq muhokamasida fuqarolar tomonidan 160 mingga yaqin taklif bildirilgani ham yaqqol tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, davlatimiz rahbari ta’kidlaganlaridek, bularning barchasi – konstitutsiyaviy islohot fuqarolarimiz fikri va qo‘llab-quvvatlashi asosida, referendum orqali amalga oshirilayotganidan dalolatdir. Buning natijasida yangilanayotgan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tom ma’noda xalqimiz xohish-irodasining ifodasi — haqiqiy xalq Konstitutsiyasiga aylanishiga ishonamiz.

Yo‘ldoshev Nig‘matilla To‘lqinovich,
O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori,
3-darajali davlat adliya maslahatchisi

KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOT: MAQSAD INSON QADRI VA HUQUQLARINI TA’MINLASH

Shu kunlarda hayotimiz qomusi bo‘lgan Konstitutsiyamiz qabul qilinganligining 30 yilligini nishonlash arafasida turibmiz. Asosiy qomus mustaqillik yillarida erishgan barcha yutuq va marralarimizning mustahkam huquqiy poydevori bo‘lib kelayotir. Aynan Konstitutsiyamizga tayanib, Prezidentimiz boshchiligida bundan olti yil oldin mamlakatimizda Harakatlar strategiyasi qabul qilindi va Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar boshlandi.

O‘tgan qisqa davrda jamiyatimizning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy- iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy manzarasi butunlay o‘zgardi. Erkinlik va ochiqlik, qonun ustuvorligi, jahon hamjamiyati bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik davlatimiz siyosatining asosiy yo‘nalishiga aylandi. Konstitutsiyada muhrlab qo‘yilgan huquqiy demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyatini qurish g‘oyasiga sodiq qolib, shu yo‘lda keng ko‘lamli ulkan ishlar amalga oshirildi, katta tajriba to‘plandi.

“Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir” degan konstitutsiyaviy qoidadan kelib chiqib, xalq bilan doimiy muloqot o‘rnatildi, davlat idoralari rahbarlari fuqarolar oldida hisobot beradigan samarali tizim yo‘lga qo‘yildi. Davlat organlari faoliyatida ochiqlik va oshkoralik tobora kengayib bormoqda. Senator va deputatlar, vazir va hokimlar, barcha mansabdor shaxslar quyi bo‘g‘inga, mahalla darajasiga tushib, aholi bilan bevosita uchrashib, ularning muammolarini joyida hal etmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tizimli islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad inson qadrini ulug‘lash, xalqparvar ijtimoiy davlat barpo etish hamda adolat va qonun ustuvorligini ta’minlashdir. Uchinchi Renessans poydevorini yaratayotgan Yangi O‘zbekiston bu yo‘lda qisqa muddatda ulkan yutuqlarni qo‘lga kiritgani quvonchlidir. Darhaqiqat, O‘zbekistonda islohotlar samarasi o‘laroq, inson qadrini ulug‘lashga qaratilgan qator ishlar amalga oshirildi. Ularni xalqimiz va xalqaro hamjamiyat vakillari ko‘rib, bilib turibdi va o‘zlarining ijobiy baholarini berib borishmoqda. Mamlakatimizda bolalar mehnati va majburiy mehnatga barham berilgani, “Cotton campaign” tomonidan o‘zbek paxtasiga nisbatan boykotning bekor qilingani va yurtimizga Yevropa Ittifoqi tomonidan “GSP+” benefitsiari maqomi taqdim etilgani - bularning barchasi yuksak baholanyapti. Xalq bilan muloqot tizimining yo‘lga qo‘yilganligi, mantiqsiz “propiska” tizimining tubdan isloh qilinishi, davlat xizmatlarini ko‘rsatishda eksterritoriallik prinsipining joriy etilganligi, mansabdorlarning doimiy hisobot berib borishi, ular faoliyatining ochiqligini ta’minlashga qaratilgan talablarning belgilanganligi, inson huquq va erkinliklariga bo‘lgan hurmatning yangi bosqichga ko‘tarilganligi, aholining qanchadan-qancha mushkuli osonlashgani kabi bir qator misollar ham shular jumlasidandir. Eng muhimi, bunday o‘zgarishlarni har bir inson kundalik hayotida ko‘rmoqda, his etmoqda. Kelgusi islohotlarda esa mana shu erishilgan natijalarni yanada yuksaltirish, inson uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish maqsad qilingan.

Taraqqiyotimizning Prezidentimiz tomonidan asos solingan yangi bosqichidagi hayotbaxsh islohotlarning mustahkam huquqiy asoslari esa aynan Konstitutsiyamizda belgilab qo‘yilgan ustuvor tamoyil va qoidalarga to‘liq mosligini alohida e’tirof etish o‘rinlidir.

Alohida ta’kidlash kerakki, so‘nggi olti yilda sud mustaqilligi, saylov tizimi, mahalla institutini mustahkamlash va boshqa yo‘nalishlarda Konstitutsiyaning 21 ta moddasiga 32 ta o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritildi. Bu davrda Harakatlar strategiyasi doirasida “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak” degan bosh tamoyil asosida 77 ta Qonun, 32 ta Prezident Farmon va qarorlari, 57 ta

Hukumat qarori hamda 38 ta boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, hayotga tatbiq etildi. Natijada qonun ustuvorligi sohasida xalqaro reytinglarda mamlakatimiz o‘rni bir necha pog‘ona ko‘tarildi va aholi daromadlari ikki karra oshirildi.

Davlat organlarining tom ma’noda xalqqa xizmat qiluvchi tuzilmalarga aylantirilayotgani esa, davlatchilik tarixidagi misli ko‘rilmagan voqelikdir. Xususan, Konstitutsiyaga muvofiq mamlakat hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirishga vakolatli prokuratura organlari ham Davlatimiz rahbarining ezgu tashabbuslari, amaliy sa’y-harakatlari natijasida jazolovchi organ emas, balki insonning huquq va erkinliklarini, tadbirkorlarning manfaatlarini himoya qiluvchi tuzilma sifatida ham namoyon bo‘lmoqda.

Zotan, fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda belgilab qo‘yilgan huquq hamda erkinliklari himoyasini so‘zsiz ta’minlash bugun prokuratura organlarining ustuvor vazifasidir. Bu jarayonda “Inson qadrini ulug‘lash” tamoyili asosida prokuratura organlari tomonidan birgina joriy yilda **152** mingdan ziyod ehtiyojmand oilaga har tomonlama ko‘mak ko‘rsatildi. Ushbu yordamlarning manzilli tashkil etilganligi natijasida ularning qariyb 95 foizi ehtiyojmandlar ro‘yxatidan chiqarildi.

Jumladan, “Yoshlar daftari”ga kiritilgan **164** ming, “Ayollar daftari”dagi **477** ming nafar fuqaroga aniq va manzilli yordamlar ko‘rsatildi, jumladan **4** ming nafar yoshlar va **103** ming nafar xotin - qizlar prokurorlar ko‘magi bilan doimiy ishga joylashdi. Amalga oshirilayotgan ishlar daryodan bir tomchi xolos. Hali oldimizda ulkan vazifalar turibdi.

Men shu o‘rinda yana bir masalaga to‘xtalmoqchiman. Konstitutsiya normalarini hayotga to‘la tatbiq etish, jamiyatda qonun va adolat ustuvorligini, inson huquq va manfaatlari, uning qadr-qimmatini yanada samarali ta’minlash borasida hali ko‘p ish qilishimiz kerak. Ayniqsa, O‘zbekistonni rivojlantirishning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida o‘z aksini topayotgan, adolatli va xalqparvar davlat barpo etishda muhim ahamiyat kasb etadigan vazifalarni amalga oshirish uchun, avvalo, yangi konstitutsiyaviy makonni barpo etish, qonunchilik bazasini yanada mustahkamlash talab etiladi. Shu ma’noda, Asosiy qonunni bugungi real voqelikka, shiddatli islohotlar mantig‘iga moslashtirish, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratish muhim vazifaga aylanmoqda. Konstitutsiyaviy islohotlar natijadorligini ta’minlash va xalqchil islohotlarni davom ettirish maqsadida Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 9 ta ustuvor yo‘nalishlar belgilab berilgan edi. "Shaxs - jamiyat - davlat" paradigmasini konstitutsiyaviy qonunchilik va konstitutsiyaviy amaliyotda mustahkamlash, iqtisodiy islohotlar jarayonida shaxs manfaatlarini samarali ta’minlash hamda uning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqish, fuqarolik jamiyati institutlarining roli va mavqeyini konstitutsiyaviy asosda belgilash, oila, onalik va bolalik institutini rivojlantirish, millatlararo totuvlikni mustahkamlashning konstitutsiyaviy asoslarini belgilash, Konstitutsiyada yoshlarga oid davlat siyosatini ustuvor yo‘nalish sifatida kiritish, “Yangi O‘zbekiston - ijtimoiy davlat” tamoyilini konstitutsiyaviy norma sifatida belgilash, inson huquqlarini himoya qilishning amaldagi tizimi samaradorligini oshirish, bolalar mehnatining oldini olish, nogironlar, keksa avlod vakillari huquqlarini ishonchli himoya qilish, Konstitutsiyaga maxsus ekologik bo‘lim, global iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq huquqiy normalarni kiritish, inson kapitalini rivojlantirishni konstitutsiyaviy darajaga ko‘tarish shular jumlasidan.

Qayd etilgan manzilli islohotlarni izchillik bilan davom ettirish doirasida “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonuni loyihasi bo‘yicha Bosh Qomusimizning 64 ta moddasiga 200 dan ortiq o‘zgartish va qo‘shimchalar, 16 ta normani o‘z ichiga olgan 6 ta yangi modda qo‘shish taklif etildi. Mazkur taklif etilayotgan normalarga xalqimizning munosabatini Referendum o‘tkazish yo‘li bilan aniqlash rejalashtirilmoqda.

Prokuratura organlari ham qonunlar bajarilishini nazorat qilish va qonunchilik

tashabbusi huquqi asosida mazkur konstitutsiyaviy islohotlarning faol ishtirokchisi hisoblanadi. Bosh prokuratura tomonidan boshqa vakolatli idoralar hamkorligida Konstitutsiyaga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqidagi Konstitutsiyaviy qonun loyihasiga sud-huquq sohasini demokratlashtirish, ijtimoiy himoya va mulk huquqini himoya tizimini kuchaytirish yo‘nalishida qator takliflar ishlab chiqildi.

Xususan, sud-huquq sohasini demokratlashtirish va erkinlashtirish, sud hokimiyatining fuqarolar huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasidagi roli va ahamiyatini yanada oshirishga qaratilgan normalar bilan ya’ni, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109, 111, 112, 116- moddalari har jihatdan boyitiladigan bo‘ldi.

Masalan, 109-modda bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga har yili O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniylikning holati to‘g‘risida axborot taqdim etish vazifasi yuklanmoqda. Unga asosan, Konstitutsiyaviy sud bevosita islohotlar samaradorligini joyiga chiqqan holda o‘rganadi, fuqarolar va yuridik shaxslarning muayyan ishda sud tomonidan ularga nisbatan qo‘llanilgan qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligini tekshirish haqidagi shikoyatlarini ko‘rib chiqish orqali aholi bilan muloqoti yo‘lga qo‘yiladi. Umuman aytganda, ushbu soha vakillari ham xalq orasiga faol kirib boradi.

Yana bir muhim jihat, 116-moddada advokat shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha o‘z kasbiy vazifalarini amalga oshirayotganda uning faoliyatiga aralashishga yo‘l qo‘yilmasligini belgilash orqali malakali yuridik yordam kafolatlanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini isloh etishdan ko‘zlangan asosiy maqsad “Inson qadri uchun” g‘oyasini hamda hozirgi islohotlarimizning bosh tamoyili bo‘lgan “Inson - jamiyat - davlat” degan yondashuvni Konstitutsiyamizning mazmuniga chuqur singdirib, Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida amaliy hayotimizning bosh qadriyatiga aylantirishdir. Chunki inson qadrini yuksaltirish haqiqatda davlat hokimiyati organlarining konstitutsiyaviy burchi va ustuvor vazifasi bo‘lmog‘i shart.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “insonning qadr-qimmati, sha’ni va g‘ururi bundan buyon barcha sohalarda birinchi o‘rinda turishi kerak”. Bu borada davlatimiz rahbari tomonidan inson, uning hayoti, erkinligi, qadr-qimmati, daxlsiz huquqlari va manfaatlari masalasi bilan bog‘liq taklif va tavsiyalar jamoatchilik e’tiboriga havola etilgani alohida e’tiborga sazovor.

Konstitutsiyamizga “O‘zbekistonda o‘lim jazosi taqiqlanadi”, degan yana bir muhim normani kiritish taklif qilindi. Nega deganda, yashash huquqi - har bir insonning tabiiy huquqi.

Ko‘plab davlatlarning Konstitutsiya va qonunlarida hamda inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlarda aks etgan, shaxsni ushlash chog‘ida uning huquqlari va nima sababdan ushlangani sodda tilda tushuntirilishini nazarda tutadigan “Miranda qoidasi” Konstitutsiyamizda muhrlab qo‘yilmoqda. Shuningdek, “Xabeas korpus” institutini rivojlantirishga jiddiy ahamiyat berilmoqda.

Yangi Konstitutsiya loyihasida aholini ijtimoiy himoya qilish bilan bog‘liq huquqiy normalar aniq ochib berilmoqda. Jumladan, amaldagi Konstitutsiyaning “Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar” bobining 37-moddasida ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar va ishsiz fuqarolarni to‘liq qamrab olishi nazarda tutilmoqda. Ilgari ushbu normadagi bo‘shliq va tartibga solinmagan masalalar mavjudligi, sohada qator qonunbuzilishi holatlariga ham sharoit yaratib bergan. Xususan, Bosh prokuratura tomonidan joriy yilning o‘tgan davrida o‘tkazilgan o‘rganish va monitoringlar natijasida ijtimoiy sohada **25** mingdan ortiq qonunbuzilish holatlari aniqlanib, ularni bartaraf etish borasida **22** mingdan ziyod prokuror nazorati hujjatlari qo‘llanilgan, **5,9** mlrd. so‘mlik yetkazilgan zararlar ixtiyoriy qoplangan, sudlarga qiymati **27** mlrd. so‘mlik da’vo arizalari kiritilgan. Natijada **39** mingdan ziyod fuqaroning buzilgan huquqlari tiklangan.

Shu bilan birga, iqtisodiy sohada ham

26 mingdan ortiq qonun buzilishi holatlariga yo‘l qo‘yilgan, **52** mingdan ziyod shaxsning, shu jumladan 8 mingdan ortiq yuridik shaxslarning bu boradagi huquqlari buzilgan. Zero, amaldagi qonun hujjatlarida monopoliya, sud qarorisiz mulkni olib qo‘yish va fuqarolarning boshqa mulkiy huquqlarini sud orqali himoya qilish tartibi to‘lig‘icha mustahkamlab qo‘yilmagan edi.

Yangi taklif etilayotgan yana bir norma, bu tadbirkorlarning mulk huquqi daxlsizligi va raqobat muhitini qonuniy asoslarini yaratish bilan bog‘liq. Bosh qomusimizda xususiy mulk himoyasini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan konstitutsiyaviy kafolatlarni kuchaytirishimiz ko‘zda tutilmoqda. Toki, katta-kichikligidan qat’i nazar, har bir tadbirkor doimo davlat, Konstitutsiya, qonunlar hamda Prezident himoyasida ekanini amalda his etsin.

Iqtisodiyotimizni harakatga keltiruvchi asosiy kuch bo‘lgan tadbirkorlikning rivojlanishi yo‘lidagi barcha to‘siq va g‘ovlarni olib tashlash yo‘lida katta qadamlar tashlanayotgani sir emas. Shu maqsadda tadbirkorlar qonunchilikda taqiqlanmagan har qanday faoliyatni amalga oshirishga, o‘z faoliyati yo‘nalishlarini mustaqil ravishda tanlashga, tadbirkorlikdan cheklanmagan miqdorda daromad olishga haqli ekanini ham Asosiy qonunimizda aniq belgilab qo‘yish taklif etilmoqda.

Shu o‘rinda e’tiboringizni aholi manfaatidan kelib chiqib, islohotlar natijadorligini, qonun ustuvorligini ta’minlash va qonuniylikni mustahkamlash maqsadida **116** mingga yaqin prokuror nazorati hujjatlari qo‘llanilganiga qaratmoqchiman. Prokuror tekshirishlari va jinoyat ishlari tergovi davomida jami **1,5** trln. so‘m zarar undirildi.

Tadbirkorlar huquqini buzish holatlari bo‘yicha **869** nafar shaxs intizomiy va ma’muriy javobgarlikka tortildi, **607** ta noqonuniy hujjatga protest keltirildi, sudlarga **18,8** mlrd. so‘mlik **343** ta da’vo arizasi kiritildi, qo‘pol qonun buzilishi holatlari yuzasidan **112** ta jinoyat ishi qo‘zg‘atildi hamda **7.708** nafar tadbirkorlarning buzilgan huquqlari tiklandi. Xo‘sh, bu tadbirlardan ko‘zlangan maqsad nima? Albatta, xalqimizning Konstitutsion huquqlarini himoya qilish, buzilgan huquqlarini tiklash. Shu bilan birga, ijtimoiy sohaning muhim yo‘nalishlarida, jumladan, aholi sog‘lig‘ini saqlash, onalar va go‘daklar o‘limi holatlarini oldini olishga oid qonunchilik ijrosi yuzasidan nazorat tadbirlari tizimli davom ettirildi. Xususan, sog‘liqni saqlash sohasida aniqlangan qonunbuzilishi holatlarini bartaraf etish bo‘yicha **600** ta taqdimnoma kiritildi, **2383** ta noqonuniy hujjatlar qonunga muvofiqlashtirildi, **11.828** nafar shaxsning buzilgan huquqlari tiklandi.

Xulosa sifatida qayd etish joizki, yangilanayotgan konstitutsiya mamlakatimizning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyasi, yurtimiz va xalqimizning ertangi farovon hayoti uchun mustahkam huquqiy asos va ishonchli kafolat bo‘ladi. Zero, O‘zbekiston xalqi Konstitutsiyaga kiritish taklif etilayotgan yangi norma va qoidalarni mohiyatini his qilib, rejalashtirilayotgan siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etib, o‘zining xolis va haqqoniy munosabatini bildirib kelmoqda. Qolaversa, so‘nggi yillardagi islohotlar Prezidentimizning “Xalq - Qonun ijodkori” g‘oyasining hayotiyligi va zamonamiz talabiga qanchalik mosligini ro‘y-rost namoyon qildi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha keng jamoatchilikdan, jumladan, o‘qituvchilar, tadbirkorlar, fermerlar, fuqarolik jamiyati institutlari va milliy-madaniy markazlar, siyosiy partiyalar vakillari, mahallalar aholisidan, huquqni muhofaza qiluvchi organlardan minglab takliflar kelib tushgani va tushayotgani bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Bu esa xalqimiz Konstitutsiyamiz va qonunlarimiz o‘zgarishidan manfaatdor ekanligini namoyon etmoqda.

Djurayev Rustam Mirzayevich,
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi
qo‘mondoni, general-mayor, dotsent,
O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLOVCHI ORGANLARNING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY MAQOMINING SHAKLLANISHI

Jamiyatda barqarorlik, tinchlik va osoyishtalikni qaror toptirish, inson huquq va erkinliklariga so‘zsiz rioya etilishini ta’minlash mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirish, aholi farovonligini yuksaltirish, huquqiy demokratik davlat qurish bo‘yicha amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlardan ko‘zlangan maqsadlarga erishishning muhim sharti hisoblanadi.

Ayniqsa, xalqaro terrorizm, ekstremizm, narkotrafik, diniy qarama-qarshilik, noqonuniy migratsiya, odam savdosi, ekologik muammolar, ayrim mintaqalarda iqtisodiy nochorlik, ishsizlik, qashshoqlik kuchayib borayotgani butun insoniyatni qattiq xavotirga solmoqda.

Ta’kidlash joizki, xavfsizlikka ehtiyoj har bir inson, jamiyat va davlat faoliyatining asosiy sharti hisoblanadi. Hozirgi dunyoda biror bir davlat yoki mintaqa o‘z xavfsizligi, barqarorligi hamda taraqqiyotini faqat o‘z imkoniyatlariga tayangan holda uzoq muddatga ta’minlashi mushkul. Shu sababli ijtimoiy munosabatlar tizimida xavfsizlik masalalari, uni ta’minlashning samarali mexanizmlari vosita va institutlarini yaratish har bir davlat faoliyatining ustuvor vazifalari qatoriga kirib, jamiyat va davlat uchun o‘zini mavjudligini saqlab qolish va barqaror rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi.

Ta’kidlab o‘tilgan omillar xavfsizlik muammolarini nazariy jihatdan o‘rganish, muntazam ravishda monitoring qilib borish, tahdid va xavflarni o‘z vaqtida tahlil qilish va baholashni taqozo etadi.

Xavfsizlikning iqtisodiy, siyosiy, ekologik, informatsion, harbiy, demografik, oziq-ovqatga oid va boshqa jihatlari mavjudligi barchamizga ayon.

Xavfsizlikning miqyosi to‘g‘risida gapiradigan bo‘lsak global, mintaqaviy, davlat va jamiyat xavfsizligi to‘g‘risida fikr yuritish mumkin.

Insoniyat taraqqiyoti davomida xavfsizlikni ta’minlash muammosi ko‘lami inson, jamiyat, davlat xavfsizligiga tomon kengayib bordi.

Inson, jamiyat, davlat, jahon hamjamiyati hayotining turli tomonlariga, moddiy va ma’naviy qadriyatlariga putur yetkazadigan xavf-xatar, tahdidlarni o‘rganish, aniqlash, bartaraf etish, qaytarish, yumshatishga qaratilgan faoliyati - xavfsizlikni ta’minlash faoliyatidir.

Xavfsizlik sohasi, xususan, turli inson, ijtimoiy guruh va institutlar joylashgan makon bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan jamoat xavfsizligini aniq va ehtimolli xavf hamda tahdidlarni inobatga olib tashkil etish shuningdek, mazkur tizimning samarali faoliyatini ta'minlash hamda doimo takomillashtirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xavfsizligini ta’minlashda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati ilmiy jihatdan yetarli darajada yoritilmaganligi, xavfsizlik tizimini turli fanlar nuqtai-nazaridan tahlil etish, mavjud hamda ehtimolli xavf va tahdidlarni aniqlash orqali mazkur tizimni takomillashtirishni dolzarb ilmiy muammo sirasiga kiritadi.

Xavfsizlik turlari sifatida shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ko‘rsatish mumkin.

Shaxs xavfsizligi – shaxsning huquq va erkinliklarini amalga oshirilishini ta’minlovchi shart-sharoitlar majmui; yoki shaxsning hayotiy muhim manfaatlarining himoyalanganlik holati sifatida ta’riflanadi. O‘zbekiston Respublikasining milliy xavfsizlikka oid qonunchiligiga muvofiq, shaxsning huquq va erkinliklari uning hayotiy muhim manfaatlarini tashkil etadi.

Jamiyat xavfsizligi – bu jamiyatning

ma’naviy va moddiy boyliklari, qadriyatlarini saqlanishini, muhofaza qilinishini ta’minlovchi shart-sharoitlar majmuidir. Jamiyat xavfsizligi jamoat tashkilotlari, huquqiy me’yorlar hamda tegishli shart-sharoitlarning shakllanishini kafolatlovchi taraqqiy topgan ijtimoiy ongni taqozo etadi. Xavfsizlik subyektlari uchligida – shaxs, jamiyat va davlat hamda ularning manfaatlari tizimida jamiyat xavfsizligi milliy xavfsizlikning nisbatan subyektiv, individual va kollektiv elementi (ijtimoiy guruhlar xavfsizligi) sifatida namoyon bo‘ladi.

Davlat xavfsizligi. Ushbu atama ikki xil ma’no kasb etadi. Hozirgi zamon xavfsizlik tadqiqotlarida davlat xavfsizligi tor ma’noda, ya’ni milliy xavfsizlikning tarkibiy qismi sifatida tushuniladi.

Ushbu mazmunda davlat va uning xavfsizligi, shaxs va jamiyat xavfsizligi bilan bir qatorda, milliy xavfsizlikning uch elementidan biri sifatida belgilanadi. Davlat xavfsizligi tor ma’noda suverenitet, hududiy yaxlitlik va konstitutsiyaviy tuzum (davlatning hayotiy muhim manfaatlari)ning tashqi va ichki xavflardan himoyalanganlik holati sifatida ta’riflanadi. Keng ma’noda davlat xavfsizligi davlat (mamlakat)ning umumiy xavfsizligini anglatadi va “milliy xavfsizlik” tushunchasining sinonimi sifatida qo‘llaniladi.

Shundan kelib chiqqan holda xavfsizlik - shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining ta’minlaganligini hamda turli xavf va tahdidlardan harbiy, siyosiy-huquqiy, ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy himoyalanganlik holatini ifoda etuvchi ijtimoiy hodisadir.

Xavfsizlik tizimini quyidagilar tashkil etadi:

Subyektlar, kuchlar; vositalar, obyektlar, tahdidlar.

Xavfsizlikni tuzilishi: davlat xavfsizligi, jamoat xavfsizligi, yo‘l harakati xavfsizligi, sanitariya xavfsizligi, texnogen xavfsizlik, ekologik xavfsizlik, ijtimoiy xavfsizlik, aviatsiya xavfsizligi va yong‘in xavfsizligi.

Jamoat xavfsizligini ta'minlash bo‘yicha faoliyat olib boruvchi huquqni muhofaza qiluvchi organlar quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi sud hokimiyati organlari;

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi;

O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlari;

Ichki ishlar vazirligi;

Davlat xavfsizlik xizmati;

O‘zbekiston bojxona organlari;

boshqa davlat va nodavlat organlari, jamoatchilik tashkilotlari.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xavfsizlikni ta'minlashda o‘rni va ahamiyati deganda quyidagilar tushuniladi:

jamoat xavfsizligini ta'minlash bevosita xizmat faoliyatiga kiradigan mustaqil tuzilmalarning mavjudligi;

jamoat xavfsizligini ta'minlash huquqni muhofaza qiluvchi organlarning asosiy faoliyat yo‘nalishi ekanligi;

xavfsizlik, jamoat xavfsizligini ta'minlashda mazkur organlarga alohida vakolatlar berilganligi (masalan, majburlov choralarini qo‘llash).

Ta’kidlash joizki, xavfsizlikni ta’minlash barcha davlat organlari o‘rtasidagi hamkorlik, jamoat tuzilmalari, shuningdek fuqarolar bilan munosabatlari hamda ijtimoiy faoliyatning natijasi sifatida ularning xatti-harakatlari orqali namoyon bo‘ladi. Siyosiy tizim (davlat, jamoat birlashmalari) jamoat tartibini shakllantiradi, ijtimoiy xatti-harakatlar qoidalarini o‘rnatish, ularning ijrolari va ularga rioya etilishini ta’minlash orqali ijtimoiy munosabatlarga faol ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi “...bugungi kunda biz **“Xavfsiz shahar – xavfsiz mamlakat”** konsepsiyasi asosida yurtimizda jamoat tartibini ta’minlashga qaratilgan katta ishlarni amalga oshirmoqdamiz. Shu munosabat bilan mana shu **yangi tuzilma, ya’ni, Milliy gvardiya** tashkil etildi. Endi bundan buyon har bir shahar va viloyatda xavfsiz hudud loyihasini amalga oshirish, jamoat tartibini saqlash uchun Ichki ishlar vazirligi bilan birga Milliy gvardiya mas’ul va javobgar etib belgilanadi” degan so‘zlari Milliy gvardiyaning barcha shaxsiy tarkibi

uchun dasturulamal va strategik vazifa bo‘lib xizmat qilishi kerak.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, O‘zbekistonda jamoat xavfsizligini ta’minlovchi organlarning konstitutsiyaviy-huquqiy maqomini mustahkamlash va ularning huquqni muhofaza qilishda rolini oshirish maqsadida quyidagilar taklif etiladi:

- Konstitutsiyada “xavfsizlik”, “jamoat xavfsizligini ta’minlash” “jamoat xavfsizligini ta’minlashda davlat organlari, nodavlat tashkilotlar va fuqarolar ishtiroki” masalalari alohida qoida sifatida kiritilishi kerak. “Jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimi jamoat xavfsizligini ijtimoiy maqbul bo‘lgan darajada saqlab turishga qaratilgan siyosiy, harbiy, huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy, ilmiy va boshqa choralardan iborat”ligini huquqiy tartibga solish maqsadga muvofiq.

- jamoat xavfsizligini ta’minlashning tizimini, prinsiplarini, subyektlar vakolatlarini belgilovchi “Jamoat xavfsizligini ta’minlash to‘g‘risida”gi qonunini qabul qilish maqsadga muvofiq.

- jamoat xavfsizligini ta’minlashning quyidagi asosiy prinsiplari – qonuniylik, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga rioya etish, jamoat xavfsizligini ta’minlash subyektlarining boshqa davlat organlari bilan o‘zaro hamkorligini takomillashtirish lozim.

Yuqoridagi takliflarning amalga oshirilishi jamoat xavfsizligini ta’minlovchi organlar faoliyatini yanada takomillashtirishga, xavfsizlik va jamoat xavfsizligini samarali, ishonchli ta’minlashning darajasi oshirilishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // lex.uz (murojaat sanasi 09.08.2022 yil)
2. Одилқориев Х.Т. Қонун ижодкорлиги соҳасидаги ҳуқуқий сиёсат: шаклланиши ва амалга оширилиши // Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академиясининг ахборотномаси. – Тошкент, 2015. – №2. – Б.5. (Б.3-9)
3. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 18 noyabr kunidagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risidagi” Qonuni // lex.uz. (murojaat sanasi 22.08.2022 yil)
4. Маматқулов С.С. “Ички ишлар идоралари фаолиятини такомиллаштириш ўзбекистон республикаси жамоат хавфсизлигини таьминлашнинг муҳим омили сифатида” магистирлик дис. -Т., 2011. – 12 б.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 aprel kunidagi “Milliy qonunchilik bazasini kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6218-son Farmoni // lex uz. (murojaat sanasi 04.09.2022 yil)
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabr kunidagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-27-son Farmoni // lex uz. (murojaat sanasi 01.09.2022 yil)

Tursunov Botir Rajabovich,
professor, general-mayor

KONSTITUTSIYADA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI MAQOMI MUSTAHKAMLANMOQDA

Davlat rahbari Konstitutsiyamiz qabul qilinganligining 29 yilligi munosabati bilan yo‘llagan tabrigida konstitutsiyaviy islohotlarni amalga oshirish jarayonida ustuvor yo‘nalish sifatida, “Jamiyat — islohotlar tashabbuskori” degan ezgu g‘oya doirasida Asosiy qonunimizda fuqarolik jamiyati institutlarining o‘rni va maqomini konstitutsiyaviy jihatdan mustahkamlash ham davr talabidir [1], degan masalaga alohida to‘xtalib o‘tgan edi.

So‘nggi yillarda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash borasida izchil ishlar olib borilayotir. Bugunga kelib kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish mamlakatimiz uchun ustuvor vazifa bo‘lib qolmoqda.

Ta’kidlash lozimki, fuqarolik jamiyatida huquq va qonun ustuvor ahamiyat kasb etib, inson manfaatlari, uning erkinliklari ro‘yobga chiqadi hamda huquqiy jihatdan kafolatlanadi. E’tiborlisi, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat bir-biri bilan uzviy bog‘liqlikda rivojlanadi va taraqqiy etadi. Ya’ni qonun ustuvorligi, sudning mustaqilligi ta’minlanar ekan, insonlarning huquq va erkinliklari kafolatlanar, shaxs va davlat o‘rtasidagi o‘zaro mas’ullik qaror topar ekan, demak, bunday jamiyatni fuqarolik jamiyati deb atashimizga to‘liq asoslar bor, deb hisoblashimiz mumkin bo‘ladi.

Darhaqiqat, fuqarolarimizdan kelib tushgan ko‘plab takliflar asosida, Konstitutsiyaviy qonun loyihasining 56-moddasi [2] yangi norma bilan to‘ldirilyapti. Fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi. Davlat esa fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash choralarini amalga oshiradi, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish va ijtimoiy sheriklik dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ularning ishtirok etishini ta’minlaydi.

Yangi O‘zbekistonni kuchli va adolatli fuqarolik jamiyatiga aylantirish g‘oyasi asosida fuqarolik jamiyati institutlarining maqomini konstitutsiyaviy darajada mustahkamlab qo‘yish maqsadida 56-moddaga, ilk bor “fuqarolik jamiyati”, “fuqarolik jamiyati institutlari”, “nodavlat notijorat tashkilotlari”, “fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari” kabi yangi tushunchalar kiritilmoqda.

“Fuqarolik jamiyati” degan tushunchaning tub ildizlari xalqimizning necha ming yillik olis tarixiga borib taqalishi ayni haqiqatdir. Fuqarolik jamiyatining noyob va betakror milliy instituti bo‘lmish fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, jumladan, milliy demokratiya maktabi — mahallalar faqat bizning xalqimiz turmush tarziga, jamiyatimiz hayotigagina xos ekani ham shundan dalolat beradi.

Oxirgi olti yillikda fuqarolik jamiyati institutlarning rolini oshirish, xalq manfaatlarini himoya qilish sohasidagi vakolatlarini kengaytirish borasida ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. E’tibor qaratadigan bo‘lsak, davlat rahbarining tashabbusi bilan qabul qilingan 2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ham fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, ularning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish — davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishi sifatida belgilab olingan.

Hozirgi kunda fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyatini tartibga soladigan bir qancha huquqiy asoslar qabul qilingan. Xususan, “O‘zbekiston Respublikasining jamoat birlashmalari to‘g‘risida”, “Nodavlat notijorat tashkilotlar to‘g‘risida”, “Jamoat fondlari to‘g‘risida”, “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”, “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”, “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”, “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi qonunlar va boshqa yuzdan ortiq normativ-huquqiy

hujjatlarda ularning huquqiy maqomi belgilab qo‘yilgan. Kelgusida mazkur normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirgan holda nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risidagi alohida kodeksni qabul qilish mas’uliyati ham qonun ijodkorlari oldida muhim vazifa sifatida turibdi.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining keyingi bosqichlarida fuqarolik jamiyati institutlarini yanada davlat tomonidan qo‘llab- quvvatlash, ularni har tomonlama himoyalash masalasi ulkan maqsad sifatida qo‘yilmoqda. Shu sababli nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlar yangi bosqichga chiqmoqda. Amalga oshirilayotgan izchil islohotlar natijasida shaxs, jamiyat va davlat o‘rtasidagi munosabatlarda vositachi sifatida ishtirok etuvchi jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari soni oshib, ularning turli sohalardagi dolzarb masalalarni hal qilishda ishtiroki kuchayib borayotir.

Ta’kidlash lozimki, bugungi kunda O‘zbekistonda ko‘plab nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat yuritmoqda. Xususan, yaratilgan huquqiy asoslar natijasida, mamlakatda NNTlarning erkin va barqaror rivojlanishi yanada jadallashdi. Xususan, 1991 yilning 1 yanvar holatiga ko‘ra, respublikada 95 ta NNT faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, 2000 yilning 1 yanvariga kelib, ularning soni 2585 tani, 2016 yilda 8417 tani, hozirda esa 9200 dan ziyodni tashkil etmoqda.

2021 yil 3 mart kuni davlat rahbari tomonidan qabul qilingan “Nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, ularning faoliyati erkinligi, huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta’minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori [3] hamda 4 martdagi “2021— 2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning zamonaviy bosqichida yangi sahifani ochib berdi.

Xususan, 2017 — 2020 yillarda NNT va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining 1270 dan ortiq loyihalarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida Davlat budjetidan 117 mlrd. so‘m miqdordagi mablag‘lar ajratildi. 2021 — 2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi doirasida fuqarolik jamiyati institutlariga ko‘mak berish hamda ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmini yanada takomillashtirish yo‘llari belgilandi. Jumladan, NNT va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini davlat tomonidan subsidiyalar, grantlar va ijtimoiy buyurtmalar shakllarida qo‘llab-quvvatlash hajmini 2025 yilda 1,8 baravarga oshirish; Mahalliy kengashlar huzuridagi NNT va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondlariga 2025 yilda 70 mlrd. so‘m mablag‘lar ajratish ko‘zda tutilgan.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining **12-maqsadida** ham ayrim davlat funksiyalarini amalga oshirish jarayoniga jamoatchilik nazorati sub’ektlarini keng jalb qilish, ommaviy axborot vositalarining roli va jurnalistlarning kasbiy faoliyati himoyasini yanada kuchaytirish, odamlarni qiynayotgan muammolar hamda islohotlarning ijrosi ahvolini o‘rganishda ularning mehnatidan samarali foydalanish, ijtimoiy sheriklikning samarasini oshirish, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini davlat tomonidan subsidiyalar, grantlar va ijtimoiy buyurtmalar shakllarida qo‘llab-quvvatlash hajmini ikki barobarga oshirish kabi muhim konseptual vazifalar belgilab qo‘yildi.

Misol tariqasida, davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi o‘zaro ijtimoiy sheriklik munosabatlarini yanada kuchaytirish maqsadida 2020 yil 30 dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “2021 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qaroriga muvofiq, NNT va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash uchun 45 mlrd. 782,2 mln. so‘m mablag‘ ajratilgan [4].

Yana bir e’tiborli jihati, ijtimoiy sheriklik munosabatlarini kuchaytirish maqsadida, Oliy Majlis huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi mablag‘larini boshqarish bo‘yicha Parlament komissiyasi tomonidan 2021 yilda 50 mlrd. 400 mln. so‘mlik davlat subsidiyasi, 14 mlrd. 800

so‘mlik davlat ijtimoiy buyurtmalari, 10 mlrd. 600 mln. so‘m miqdorida davlat grantlarini ajratish hajmlari tasdiqlangan [5].

Aslida ham fuqarolik jamiyatisiz zamonaviy davlatchilikni tasavvur qilish mumkin emas. Kuchli fuqarolik jamiyati demokratik davlatning muhim belgisi bo‘lib, aholi turli qatlamlari manfaatlarini samarali himoya qilish imkonini beradi. Davlatning fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash sohasidagi vazifalarini Asosiy qonunimizda belgilovchi normalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning dolzarb muammolarini hal qilishda fuqarolik jamiyati institutlarining ahamiyati va rolini oshirishga, ularning faoliyatini subsidiyalar, grantlar va ijtimoiy buyurtmalar shaklida qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Muxtasar aytganda, fuqarolik jamiyati institutlari inson huquqlarini ta’minlash va himoya qilish, aholining huquqiy madaniyatini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Shunday ekan, fuqarolik jamiyatiga eng muhim konstitutsiyaviy-huquqiy institut sifatida qarashimiz lozim. Yangi bosqichda fuqarolik jamiyatining o‘rni tobora ortib borayotganini hisobga olgan holda, mamlakatimiz Asosiy qonuniga tegishli o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish, so‘zsiz, konstitutsiyaviy islohotlarimizning asosiy maqsadini tashkil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://www.gazeta.uz/uz/2021/12/07/constitution/
2. Халқ сўзи. 2022 йил 25 июнь.
3. https://lex.uz/docs/5317637
4. https://lex.uz/docs/5193227
5. https://parliament.gov.uz/uz/.Олий Мажлис Қонунчилик палатасининг 2021 йил якунлари Ҳисоботи.

Tursunov B.R. Konstitutsiyada fuqarolik jamiyati institutlari maqomi mustahkamlanmoqda

Mazkur maqolada Konstitutsiyaga kiritilayotgan fuqarolik jamiyati institutlari bilan bog‘liq yangi qoidalar, O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasidagi asosiy yo‘nalish, fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyatini tartibga soladigan huquqiy asoslar, nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tartibi, ijtimoiy sheriklik masalalari yoritib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: fuqarolik jamiyati institutlari, Taraqqiyot strategiyasi, jamoat fondlari, parlament komissiyasi, davlat subsidiyasi, davlat granti, ijtimoiy buyurtma.

Турсунов Б.Р. Статус институтов гражданского общества закрепляется в Конституции

В данной статье новые положения, касающиеся институтов гражданского общества, включенных в Конституцию, основные направления в Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан, правовые основы, регулирующие деятельность гражданского общества учреждений, государственной поддержки негосударственных некоммерческих организаций, порядок поддержки, вопросы социального партнерства.

Ключевые слова: институты гражданского общества, стратегия развития, общественные средства, парламентская комиссия, государственная субсидия, государственный грант, социальный заказ.

Tursunov B.R. The status of civil society institutions is being strengthened in the Constitution

In this article, the new provisions related to the institutions of civil society included in the Constitution, the main direction in the Strategy of Actions on the five priority directions of the development of the Republic of Uzbekistan, the legal bases regulating the activities of civil society institutions, the state support of non-governmental non-profit organizations the procedure of support, issues of social partnership are highlighted.

Key words: civil society institutions, Development strategy, public funds, parliamentary commission, state subsidy, state grant, social order.

Mamayusupov Sarvar Dehkanovich,
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi
qo‘mondoni o‘rinbosari, polkovnik

KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLAR SHAROITIDA HARBIYLAR ONGIGA MILLIY QADRIYATLARNI SINGDIRISH MASALALARI

Istiqlol yillarida yurtimizda yangi davlat va jamiyat qurish yo‘lida tarixiy ishlar amalga oshirildi, mard va oliyjanob xalqimizning bukilmas irodasi va ulkan salohiyati bilan katta marralar zabt etildi. Tarixan qisqa muddatda mamlakatimiz Konstitutsiyasi – Asosiy qonunimiz ishlab chiqildi va qabul qilindi. Vatanimiz suveren davlat sifatida jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin egalladi. O‘zbekistonda zamonaviy davlatchilik asoslari yaratilib, konstitutsiyaviy tuzumga asos solindi. Davlat hokimiyatining uchta mustaqil tarmog‘i – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari qaror topdi. Tom ma’nodagi konstitutsiyaviy davlat barpo etildi [1].

O‘zbekiston Respublikasining suvereniteti va davlat mustaqilligini, sarhadlarimiz daxlsizligi, xalqimizning tinch-osoyishta hayoti hamda milliy manfaatlarimizni ishonchli himoya qilishga qodir bo‘lgan Qurolli Kuchlar tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga murojaatnomasida ta’kidlab o‘tganidek, jamiyatimizda aholi, ayniqsa, yosh yigit-qizlarimizning ma’naviy va ma’rifiy saviyasini doimiy yuksaltirish – birinchi darajali ahamiyatga ega. Shu boisdan, “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan dasturiy g‘oya asosida, yoshlarni ona yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik, fidoyilik, axloqiy fazilatlarni shakllantirish – o‘ta sharafli vazifadir [2, 35].

So‘nggi yillarda harbiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mamlakatning mudofaa salohiyati yanada mustahkamlanmoqda. Birgina 2019 yilning o‘zida mudofaa sohasida 7 ta qonun, 50 ta farmon va qarorlar, 20 dan ortiq dastur va «yo‘l xaritalari» qabul qilingani ana shu masalalarni kompleks hal etishga davlat miqyosida qanchalik muhim ahamiyat berilayotganligini ko‘rsatadi [4, 128].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qurolli Kuchlar Oliy Bosh qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “...agar dunyo tajribasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, tub burilish davrida ko‘pgina davlatlarda konstitutsiyaviy islohotlar amalga oshirilganini ko‘ramiz. Shu sababli, avvalo, senator va deputatlarimiz, keng jamoatchiligimiz, xalqimiz bilan yana bir bor maslahat qilib, jahon konstitutsiyaviy tajribasini o‘rganib, puxta o‘ylagan holda bugungi va kelgusi taraqqiyotimizni belgilab beradigan Asosiy qonunimizni takomillashtirish masalasini ham ko‘rib chiqishimiz kerak” [5].

Harbiylarni Vatan uchun qalqon, haqiqiy mardi maydon bo‘lishga, lozim bo‘lganda hatto o‘z jonini qurbon qilishga undaydigan kuch – bu avvalo ma’naviy-ma’rifiy tarbiyadir. Ular ongida bunday tarbiya asosida o‘ziga xos milliy ruh shakllanadi. Shu boisdan, Qurolli Kuchlarimizda, umuman, butun ijtimoiy hayotimizda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni olib borishda avvalo «ota-ona», «oila», «qadrdon qishloq», «qadrdon mahalla», «ona shahar», «ona Vatan» degan tushunchalarning mag‘zini ochib berishga alohida e’tibor berish kerak.

Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari g‘oyasini harbiy xizmatchilar ongiga tobora chuqur singdirish maqsadida ular orasida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yanada jadallashtirish talab etiladi. Bu borada oxirgi yillarda muhim tadbirlar amalga oshirilayotgan bo‘lib, harbiylar va jamoat tashkilotlari vakillaridan iborat targ‘ibot guruhlari tomonidan mahallalar va ta’lim muassasalarida 9 mingdan ziyod profilaktik, harbiy-vatanparvarlik va sport tadbirlari o‘tkazildi [3, 129-130].

Harbiylar ongiga milliy o‘zlikni anglash g‘oyasini singdirishda quyidagi omillarni alohida inobatga olish maqsadga mu-

vofiq:

harbiy xizmatchilarni jismoniy va jangovor tayyorgarligi bilan bir qatorda ularni ma’naviy-ma’rifiy tarbiya orqali qalbi, ruhi va irodasini mustahkamlash zaruriyati;

bugungi dunyoda ro‘y berayotgan xalqaro terrorizm, ekstremizm va radikalizm xavfi ortib borayotgani, turli hududlarda qonli mojarolar, qurolli to‘qnashuvlar ro‘y berayotgan bir sharoitda tinchlik va osoyishtalikni ta’minlashda mas’ul bo‘lishlari uchun harbiy xizmatchilar ongiga avvalo milliy ruhni kuchaytirish orqali tarbiyalash;

harbiy xizmatchilar ongiga Vatanga va harbiy burchga sadoqat tuyg‘usini yanada chuqur singdirish maqsadida sohaga oid huquqiy mezonlarni qayta ko‘rib chiqish va lozim darajada o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish lozimligi;

milliy armiyamizda vatanparvarlik tarbiyasi, milliy ruhi yuksaltirish dolzarb ahamiyat kasb etgan bugungi sharoitda harbiy xizmatchilarning qalbi va ongida milliy g‘urur, ona vatanga sadoqat, vatanparvarlik va millatparvarlik tuyg‘usini kuchaytirish, barcha yoshlarni shu asosda tarbiyalash borasida ishlarni tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish;

harbiy xizmatchilar kundalik hayotida milliy qadriyatlarni singdirishning yangi mexanizmlarini yaratish, metod va vositalari ishlab chiqish, xususan har bir o‘zbek askari va ofitseri qalbida Alpomish, Shiroq, Farhod, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Bobur Mirzo singari milliy qahramonlar ruhi tug‘yon urishi uchun ular hayoti va faoliyatini chuqur o‘rganish ehtiyoji;

yoshlarni turli zararli diniy oqimlardan, «ommaviy madaniyat» niqobi ostida kirib kelayotgan buzg‘unchi va yot g‘oyalar ta’siridan himoya qilish, to‘g‘ri yo‘ldan adashgan fuqarolarni sog‘lom turmush tarziga qaytarish maqsadida olib borilayotgan ishlarni tubdan takomillashtirish lozim bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “...shaxsiy tarkib ma’naviy jihatdan zaif bo‘lsa, ya’ni, askar va ofitserlarimizda jangovar ruh, Vatanga mehr va sadoqat, uning taqdiri uchun mas’uliyat bo‘lmasa yoki ularning o‘rtasida beparvolik hukm sursa, bunday holat nihoyatda noxush oqibatlarga olib kelishi mumkin” [6, 162].

O‘zbekiston Qurolli Kuchlari tizimidagi harbiylarning Vatanga sadoqati, doimiy shayligi, harbiy vatanparvarlik g‘oyalariga sodiq bo‘lishlarida ma’naviy-ma’rifiy xususiyatlar inobatga olingan holda avvalo me’yoriy-huquqiy asoslar yaratildi. Xususan, 2018 yil 4 avgustda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari harbiy xizmatchilarining ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarori va unga qo‘shimcha ravishda “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish” konsepsiyasi qabul qilindi [4]. Mazkur hujjat asosida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida harbiy xizmatchilarning hayotiy va professional ko‘nikmalarini ilm-ma’rifat asosida qalbi va ongiga singdirish,harbiy xizmatchilarning bilimi va ma’naviy saviyasini oshirish, axloqiy-ruhiy xislatlari va huquqiy bilimlarini mustahkamlash bo‘yicha samarali mexanizmlarni yaratishga qaratilgan vazifalar belgilab berilgan.

O‘zbekistonda oilani, shu jumladan harbiylar oilasini mustahkamlash, borasida davlat siyosati darajasida muhim tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, “O‘zbekiston Respublikasining mudofaa doktrinasi to‘g‘risida”gi qonun bilan harbiy xizmatchilar va ular oila a’zolarining turmush darajasini yuksaltirish, qonun hujjatlarida belgilangan ijtimoiy kafolatlari, harbiy xizmatchilar va ular oila a’zolarining ijtimoiy himoyasi harbiy xizmatni o‘tash tartibini, ichki ta’minotini, uy-joy, tibbiy va pensiya ta’minotini takomillashtirishga qaratilgan qonunlar hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar va jamiyatda harbiy xizmatning nufuzi, obro‘si oshirilishini ta’minlaydigan davlat dasturlarini ro‘yobga chiqarishning boshqa ishlab chiqilgan samarali mexanizmlari asosida amalga oshirish mexanizmlari belgilandi [3].

Harbiy xizmatchilarning ma’naviy-axloqiy saviyasini oshirishning muhim vositalaridan biri ularning ommaviy tadbirlarda ishtirok etishiga doir faoliyati

hisoblanadi. Mazkur tajriba hattoki urush davrlarida ham faol yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, mazkur holat jangovor shaylikni maromga solishga va harbiylar ma’aviy-ruhiy holatining me’yorda bo‘lishiga yordam bergan. Bu borada harbiy xizmatchilar va yoshlar ongida milliy madaniyatimiz va qadriyatlarimizga hurmat va ehtirom hislarini oshirish, yuksak estetik did va axloqiy me’yorlarini shakllantirish, O‘zbekiston xalqining boy tarixi, madaniyati, an’analari va urf-odatlariga hurmat, milliy va jahon madaniyatining eng yaxshi namunalarini ommaviy tadbirlar orqali (muzey, teatr, kino, istirohat bog‘lari, konsert va boshqa tadbirlarga tashriflar) singdiriladigan tadbirlar samara keltiradi. O‘zbekistonda bu boradagi madaniy ishlar tadbirlarida asosiy e’tibor professional va badiiy havaskorlik jamoalarining konsert dasturlari, buyuk ajdodlarimiz va allomalar faoliyatiga oid sahna ko‘rinishlari, davlat bayramlari va tarixiy sanalarga bag‘ishlangan ommaviy madaniy tadbirlari orqali harbiy jamoalarni jipslashtirishga, yoshlar va harbiy xizmatchilarning O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida xizmat qilishidan g‘ururlanish tuyg‘usini yuksaltirishga, Vatanimiz xavfsizligini ta’minlash borasidagi zaruriy faoliyat sifatida ongli va ijobiy munosabatni rivojlantirishga qaratilgan.

Xulosa o‘rnida harbiylar ongiga “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g‘oyasini singdirish sharafli vazifa ekanligini, mazkur muhim masalaga barcha birday mas’ulligini ta’kidlab o‘tgan holda, bu boradagi islohotlarni takomillashtirish orqali mamlakat xavfsizligini yanada mustahkamlash lozim bo‘ladi. Zero, Qurolli Kuchlarimiz saflarida xizmat qilayotgan barcha harbiy xizmatchilar – mard va jasur Vatan himoyachilari ekanligini chuqur his etgan holda, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy islohotlarida ishtirok etish bilan birga ma’naviy-ma’rifiy ishlarda ham namuna ko‘rsitishlari darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Янги Ўзбекистон демократик ўзгаришлар, кенг имкониятлар ва амалий ишлар мамлакатига айланмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Янги Ўзбекистон” газетаси бош муҳаррири Салим Дониёровнинг саволларига жавоблари. Янги Ўзбекистон 2021 йил 17 август

2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. – Т.: «Ўзбекистон» НМИУ, 2020. – 456 б.

3. Ўзбекистон Республикаси қонуни. Ўзбекистон Республикаси Мудофаа доктринаси тўғрисида. Халқ сўзи. 2018 йил 10 январь.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори. Ўзбекистон Республикаси Қуролли кучлари ҳарбий хизматчиларининг маънавий-маърифий савиясини ошириш тизимини тубдан такомиллаштириш тўғрисида. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 08.08.2018., 07/18/3898/1622-сон.

5. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси асосида демократик ислоҳотлар йўлини қатъий давом эттирамиз. https://president.uz/uz/lists/view/4743

6. Мирзиёев Ш.М. Қуролли кучларимиз – мамлакатимиз барқарорлиги ва тараққиётининг мустаҳкам кафолатидир. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Хавфсизлик кенгашининг кенгайтирилган таркибдаги йиғилишида сўзланган нутқ. 2018 йил 10 январь. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. Тошкент – “Ўзбекистон” – 2018. – 508 б.

Mamayusupov S.D. Konstitutsiyaviy islohotlar sharoitida harbiylar ongiga milliy qadriyatlarni singdirish masalalari

Mazkur maqolada O‘zbekistonda konstitutsiyaviy islohotlar sharoitida harbiy xizmatchilar ongiga milliy qadriyatlarni singdirishning o‘ziga xos xususiyatlari, shuningdek, ularni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning usul va vositalari to‘g‘risida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: mustaqillik, milliy tiklanish, huquqiy madaniyat, vatanparvarlik, milliy qadriyat, mudofaa doktrinasi.

Мамаюсупов С.Д. Вопросы привития национальных ценностей в сознание военнослужащих в контексте конституционных реформ

В данной статье представлена информация об особенностях привития национальных ценностей в сознание военнослужащих в условиях конституционных реформ в Узбекистане, а также о методах и средствах воспитания их в духе воинского патриотизма.

Ключевые слова: независимость, национальное возрождение, правовая культура, патриотизм, национальная ценность, оборонная доктрина.

Mamayusupov S.D. Issues of instilling national values into the minds of the military in the context of constitutional reforms

This article provides information on the specific features of instilling national values into the minds of military personnel in the context of constitutional reforms in Uzbekistan, as well as the methods and means of educating them in the spirit of military patriotism.

Key words: independence, national revival, legal culture, patriotism, national value, defense doctrine.

Rustambayev Mirzayusup Xakimovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘i,
yuridik fanlar doktori, professor,
O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist

MUSTAQIL ODIL SUDLOVGA MUROJAAT QILISH – INSON MANFAATLARINI TA’MINLOVCHI ASOSIY KONSTITUTSIYAVIY KAFOLAT

Bugungi kunda mamlakatimizda sudyalarning chinakam mustaqilligini ta’minlash, samarali va sifatli sud tizimini yo‘lga qo‘yish, fuqarolarning odil sudlovga bo‘lgan ishonchini oshirish bo‘yicha izchil ishlar olib borilmoqda.

Aynan sud tizimi samaradorligi darajasi mamlakatdagi qonun ustuvorligi, erkin investitsiyaviy muhit va albatta, xalqaro maydondagi nufuzning eng muhim ko‘rsatkichidir.

Zero Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mustaqilligimizning o‘ttiz bir yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida [1] ta’kidlaganidek: ***“Sud tizimi mustaqil bo‘lmas ekan, jamiyatimizda rivojlanish bo‘lmaydi. Sud idorasiga ishi tushgan har bir shaxs ushbu dargohda qonun va adolat ustuvor ekaniga ishonch hosil qilishi lozim. Yangi O‘zbekistonda har qanday bahsli masalaga adolatli yechim faqat odil sud tomonidan topilishi kerak. Sudyalar ishiga har qanday aralashuv keskin jazolanadi, ularning xavotirsiz ishlashi uchun barcha zarur sharoitlar yaratiladi. Qanchalik qiyin bo‘lmasin, sud tizimidagi islohotlarimizni albatta davom ettiramiz”***.

BMT Bosh Assambleyasining 1985 yil 29 noyabrdagi rezolyutsiyasi bilan tasdiqlangan “Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari”da sud mustaqilligi davlat tomonidan kafolatlanishi hamda mamlakat Konstitutsiyasi va qonunlarida mustahkamlanishi zarurligi qayd etilgan. O‘zbekistonda sudyalar mustaqilligi, ular faqat qonunga bo‘ysunishi **konstitutsiyaviy darajada mustahkamlangani bu xalqaro-huquqiy standartning** mamlakatimiz qonunchilik tizimida to‘la aks etganini anglatadi.

Jumladan, **sud mustaqilligi** sudlarning qonunchilik va ijro hokimiyatidan siyosiy, huquqiy, moddiy va tashkiliy jihatdan mustaqil faoliyat yuritish, sudyalar hamjamiyati tomonidan shakllantiriladigan mustaqil sudyalar korpusiga ega bo‘lish, o‘zini o‘zi boshqarish va nazorat qilish, davlat nomidan odil sudlovni faqat qonunga bo‘ysungan holda amalga oshirish, umummajburiy xarakterga ega sud qarorlarini qabul qilish va ularning boshqa idoralar tomonidan qayta ko‘rib chiqilmasligi bo‘yicha kafolatlarga ega bo‘lish, sud faoliyatiga har qanday ko‘rinishdagi tashqi va ichki aralashishdan himoya o‘rnatilgani bilan kafolatlanadi.

Sud idorasiga ishi tushgan har bir inson ushbu dargohda qonun va adolat ustuvor ekaniga ishonib keladi. Lekin bugungi kunda mamlakatimizda sudlar mustaqilligi fuqarolar va investorlar huquqlarining sudda ishonchli himoyalanishi uchun yetarli darajada emas. Sudning tergov va prokuratura organlari hamda boshqa ta’sirlardan xoli emasligi, sudda tortishuv va taraflar tengligi tamoyilini real ta’minlanishga to‘sqinlik qiluvchi qator salbiy omillar saqlanib qolayotgani, sudlar faoliyatida esa hali ham qator byurokratik to‘siqlar mavjudligi kuzatilmoqda. Shu nuqtai nazardan sud faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik zamon talablari va xalqaro standartlarga yanada muvofiqlashtirilishi zarur.

Xususan, konstitutsiyaviy darajada mustahkamlangan sudlar mustaqilligini real ta’minlashda zamonaviy yondashuvlar juda muhim bo‘lib, bu borada quyidagi vazifalarning hal etilishi zarur hisoblanadi.

Sud hokimiyati mustaqilligiga salbiy ta’sir etuvchi jiddiy omillardan biri, bu – hududlarda **sud organlari o‘z faoliyati yuzasidan xalq deputatlari mahalliy kengashlariga axborot berish amaliyoti**. Bu amaliyotga chek qo‘yish zarur. Chunki ***Konstitutsiyaning 106-moddasiga binoan,***

O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi. Shu bois, sudlarning o‘z faoliyati yuzasidan xalq deputatlari kengashlariga axborot berish amaliyoti mazkur konstitutsiyaviy qoidaga ziddir.

Odil sudlovning sifatiga bevosita ta’sir qiluvchi yana bir jiddiy omillardan biri – **bu sudyalar korpusi taqchilligi muammosi**. Buning ikki jihati mavjud: birinchisi, sudyalik lavozimlarining to‘liq butlanmagani bo‘lsa, ikkinchisi, sudya shtatlarining taqchilligi bo‘lib, bu holat to‘g‘ridan-to‘g‘ri sudyalarning katta hajmdagi ish yuklamasiga olib kelmoqda. Sir emaski, fuqarolarning sud tizimi faoliyatiga oid asosiy e’tirozi aynan odil sudlovning sifat darajasi va samarasi yetarli emasligi bilan bog‘liqdir. Bu vaziyat esa o‘z o‘rnida, sudyalarning yuklamasi bir muncha katta ekani oqibatida yuzaga kelgan.

Bugungi kunda davlatimizda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar turlari va ko‘lami keskin oshgani bois turli fuqarolik, iqtisodiy va ma’muriy sud nizolari, yangi turdagi jinoyatlar soni oshishi, umuman olganda, fuqarolarimizning huquqiy madaniyati ortishi natijasida sudlarga murojaatlar ko‘payishi sharoitida sudyalik korpusining yetishmasligi masalasi nihoyatda dolzarb bo‘lib, o‘zining tezkor yechimini kutmoqda.

Sudyalik kasbiga talabalik davridan boshlab ixtisoslashtirib tayyorlash tizimini joriy etish zarur. Bugungi kunda sudya kadrlarni tayyorlash tizimida oliy ta’lim doirasida sudyalikka ixtisoslashtirish bosqichi ko‘zda tutilmagan. Bu kasbga huquqshunoslarni talabalik davridan boshlab qiziqtirish, maxsus ravishda tayyorlash maqsadga muvofiq. Buning uchun Toshkent davlat yuridik universitetida alohida sudyalik ixtisosligi yo‘nalishini joriy etish va mazkur **ikki bosqichli bakalavriat va magistratura o‘quv dasturlari maxsus sudyalik kasbiga tayyorlashga yo‘naltirilgan** bo‘lishi kerak. Shu bilan birga, hozirda sudyalikka tayinlashda 35 yosh senzi belgilangani sababli oliy ta’lim va Sudyalar oliy maktabida sudya kadrlarni maxsus tayyorlash tizimining o‘zaro uzluksizligini ta’minlash imkoniyati bo‘lmaganini inobatga olib, sudyalik lavozimlariga tayinlashda **TDYuning maxsus sudyalik yo‘nalishi diplomiga ega bo‘lgan va keyinchalik sud tizimida faoliyat yuritgan kadrlarga imtiyoz berish** maqsadga muvofiq.

Sudyaga o‘z kasbiy faoliyatini amalga oshirishda har qanday ta’sir o‘tkazish uchun javobgarlik masalasini qat’iylashtirish lozim. “Sudlar to‘g‘risida”gi qonunining 70-moddasiga ko‘ra, sudda o‘z vazifasini bajarayotgan davrda xalq maslahatchilariga sudyalar daxlsizligining barcha kafolatlari tatbiq etiladi. Jinoyat-protsessual kodeksining 13-moddasiga muvofiq odil sudlovni amalga oshirishda xalq maslahatchilari sudyaning barcha huquqlaridan foydalanadi. Biroq, Jinoyat kodeksining 239-moddasi faqatgina sudyaga turli shaklda qonunga xilof ravishda ta’sir o‘tkazish uchun javobgarlikni nazarda tutadi. Shu bilan birga, mazkur moddada qonunga xilof ravishda ta’sir o‘tkazish vositalaridan kelib chiqib, differensial javobgarlik belgilanmagan. Masalan, oldindan til biriktirib yoki bir guruh shaxslar tomonidan, hayot yoki sog‘liq uchun xavfli bo‘lmagan zo‘rlik ishlatib yoki zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitib, mol-mulkini nobud qilib yoki nobud qilish bilan qo‘rqitib sodir etilgan harakatlar og‘irlashtiruvchi holatlar sifatida belgilanmagan. Shu nuqtai nazardan **bu harakatlar uchun jinoiy javobgarlikni belgilash maqsadga muvofiq.**

Sudyaning yuksak maqomi sudga nisbatan har qanday hurmatsizlikka jiddiy munosabat bildirishni taqozo etadi. Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 180-moddasi faqatgina guvoh, jabrlanuvchi, da’vogar, javobgar, ishda qatnashuvchi boshqa shaxslarning sudga kelishdan qasddan bo‘yin tovlashi, raislik qiluvchi farmoyishiga bo‘ysunmasligi, sud majlisi paytida tartibni buzish uchun javobgarlikni ko‘zda tutadi. Biroq, mazkur moddada sud muhokamasi ishtirokchilari, sudya va xalq maslahatchisini haqorat qilganlik uchun javobgarlik belgilanmagan va norma sanksiyasida belgilangan jazo chorasi huquqbuzarlik xarakteri va og‘irlik darajasiga

nomuvofiqdir.

“Sudlar to‘g‘risida”gi qonunning 65-moddasiga ko‘ra, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan talab va farmoyishlarini so‘zsiz bajarishi shart. Sudyalarning talablari va farmoyishlarini bajarmaslik qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo‘ladi. Shu sababli ham, **sudga hurmatsizlik uchun ma’muriy javobgarlik** choralarini kuchaytirish zarur.

Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlarda prokuror vakolatlarini ta’minlash vazifasi qayta ko‘rib chiqilishi zarur. Prokuratura faoliyatining yo‘nalishlaridan biri – sudlarda prokuror vakolatlarini ta’minlash vazifasi bo‘lib, mazkur funksiya doirasida jinoyat ishlari bo‘yicha sudlarda davlat ayblovi qo‘llab quvvatlanadi. Lekin shu bilan birga, mazkur vazifani ta’minlashda hali ham **prokuror sudda qonuniylikni o‘rnatishi zarur, degan eskicha yondashuvning asoratlari** saqlanib, unga ko‘ra sud muhokamasi prokuror nazoratini ta’minlash maydonidek qaraladi va har bir chiqarilgan **oqlov hukmi xuddiki prokuror tomonidan qonuniylikni sudda samarasiz ta’minlanishi natijasi,** deb baholanadi. Bundan tashqari, prokuratura organlari tomonidan har bir chiqarilgan ayblov hukmi unda qonuniylikka rioya etilgani, mahkum (sudlanuvchi)ning huquqlari buzilgani holatlarini aniqlash maqsadida o‘rganib chiqilishi, muayyan asoslar mavjud bo‘lganda esa protest keltirish amaliyoti joriy etilgan. Bu noto‘g‘ri yondashuv. Zero sud va uning faoliyati mustaqildir, prokuror esa sud muhokamasida ishtirok etayotgan taraflardan biri xolos. Davlat ayblovchisi bo‘lgan prokuror sud muhokamasida ishtirok etib, agar sud qaroridan norozi bo‘lsa, himoya tarafi bilan teng protsessual imkoniyatlar doirasida o‘z e’tirozini bildirishi mantiqan to‘g‘ri hisoblanadi.

Bundan kelib chiqib, **prokuror protest kiritishi orqali sud qarorlari qonunga muvofiqlashtirilishi amaliyotiga chek qo‘yilishi va mazkur vazifa prokuratura organlari vakolati doirasidan chiqarilishi zarur.**

Yuqori turuvchi sudlarning quyi sudlar faoliyati ustidan nazorat qilish huquqini bekor qilish zarur. Fikrimizcha, bu institutdan butunlay voz kechish fursati yetdi. Sud amaliyotidan shu ko‘rinadiki, yuqori sudning quyi sudlar ustidan idoraviy ta’sir instrumentlari hamon saqlanib qolmoqda. Bunday amaliyotga chek qo‘yish kerak. Yuqori instansiya sudlari quyi sudlar bilan **faqatgina protsessual muloqotda bo‘lishi,** ya’ni faqatgina yuqori instansiya sifatida quyi instansiya sud qarorlarini apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida ko‘rib chiqish orqali o‘z munosabatini bildirishi va ularning qonuniy, asosli va adolatliligiga baho berishi zarur.

Shuningdek, yuqori instansiya sudlari tomonidan quyi sudlarga nisbatan har qanday idoraviy yoki intizomiy chora qo‘llashga oid vakolatlariga chek qo‘yish zarur, bunday amaliyot quyi sudlarning mustaqil faoliyat yuritishiga ta’sir etuvchi salbiy omillardan biridir.

Sud raislari tomonidan sudyalaring o‘z yurituvida bo‘lgan ishlari yuzasidan ko‘rsatmalar berish, ma’ruza qilish amaliyotiga chek qo‘yish lozim. Bunday **norasmiy tartib sudyaning mustaqilligiga bevosita ichki aralashuv, idoraviy bosim** hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, tuman va shahar sudi raisiga, sudlov hay’ati tarkibiga kirmaydigan tegishli sud raisiga yoki uning o‘rinbosariga sudya tomonidan muayyan sud ishini ma’ruza qilish amaliyotiga chek qo‘yish maqsadida muayyan cheklovlar o‘rnatish zarur.

Sudda taraflarning chinakam tengligini ta’minlash uchun ayblov va himoya taraflari protsessual imkoniyatlarini mutanosib ravishda belgilash. Xususan, davlat ayblovchisi tomonidan sud qarori ustidan kiritiladigan protest, aslida prokuror nazorati hujjati bo‘lib, protsessual ahamiyati va oqibati bilan advokat kiritgan shikoyatdan ustundir. Bunday holat nafaqat taraflar tengligi prinsipiga, balki sudning mustaqilligi prinsipiga ham ziddir.

Shuningdek, **2022 — 2026 yillarga**

mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining [2] **15-maqsadi** doirasidagi «Habeas korpus» institutini yanada rivojlantirish orqali tergov ustidan sud nazoratini kuchaytirish vazifasini ta’minlash ham juda muhimdir.

Xususan, bunda **sud nazoratining ishni mazmunan ko‘rish majburiyatidan ozod qilinmagan sudya** tomonidan amalga oshirilishi, uning ishni sudga qadar yuritish bosqichida qabul qilgan qaroriga bog‘lanib qolishiga olib kelib, ishni xolisona ko‘rishiga to‘sqinlik qiladi. **Sud nazorati funksiyasi mustaqil protsessual subyekt – tergov sudyasi** tomonidan amalga oshirilishi ishni mazmunan ko‘rishda sudyaning xolisligini ta’minlaydi. Tergov sudyasi institutining joriy qilinishi shaxsning konstitutsiyaviy huquqlarini cheklovchi tergov harakatlari va tezkor-qidiruv tadbirlari o‘tkazilishida protsessual qonun normalariga to‘liq rioya qilinishi ustidan samarali sud nazoratini o‘rnatish, dalillar to‘plashda taraflar teng huquqliligini ta’minlash, ko‘rsatuvlarni deponentlash kabi ishni sudga qadar yuritish bosqichida muammoli bo‘lgan masalalarning samarali yechimi bo‘lib xizmat qiladi.

Yuqorida ilgari surilayotgan mazkur masalalarning hal etilishi mamlakatimizda sud hokimiyati chinakam mustaqilligini ta’minlashga, jamiyatimizda va xalqaro maydonda milliy sud tizimi nufuzining oshishiga, eng muhimi, fuqarolarimizning sudga bo‘lgan ishonchi mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Zero har bir jamiyatimiz a’zosi, har bir fuqaro sudga murojaat qilish – har qanday nizoning eng maqbul va samarali yo‘li, deb ishonishi kerak. Aynan kuchli va fuqarolar ishonchiga sazovor bo‘lgan mustaqil sud hokimiyatigina demokratik jamiyatning asosiy ustuni bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Миллий мустақиллик – Янги Ўзбекистоннинг мустаҳкам асосидир. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси давлат мустақиллигининг ўттиз бир йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. President.uz.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 28.01.2022 йилдаги ПФ-60-сон “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони. Lex.uz.

Хатамов Рустам Абдуганиевич,
начальник Академии МВД Республики Узбекистан, полковник

КОНСТИТУЦИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН – ПРАВОВАЯ ОСНОВА ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ ПО ЗАЩИТЕ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА, ОБЕСПЕЧЕНИЮ ОБЩЕСТВЕННОГО ПОРЯДКА И БЕЗОПАСНОСТИ

Конституция - юридический фундамент законности и правовой стабильности жизни гражданского общества в каждой стране. Конституция является «основной нормативно-правовой платформой», на которой реализуются принципиальные положения в сфере защиты прав и законных интересов человека.

Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев высказал мнение о необходимости совершенствования Основного закона в соответствии с современными требованиями поступательного развития страны. При этом глава государства отметил, что «во многих государствах в период кардинальных перемен проводились конституционные реформы»[1].

Так, на встрече с членами конституционной комиссии по формированию предложений о внесении изменений в Основной закон, Президент страны предложил принять поправки в Конституцию посредством референдума, отметив, что это соответствует принципу - «единственным источником и автором Конституции является народ» [2].

В Указе Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 - 2026 годы» от 28 января 2022 года обеспечение верховенства закона и конституционной законности определено как одна из основных целей [3].

Для достижения данной цели на правоохранительные органы возложена обязанность по защите прав и свобод человека при обеспечении общественной безопасности и правопорядка, усилении общественного контроля для неукоснительного обеспечения законности и внедрения цифровых технологий при применении мер, связанных с оказанием правового воздействия на граждан. Кроме этого, предусмотрено последовательное осуществление политики совершенствования уголовного, уголовно-процессуального и уголовно-исполнительного законодательства, совершенствование превентивных механизмов по предупреждению применения пыток и принятие специального закона в данном направлении, формирование системы ювенальной юстиции и кодификация законодательства по правам ребенка [4].

Правовым основанием Стратегии развития нашей страны является Конституция и принятые на её основе законы Республики Узбекистан. В Конституции закреплены основные принципы и направления взаимоотношений государства и личности, определены компетенция и формы деятельности высших органов государственной власти, созданы необходимые правовые гарантии по реализации прав и свобод личности. Во втором разделе Основного закона страны указаны политические, экономические, социальные и личные права и свободы граждан, которые находятся под защитой правоохранительных органов, и в силу возложенных на них полномочий по охране общественного порядка и обеспечению общественной безопасности одно из ведущих мест занимают органы внутренних дел (ОВД).

В настоящее время мы являемся свидетелями активного участия народа в обсуждении конституционной реформы и будущих поправок к Конституции. Реформы должны предусматривать дальнейшее совершенствование общественного, парламентского, прокурорского надзора, судебного и ведомственного

контроля в правоприменительной деятельности правоохранительных структур страны по обеспечению законности в сфере защиты прав и свобод человека. Реализация этих мер напрямую связана с тем, насколько ОВД способны справиться с поставленными задачами и выполнением возложенных на них задач по охране общественного порядка и безопасности.

В условиях осуществления целей Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 - 2026 годы продолжается совершенствование деятельности ОВД, как органа государственного управления, на основе принципа «ориентации на служение гражданам», основанного на выполнении важной задачи, связанной с поддержанием и обеспечением конституционного правопорядка во взаимодействии со всеми правоохранительными структурами.

Во второй статье Закона Республики Узбекистан «Об органах внутренних дел» основными задачами ОВД определены «защита прав, свобод и законных интересов граждан, собственности физических и юридических лиц, конституционного строя, обеспечение верховенства закона, безопасности личности, общества и государства, а также предупреждение и профилактика правонарушений». Исходя из этого, важнейшим направлением правоохранительной деятельности государства является осуществление действий, направленных на соблюдение законности и права в сфере общественных отношений [5].

Конституционный порядок в стране – один из важнейших элементов правоохранительной деятельности ОВД по осуществлению общественной безопасности. Качественное выполнение органами внутренних дел функциональных обязанностей призвано укреплять конституционный правопорядок [6]. Следовательно, законы, регламентирующие деятельность ОВД, Национальной гвардии, Службы государственной безопасности и иных правоохранительных органов, обеспечивающих общественный порядок, способствуют повышению эффективности конституционно-правового механизма защиты прав и свобод граждан Узбекистана. Вышеперечисленные органы, взаимодействуя в осуществлении охраны общественной безопасности, образуют единую систему, консолидирующую конституционно-правовой механизм обеспечения правопорядка.

Институциональный подход к выполнению задач и осуществлению функций структурными подразделениями правоохранительных органов, широкое внедрение в деятельность инновационных информационно-коммуникационных технологий, укрепление материально-технической базы, повышение профессиональной подготовки сотрудников являются необходимыми практическими мерами, способствующими полноценному выполнению служебных задач по защите прав и свобод граждан. Отчеты руководящих кадров перед населением, организационные мероприятия, направленные на обеспечение открытости и прозрачности системы в правоприменительной сфере на сегодняшний день служат повышению ответственности сотрудников ОВД.

Как ранее было указано на правоохранительные структуры Конституцией и законами страны возлагаются задачи, связанные с защитой прав и свобод граждан, для этого внедряются принципиально новые механизмы и вводится новый порядок организации работы по обеспечению общественной безопасности на основе принципа «Служить интересам народа».

Охрана общественного порядка, обеспечение общественной безопасности, борьба с преступностью, противостояние пандемии, стихийные и техногенные бедствия возлагают на ОВД и другие правоохранительные структуры задачи по дальнейшему совершенствованию правоприменительной деятельности по защите прав и законных интересов человека. Их деятельность строится на беспрекословном соблюдении Конституции Республики Узбекистан, других законов и подза-

конных нормативных актов, основанных на принципе «Все наши стремления и действия - во имя чести и достоинства человека» [7].

С 2017 года в структуре ОВД создавалась целостная правовая система по защите прав, свобод и законных интересов граждан, охране общественного порядка, обеспечению безопасности личности, общества и государства, предупреждению и профилактике правонарушений.

За истекший период была проведена значительная работа по совершенствованию системы ОВД, развитию и укреплению низших звеньев, в первую очередь призванных обеспечивать охрану общественного порядка, безопасность граждан, осуществлять профилактику правонарушений и вести борьбу с преступностью непосредственно в махаллях [8].

Для повышения эффективности работы, направленной на соблюдение законности и противодействие преступности, особое внимание уделяется криминологической характеристике совершаемых правонарушений в отношении уязвимых слоев населения: детей, несовершеннолетних, женщин, пожилых граждан, инвалидов и др.

С целью защиты прав и свобод прав человека осуществляется ранняя, индивидуальная, виктимологическая профилактика правонарушений. Особое внимание уделяется вопросам широкого внедрения в деятельность ОВД современных информационно-коммуникационных технологий при подаче заявлений, обращений, сообщений о совершенных правонарушениях. Так, для граждан предоставлена возможность обращения с заявлениями и жалобами: 24 часа в сутки функционирует Колл-центр, с коротким номером «1102», для сообщений о фактах, связанных с торговлей людьми, и других тяжких преступлениях, круглосуточно работает единый телефон доверия 99 301-01-01 и др.

О реформах и изменениях, происходящих в системе МВД, можно получить информацию на официальном веб-сайте Министерства внутренних дел, который регулярно размещает необходимую информацию по обеспечению прав и законных интересов граждан. В данной системе функционирует более 20 веб-сайтов, в социальных сетях - свыше 100 веб-страниц, чтобы до общественности своевременно доходила достоверная информация о деятельности органов внутренних дел.

Конституция Республики Узбекистан закрепила основные принципы взаимоотношений государства и личности, определила компетенцию и формы деятельности ОВД, создала необходимые правовые гарантии реализации прав и свобод человека. Содержание образования в области прав человека для сотрудников ОВД можно определить, как служебную необходимость, посредством которой они осознают значение охраны общепризнанных прав человека.

Одним из важных условий защиты прав человека является качественная подготовка в специализированных учебных заведениях системы МВД высококвалифицированных кадров ОВД, таким учебным заведением на сегодняшний день является Академия МВД Республики Узбекистан. Так, Постановлением Президента Республики Узбекистан № ПП-5076 «О мерах по внедрению качественно новой системы подготовки профессиональных кадров для органов внутренних дел» от 15 апреля 2021 года внедрена совершенно новая система подготовки специалистов для ОВД. В Академии МВД учебный процесс направлен на приобретение необходимых знаний в сфере прав человека, по следующим дисциплинам: «Общая теория прав человека» (57 часов), «Права человека и гражданское общество» (42 часа), «Права человека и международные стандарты» (42 часа).

Для курсантов и слушателей вышеназванные предметы в профессиональной подготовке являются обязательными. По окончании курса курсанты получают необходимые знания и приобретают про-

фессиональные навыки по применению основных положений общей теории прав человека, существующих международных и национальных стандартах в сфере прав человека, закрепленных как в межгосударственных нормативно-правовых актах, так и в статьях Конституции Республики Узбекистан.

Каждый сотрудник ОВД, выполняющий служебные задачи по обеспечению общественного порядка и общественной безопасности, должен чётко знать нормы Конституции страны, где указаны все основные права человека. Для этого необходимо постоянно совершенствовать механизм подготовки кадров ОВД.

Первое - необходимо оптимизировать организационную связь теоретического блока обучения с правоприменительной практикой с учётом специфики предметов «Общая теория прав человека», «Права человека и гражданское общество», «Права человека и международные стандарты». Следовательно, нужно предусмотреть больше практических занятий, которые в интерактивной форме позволят проигрывать и отрабатывать ситуации, затрагивающие права человека.

Второе - с привлечением международных экспертов в области прав человека на регулярной основе проводить с курсантами, слушателями Академии и работниками-практиками ОВД обучающие семинары-тренинги с целью формирования необходимых знаний, навыков и умений по противодействию нарушениям прав человека.

Третье - создать необходимые условия для участия профессорско- преподавательского состава, курсантов и слушателей в конкурсах на получение международных и государственных грантов, а также в международных конференциях внутри республики и за рубежом по актуальным проблемам защиты прав человека в правоохранительной деятельности. Это позволит профессорско-преподавательскому составу проявлять инициативу в проведении мастер-классов по правам человека, семинаров-тренингов для изучения передового международного педагогического опыта и освоения современных педагогических технологий обучения с использованием интерактивных средств обучения.

Четвёртое - создать эффективный механизм повышения квалификации профессорско-преподавательского состава Академии МВД Республики Узбекистан в специализированных высших учебных заведениях за рубежом, а также внедрить практику стажировок в ведущих специализированных международных организациях, специализирующихся в данной сфере.

Реализация положений Конституции Республики Узбекистан, принятие соответствующих мер по ее неукоснительному соблюдению органами внутренних дел имеет большое значение для будущей профессиональной деятельности выпускников Академии МВД Республики Узбекистан.

Делая выводы по вышеизложенному, хотелось бы привести слова Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева: «Если мы осуществим конституционную реформу на основе мнений и поддержки наших граждан, посредством референдума, то, убежден, она станет подлинным выражением воли нашего народа - Конституция Республики Узбекистан будет поистине народной» [9]. Следовательно, активность граждан, стремящихся внести свои предложения и поправки в проект реформируемой Конституции, является лучшим показателем того, что слова главы государства нашли позитивный отклик у народа.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://eadaily.com/ru/news/2022/07/12/reforma-konstitucii-uzbekistana-vazhnaa-faza-razvitiya-general-shamanov

2. https://www.gazeta.uz/ru/2022/06/20/referendum/#!

3. Указ Президента Республики Узбекстан “О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы” от 28 январь 2022 г., № УП-60 https://lex.uz/

4. https://lex.uz/ru/docs/5749295

5. *Шинкарев А.В.* Социальый контроль в системе обеспечения правопорядка органами внутренних наук. – М., 2006.-С.15-16.

6. См.: *Безруков А.В.* Конституционализация правопорядка: сущность, реализация, условия // Российская юстиция. – 2016. - №5. –С. 12-14.

7. https://lex.uz./ru/docs/

8. https://lex.uz./ru/docs/5749295ONDATE=01.12.2021%2000

9. http://www.uzbekistan.org.ua/ru

Хатамов Р.А. Конституция Республики Узбекистан – правовая основа деятельности органов внутренних дел по защите прав человека, обеспечению общественного порядка и безопасности

В статье затронуты проблемы, связанные с конституционно-правовыми аспектами правоохранительной деятельности органов внутренних дел по обеспечению общественного порядка и безопасности, базирующейся на верховенстве Конституции и законов Республики Узбекистан в деле защиты прав и свобод человека. На основании правового анализа норм Конституции и законов рассмотрено содержание, развитие и конкретизация положений по защите прав и законных интересов граждан в правоприменительной деятельности органов внутренних дел при выполнении функциональных обязанностей, возложенных на них.

Ключевые слова: Конституция, права человека, правоохранительная деятельность, реформа, правовые основания, международные стандарты, борьба с преступностью.

Xatamov R.A. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi inson huquqlarini himoya qilish borasida jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlashda Ichki ishlar organlarining huquqiy asosi sifatida

Maqolada inson huquq va erkinliklarini himoya qilishda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi asosida jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlashda Ichki ishlar organlarining huquqni muhofaza qilish faoliyatining konstitutsiyaviy-huquqiy jihatlari bilan bog‘liq muammolar ko‘rib chiqildi. Konstitutsiya va qonunlar normalarini huquqiy tahlil qilish asosida Ichki ishlar organlarining o‘z funksional vazifalarini bajarishda huquqni muhofaza qilish faoliyatida fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga doir normalarning mazmuni, ishlab chiqilishi va vazifalari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, inson huquqlari, huquqni muhofaza qilish faoliyat, reforma, huquqiy asoslar, xalqaro standartlar jinoyatchilikka qarshi kurash.

Khatamov R.A. The Constitution of the Republic of Uzbekistan as a legal basis for the protection of human rights in the activities of the internal affairs in ensuring public order and security

The article deals with the problems related to the constitutional and legal aspects of the law enforcement activities of the internal affairs bodies in ensring public order and security based on the supremacy of the Constitution and laws of the Republic of Uzbekistan in protecting human rights and freedoms. Based on the legal analysis of the norms of the Constitution and laws, the content, development and specification of the provisions on the protection of the rights and legitimate interests od citizens in the law enforcement activities of the internal affairs bodies in the performance of their fnctional duties are shown.

Key words: Constitution, human rights, law enforcement, reform, legal basis, international standards, crime control.

Mirakulov Miravzal Mirodilovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

KONSTITUTSIYANING MOHIYATI VA IJROSI

Asosiy qonunimizni qabul qilganimizning o‘ttiz yilligini nishonlash arafasida barchamizda ushbu hujjatning mohiyati va ahamiyati, o‘tgan davr mobaynidagi ijrosi sarhisobi yuzasidan savollar tug‘ilishi tabiiy hisoblanadi.

Ayniqsa fuqarolar tomonidan Konstitutsiyaviy islohot doirasida joriy yilning may-avgust oylari davomida kelib tushgan 210 mingdan ortiq takliflarning tahlili ham mazkur hujjatning mohiyatini aholiga, ayniqsa yoshlarga yanada keng va ta’sirchan tushuntirish ishlarini taqozo qilishini ko‘rsatmoqda.

Konstitutsiya qanday hujjat, zarurriyati nimada?

Konstitutsiyani dunyoda yaratilishida maqsad – insonni davlat, uning mansabdor shaxslarining noqonuniy xatti-harakatlaridan himoya qilish, chegaralash, inson huquqlarini amalga oshirish uchun kafolatlarni ta’minlash hisoblangan. Shuning uchun ham 1789 yilgi Inson va fuqaro huquqlari bo‘yicha fransuz deklaratsiyasi 16-moddasida, qaysiki jamiyatda inson huquqlari kafolatlari, xususan hokimiyatlar bo‘linishi ta’minlanmagan ekan, bunday jamiyat Konstitutsiyaga ega bo‘lmaydi [1] – deb mustahkamlangan edi.

Shuning uchun ham Konstitutsiyada nima himoya qilinishiga qarab, mazkur davlatning qanday davlat ekanligini bilib olish mumkin. Qayerdaki xuddi o‘rta asrlar Fransiyasidagidek – davlat bu menman – deyilsa, u yerda Konstitutsiya yo‘q, bo‘lishiyam mumkin emas.

Shuning uchun ham demokratik huquqiy davlatda hokimiyat organlarining shakllanishi, faoliyatini amalga oshirilishi – **inson oliy qadriyat** degan g‘oyaga bo‘ysundirilgan bo‘lishi kerak.

Nazariy, yuridik yondashuvlardan biroz uzoqlashgan holda soddaroq qilib tushuntirganda – xuddi farzand dunyoga kelsa uning tug‘ilganini huquqiy jihatdan tasdiqlash uchun tug‘ilganlik haqidagi guvohnoma olgani kabi ***mustaqil davlat yuzaga kelganda uning tug‘ilganlik faktini tasdiqlovchi hujjat – Konstitutsiya bo‘ladi.***

Zamonaviy demokratik, libertar yondashuvlarga ko‘ra Konstitutsiya bu ijtimoiy shartnoma, ya’ni xalq va davlatning huquq va majburiyatlari aks etgan shartnoma hisoblanadi. Unga asosan mamlakatni boshqarish bo‘yicha suveren huquq davlatga tegishli bo‘ladi.

1776 yilgi AQShning Mustaqillik deklaratsiyasida insonning yashash, erkinlik va baxtga intilish huquqini ta’minlash uchun odamlar tomonidan davlat tuziladi – deyiladi, mazkur davlat o‘zining qonuniy vakolatlarini insonlarning roziligidan oladi – deyiladi mazkur hujjatda [2]. Agar deyiladi – mazkur hujjatda, qaysi davlat ushbu maqsadlar uchun xizmat qilmasa yoki uning zidiga ishlasa, xalq bunday davlatni o‘zgartirish va yangisini tuzishi mumkin.

Konstitutsiyani qonunlarning onasi – deb ham aytishadi, ya’ni barcha qonunlar Konstitutsiyadan kelib chiqadi. Shuning uchun ham ba’zi turkiy davlatlarda Asosiy qonunni – Onayaso deb nomlashadi.

Konstitutsiya jamiyatda davlatning boshqaruv shaklini, davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud tarmoqlaridan qanday foydalanishni ko‘rsatadigan, fuqarolarning huquq va erkinliklari, burchlarini belgilab beradigan va tartibga soladigan Asosiy qonun hisoblanadi. Oddiy yo‘l harakati qoidalarida svetofor qanday vazifani bajarsa va u ishlamay qolgan hollarda qanday tartibsizlikni guvohi bo‘ladigan bo‘lsak, Konstitutsiya ishlamasa mamlakat miqyosida qanday tartibsizlik bo‘lishi mumkinligini hayolimizga keltirishimiz mumkin. Shuning uchun ham Konstitutsiya rioya qilinishiga kafil – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hisoblanadi, agar nizoli vaziyat yuzaga kelsa maxsus

sud – Konstitutsiyaviy sud masalani hal qilish uchun tuzilgan.

Albatta, dunyoda kodifikatsiyalangan Konstitutsiya (masalan, Buyuk Britaniya, Isroil) qabul qilmagan davlatlar ham mavjud. Biroq ularda bir tizimga keltirilgan Asosiy qonun bo‘lmasa ham, konstitutsiyaviy ahamiyat kasb etuvchi hujjatlar majmui borligini bilamiz.

Konstitutsiya boshqa hujjatlardan o‘zining oliy yuridik kuchga egaligi, barcha darajadagi organlar va mansabdor shaxslardan ustunligi, fuqaro, jamiyat va davlat oldiga maqsad qo‘yishi, qadriyatlarni mustahkamlashi, inson – jamiyat – davlat o‘rtasidagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni, hokimiyatni amalga oshirish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishi, tilining oddiyligi, tushunarliligi, alohida muhofaza qilinishi, jamiyat va davlat hayotidagi eng muhim masalalarni qamrab olishi, unga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilishining alohida, murakkab tartib-taomillari belgilanganligi bilan farq qiladi.

Konstitutsiyalarning asosan tuzilishi quyidagicha bo‘ladi: maqsadlar – asosiy prinsiplar – huquq va majburiyatlar – ijro mexanizmlari.

Konstitutsiyaning ijrosiga ta’sir qiluvchi omillar.

Asosiy qonunning ijrosi jamiyatdagi huquqiy ong, huquqiy madaniyatning darajasiga bog‘liq. Buning uchun bolalar bog‘chasidan boshlab uzluksiz ta’lim tizimi, xususan davlat xizmatiga tayyorlash, kirish, malaka oshirish, qayta tayyorlash tizimida, ayniqsa muhim davlat lavozimlariga qabul qilishda Konstitutsiya savodxonligiga alohida e’tibor qaratish zarur. Bejizga mamlakatning eng oliy mansabdor shaxsi lavozimga kirishishidan oldin Konstitutsiyaga rioya qilish bo‘yicha qasamyod qilmaydi. Hatto harbiylarning Vatanga qasamyodida ham Konstitutsiyaga qat’iy amal qilishga qasamyod qilinadi.

Konstitutsiyaning ijrosi samarali bo‘lishi uchun davlat va jamoatchilik, xususan sud nazoratini kuchaytirish taqozo etiladi. Ayniqsa Konstitutsiyaviy sud – inson huquqlarini himoya qilishning o‘ta muhim yuridik vositasi hisoblanadi. Bundan tashqari ombudsman institutining ham bu jarayonda o‘rni muhim hisoblanadi.

Ilm-fan. Asosiy qonun ijrosini ta’minlashda eng katta omil bu – ilm-fan, ayniqsa yuridik fan hisoblanadi. Afsuski, o‘tgan 30 yil davomida bevosita Konstitutsiyaga, uning ijrosini ta’minlashga bag‘ishlangan deyarli monografik tadqiqot olib borilmadi. Asosiy qonunimizda 1992 yilda mustahkamlangani holda hali hanuz **“Inson qadri”** tushunchasi na falsafiy, na yuridik fanda chuqur tadqiq etilmadi. Natijada vaziyat shu darajaga yetdiki, olimlar o‘rtasida konstitutsiyaviy tartibga solinishi kerak bo‘lgan ijtimoiy munosabatlar, Konstitutsiya predmeti bo‘yicha aniq yechim yo‘qligi ma’lum bo‘lib qoldi.

Bu esa o‘z navbatida amaliyotga o‘z salbiy ta’sirini o‘tkazmay qolmadi. Natijada aslida Asosiy qonunda bo‘lishi kerak bo‘lgan inson huquqlarining asosiy kafolatlari joriy qonunlarda o‘z aksini topdi. Hatto konstitutsiyaviy islohot doirasida ularni Asosiy qonunga o‘tkazish taklif qilinganda ham yuridik fanning ayrim tarmoqlari bo‘yicha mutaxassislar ushbu masalalarni jinoyat, jinoyat protsessual qonunchilikning predmeti (masalan, “Xabeas korpus” instituti – shaxs erkinligining kafolati, zamonaviy konstitutsiyaviy huquqning eng muhim prinsipi) ekanligini ta’kidladilar. Vaholanki, azal azaldan ma’lumki, inson huquqlarining, ayniqsa insonning shaxsiy huquqlari kafolatlari Asosiy qonunda bo‘ladi, ularni amalga oshirishning tartib-taomillari, protsessual, texnik tomonlari joriy qonunlarda tartibga solinadi.

Dunyo konstitutsiyashunoslik ilmida ushbu masalalar allaqachon chuqur o‘rganilgan. Masalan Ginzburg, Elkins, Meltonlar tomonidan dunyoning 190 ta davlat konstitutsiyalari o‘rganib chiqilib, “Qiyosiy konstitutsiyashunoslik” loyihasi doirasida 665 ta savol tayyorlangan tadqiqot savolnomasi ham yaratilgan. Ya’ni konstitutsiyalarda kuzatilgan 665 ta masala haqida so‘z borgan.

Mazkur olimlar shuningdek dunyo konstitutsiyalarini tadqiq etib, 117 xil inson huquqlari mavjudligini ham aniqlashgan.

Kembridj universiteti olimlari M.Stiven Fish, Met Kryoniglar tomonidan “Milliy qonunchilik organlari haqida ma’lumotnoma: global tadqiqot” [3] nomli asar chop etilgan bo‘lib, unda ular tomonidan dunyo parlamentlarining kuchli yoki kuchsiz ekanligini aniqlash uchun 32 bandlik mezonlar ishlab chiqilgan.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar. Konstitutsiyani ijrosini ta’minlash, ayniqsa ijtimoiy huquqlarni amalga oshirish mamlakatning iqtisodiy salohiyatiga ham bog‘liq masala hisoblanadi. Ayniqsa ijtimoiy davlat konsepsiyasini ilgari surayotgan davlatlar uchun bu juda muhim masala.

Fuqarolarning soliqlarni o‘z vaqtida va to‘liq to‘lashlari ham nafaqat burch, balki davlat o‘z vazifa va funksiyalarini to‘laqonli amalga oshirish uchun muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa mamlakatimizda ayrim manbalarning ma’lum qilishicha, iqtisodiyotning sektorlarida xufiyona iqtisodiyotning ulushi 48-62 foizgacha borishini [4] hisobga oladigan bo‘lsak, mamlakatning nafaqat ijtimoiy funksiyalari, balki boshqa funksiyalarini ham samarali amalga oshishiga katta to‘siq yaratadi hamda boshqa fuqarolarga yana qo‘shimcha soliq yuki bo‘lib tushadi.

Siyosiy-huquqiy ong va madaniyat. Biz mustaqil O‘zbekistonning birinchi Konstitutsiyasini yaratayotganda eng ilg‘or demokratik davlatlarning konstitutsiyalaridan andozalar olganmiz. Lekin iqtisodiyotimizni holati, odamlarning ong-u tafakkuri, ta’lim-tarbiya, ilm-fan, ommaviy axborot vositalari – biz andoza olgan demokratik davlatnikidek emasdi. Ya’ni barcha masala kompleks ko‘rilishi kerak. Albatta demokratik davlatlarda ham konstitutsiyaviy qonunbuzarliklar bo‘ladi, lekin buni de-fakto tiyib va muvozanatda ushlab turadigan infratuzilma ishlaydi.

Konstitutsiyaning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlashi. Bizning 30 yillik tariximizda asosan Konstitutsiya va qonunlarda norma-prinsiplarni (huquqbuzarliklarga oid va protsessual qonunchilikdan tashqari) aks ettirishga harakat qildik. Asosiy huquqiy mexanizmlarni esa qonunosti hujjatlarda aks ettirdik. Natijada sudlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar Konstitutsiyani o‘z faoliyatida bevosita qo‘llashi tizimli ravishda ro‘y bermadi.

Konstitutsiya to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlashi uchun buni Konstitutsiyada bevosita mustahkamlash bilan ish bitmaydi, balki to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlaydigan aniq talablarni (masalan, “Xabeas korpus”ni, mexanizmlarni, muddatlarni) belgilash kerak.

Konstitutsiyada jamiyat va davlat hayoti uchun eng muhim bo‘lgan aniq masalalar, aniq muddatlar belgilanishi – jamiyat va davlat hayotida huquqiy ong va madaniyatni karrasiga oshishiga sabab bo‘ladi. Chunki bolalar maktabdan Konstitutsiyani o‘rganib, katta bo‘lganida bevosita Asosiy qonundan foydalanadigan bo‘lib tarbiyalanadi. Masalan, 1992 yilda Konstitutsiyani qabul qilishda qamoqda saqlash 72 soatdan oshmasligini yozish taklif qilinganida, Konstitutsiyaviy komissiya a’zolarining aksariyati va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bunga rozi bo‘lishmagan, ularning fikricha bu jinoyat protsessual qonunchilikni predmeti hamda har doim ham bunga rioya qilib bo‘lmasligi, bu muddat o‘zgarishi kerak bo‘lsa Konstitutsiyani o‘zgartirishga sabab bo‘lishi kabilar ushbu cheklovni kiritilmasligiga sabab bo‘lgan.

Aynan mana shunday qarash, ya’ni Konstitutsiyaga aniq norma kiritib qo‘ysak – hamma bajarilishini talab qilib turib oladi yoki ertaga o‘zgartira olmaymiz – degan qarash har doim ham to‘g‘ri bo‘lavermaydi, aksincha, Asosiy qonunga bevosita murojaat qilishni susaytiradi.

“Mening Konstitutsiyam” degan yondashuv. Afsuski ayrim fuqarolar Asosiy qonun ishlamaydi – degan gaplarni eshitib qolamiz. Lekin mazkur Konstitutsiyaning egasi xalq, men shu xalqning bir bo‘lagiman, uni o‘zim himoya qilishim kerak – degan qarash shakllanmagan. Yuqorida biz Konstitutsiyani ijtimoiy shartnoma deb atadik. Shartnoma bajarilmasa tomonlar uni shartlarini o‘zgartirish yoki bekor qilish huquqiga ega bo‘ladilar. Agar tomonlar hech qanday xatti-harakat qilmasalar, shartnoma o‘z o‘zidan ishlab qolmaydi.

Konstitutsiyaning umumdavlat dara-

jasida ishlayotganligi ochiq-oydin ko‘rinib turibdi. Davlat hokimiyati organlari saylov natijasida shakllanmoqda, parlament qonunlar qabul qilmoqda. Sudlar nizolarni ko‘rib chiqmoqda, prokuratura organlari qonunlarni aniq va bir xilda ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirmoqda va h.k.

Aslida Konstitutsiya normalari ishlamasligining yuridik jihatdan imkoni yo‘q. Chunki fuqarolarning huquq va manfaatlarini ta’minlash davlat organlarining vazifalariga kiradi. Jinoyat kodeksining 208-moddasida “Hokimiyat harakatsizligi” – deb nomlangan modda bo‘lib, hokimiyat harakatsizligi, ya’ni davlat organi mansabdor shaxsining o‘z xizmat vazifasi yuzasidan bajarishi lozim yoki mumkin bo‘lgan harakatlarni qasddan bajarmasligi fuqarolarning huquqlariga yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko‘p miqdorda zarar yoxud jiddiy ziyon yetkazilishiga sabab bo‘lsa, xuddi shuningdek bunday harakatsizlik jinoyatga yo‘l qo‘ygan holda sodir etilgan bo‘lsa jinoiy javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Joriy qonunchilikning mukammalligi va Konstitutsiya maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgani. Konstitutsiyada ayrim norma prinsiplar belgilangan. Masalan, Inson – oliy qadriyat, huquqiy davlat, demokratik davlat, hokimiyatlar bo‘linishi, Konstitutsiya va qonun ustunligi. Bunday norma-prinsiplar joriy qonunchilikda o‘z rivojini topishi lozim. Barcha davlat organlarining faoliyati ushbu norma-prinsiplarga mos bo‘lishi kerak. Kerak bo‘lsa maxsus huquqiy ekspertiza joriy qilish kerak. Masalan, Germaniyada barcha hujjatlar, hatto budjet to‘g‘risidagi qonun ham Germaniyaning ijtimoiy davlat deb belgilanganligi yuzasidan ekspertizadan o‘tkazilar ekan.

Shuningdek, jinoyat-huquqiy, ma’muriy huquqiy normalarning konstitutsiyaviy huquqiy normalardan kelib chiqishi, o‘zaro bog‘liqligini ta’minlashimiz kerak. Afsuski har doim ham bunday bog‘liq ta’minlanavermaydi. Masalan, Belarus Respublikasida “Ijtimoiy davlat konsepsiyasini rivojlantirishning hozirgi sharoitida jinoyat huquqining muhofaza qilish vazifasini modernizatsiya qilish” mavzusida tadqiqotlar olib borilayotganligini kuzatishimiz mumkin. Lekin bizda jinoyat huquqi yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini tadqiq etish sohasidagilarni ijtimoiy davlatni o‘rganishini hali beri tasavvurimizga keltirishimiz qiyin.

Xulosa qilib aytganda, Asosiy qonunimizning o‘ttiz yilligini sarhisob qilar ekanmiz, uning to‘laqonli ishlashini yuqoridagi omillar bilan uyg‘unlikda baholasak va undan xulosalar chiqarsakkina, konstitutsiyaviy qonuniylik ta’minlangan davlatni barpo etishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Французская Республика: Конституция и законодательные акты. М., 1989. – С.13.

2. Соединенные Штаты Америки: Конституция и законодательство. Под ред. О.А.Жидкова. Перевод О.А.Жидкова. М.: Прогресс, Универс, 1993.

3. М. Стивен Фиш, Мэт Крёниг. Справочник национальных законодательных органов: глобальное исследование. Издательство Кембриджского университета, 2009 г.

4. https://anhor.uz/society/underground-economy

Choriyev Tavakkal Ravshanovich,
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati,
Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi a’zosi,
filologiya fanlari nomzodi, professor

JAMOAT TARTIBINI SAQLASHGA OID QONUNCHILIKNING TAKOMILLASHUVI

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini ta’minlash uchun muhim poydevor bo‘ldi. “Harakatlar strategiyasi”ga belgilangan ezgu va oliy maqsadlarni ro‘yobga chiqarish maqsadida xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. Ushbu yo‘nalishdagi ishlar “Taraqqiyot strategiyasi” asosida izchil davom ettirilmoqda.

Bugungi kunda jamiyatimizda “qonun – ustuvor, jinoyatga – jazo muqarrar” degan tamoyili muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tobora yangilanayotgan mamlakatimizda islohotlar ochiqlik va oshkoralik, keng va chuqur yangilanish davrining timsoli sifatida amalga oshirilmoqda. Ilgari davlat idoralari ostonasidan xatlab o‘tish yoki idora rahbari qabuliga kirish ishni bajarishdan ko‘ra mushkulroq bo‘lgan bo‘lsa, endi davlat idoralarining rahbarlari va mas’ul xodimlari xalqning qabuliga borishmoqda. Aksariyat muammolarni o‘sha joyning o‘zida o‘rganib, maqbul yechimlar qabul qilib, odamlarni rozi qilishmoqda.

Hozirgi murakkab davrda tinch osoyishta hayotimizni asrash va mustahkamlash, xalqimizning kafolatlangan xavfsizligini ta’minlash masalasi yanada dolzarblik kasb etmoqda. Barchamizga ma’lumki, jamiyatimizdagi sohalarda joriy etilgan islohotlar doirasida qonuniylikni va jamoat xavfsizligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada jamoat xavfsizligini ta’minlash yo‘nalishidagi ishlarni “Xalq manfaatlariga xizmat qilish” tamoyili asosida tashkil etishning yangi mexanizmlari va tartibi joriy etildi. Jamiyatda huquq-tartibotni ta’minlash tizimiga “Xavfsiz shahr”, “Obod va xavfsiz mahalla”, “Xavfsiz xonadon”, “Xavfsiz turizm” kabi yangi modellar joriy etilishi natijasida aholining davlat organlari va qonun ustuvorligiga ishonchi ortdi. Shuningdek, “Huquq-tartibotni ta’minlash” indeksi bo‘yicha xalqaro reytinglarda O‘zbekistonning ko‘rsatkichlari yaxshilandi.

Jamoat tartibini saqlashga, fuqarolar hayoti va sog‘ligini turli xavflardan himoya qilishga, jismoniy va yuridik shaxslar mulkining ishonchli qo‘riqlanishini tashkil etishga, huquqbuzarliklar profilaktikasiga qaratilgan jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimida O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi faoliyat yurituvchi subyekt sifatida belgilandi. O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasi asosida Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta’minlash yo‘nalishidagi asosiy vazifalari va jamoat tartibini saqlash bo‘yicha javobgarlik hududlari belgilandi. Bugungi kunda Milliy gvardiya tomonidan mustaqil ravishda Toshkent, Nukus shaharlari va viloyatlar markazlaridagi ommaviy tadbirlarda, istirohat bog‘lari, xiyobonlar va bozorlarda jamoat tartibini saqlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatini takomillashtirish va samaradorligini tubdan oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi, xususan, ichki ishlar organlarining tuzilmalari maqbullashtirildi hamda O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi faoliyati tubdan isloh qilindi. Qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi Qonun bilan Milliy gvardiyaning asosiy vazifalari belgilandi. Xususan:

jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish;

tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirish, surishtiruv o‘tkazish, jinoyat ishlarini qo‘zg‘atish va ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish;

davlat obyektlarini, o‘ta muhim, toifalangan obyektlarni hamda boshqa obyekt-

larni, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini qo‘riqlash;

huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish, shu jumladan mazkur huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish;

jamoat tartibini saqlash, shu jumladan ommaviy tadbirlar, mitinglar, yig‘ilishlar, namoyishlar o‘tkazilayotganda hamda fuqarolar gavjum bo‘ladigan joylarda jamoat tartibini saqlash vazifalari shular jumlasidandir.

Qonunga muvofiq Milliy gvardiya faoliyatining asosiy prinsiplari qonuniylik, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ularni hurmat qilish, yagonalik, mustaqillikdan iborat.

Qonunning tegishli moddalari Milliy gvardiya organlarining ijtimoiy himoyasiga qaratilib, unda Milliy gvardiyaning harbiy xizmatchisi (xodimi) davlat organi vakili sifatida ish yuritadi va davlat himoyasi ostida bo‘ladi deb, qayd etildi. Shunga ko‘ra, Milliy gvardiyaning harbiy xizmatchilarini (xodimlarini) sog‘lig‘ini saqlash, pul ta’minotini to‘lash, uy-joy maydoni bilan ta’minlash, mol-mulkiga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash, xizmat majburiyatlarini bajarish chog‘ida transport vositalaridan imtiyozli foydalanish, davlat pensiya ta’minoti, davlat sug‘urtasi orqali ijtimoiy himoya qilish ta’minlanadi.

“Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo‘riqlash faoliyati sohasidagi davlat siyosatini amalga oshiradi. Shuningdek, davlat obyektlarini, o‘ta muhim, toifalangan obyektlarni hamda boshqa obyektlarni, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini hamda xorijiy davlatlar hamda xalqaro tashkilotlarning diplomatik, konsullik va boshqa vakolatxonalarini qo‘riqlashni amalga oshiradi.

Hozirgi zamon voqeliklari sharoitida davlat xavfsizligini va jamoat tartibini ta’minlash katta e’tiborni talab qiladi, bundan tashqari atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish zarurati o‘ta dolzarb hamda keng qamrovli muammo bo‘lib qolmoqda.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimi ham samarali, shuningdek, istiqbolli bo‘lishi uchun har qanday tartibga solish tizimi singari hozirgi zamon sharoitlariga moslashtirilishi kerak. Bular jumlasiga atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish, bu sohadagi qonunchilikka rioya etilishini nazorat qiluvchi yangi tuzilmalarning paydo bo‘lishi kabilar kiradi.

Atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi huquqbuzarliklar, umuman olganda, atrof muhitga o‘rnini to‘ldirib bo‘lmaydigan hamda o‘lchanishi va baholanishi qiyin bo‘lgan darajada zarar yetkazadi hamda bartaraf etish qiyin bo‘lgan oqibatlarga olib keladi. Ushbu sohadagi huquqbuzarliklarning oldini olish zarurati o‘ta muhim bo‘lib, atrof muhitga texnogen xususiyatli bosimning tobora oshishi bilan bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga ichki ishlar organlarining va O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklarga hamda ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashish borasidagi vakolatlarini kengaytirishga qaratilgan o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritildi. Jumladan, Milliy gvardiya tomonidan jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash maqsadida Odil sudlovga hamda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog‘liq va jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar bo‘yicha 13 ta, ya’ni 63-moddasida, 72-moddasining birinchi va to‘rtinchi qismida, 79-moddasining birinchi va uchinchi qismlarida, 88-moddasida (bitum eritishda atmosfera havosini muhofaza qilish talablariga rioya qilmaslik bundan mustasno), 90-moddasining birinchi qismi, 91-moddasida (sanoat chiqindilarini, maishiy chiqindilarni va boshqa chiqindilarni to‘plash, tashish, chog‘ida tabiatni muhofaza qilish talablarini buzishga oid qismida), 911-moddasining birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlarida, 912, 161-moddalarida, 187-moddasining birinchi qismida, 188, 1882 va 192-moddalari bo‘yicha Milliy gvardiya mansabdor shaxslari tomonidan ma’muriy jazo qo‘llash vakolati berildi.

Shuningdek, Milliy gvardiya organlariga ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog‘liq 4 ta huquqbuzarliklar bo‘yicha ma’muriy bayonnoma tuzish va jazo

chorasini qo‘llash uchun tegishli vazirlik va idoralarga yuborish vakolati berilishi ko‘zda tutilmoqda (79-moddaning ikkinchi qismida, 90-moddasining ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi qismlarida, 901-moddasida, 911-moddasining to‘rtinchi qismida).

Bundan tashqari, MJtKning 248-moddasiga kiritilayotgan qo‘shimchalardan kelib chiqib, mazkur Kodeksning, 284-moddasi, 287-moddasi 1 va 9-bandlariga ham (Ma’muriy yo‘l bilan ushlab turishga vakolatli organlar (mansabdor shaxslar) tegishli o‘zgartishlar kiritildi, ya’ni ichki ishlar organiga tegishli huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsni ma’muriy yo‘l bilan ushlab turish vakolati berildi.

Xususan, ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi huquqbuzarliklarga qarshi kurash-ish bo‘yicha Ichki ishlar vazirligi va Milliy gvardiyaning vakolatlarini kengaytirish ko‘zda tutilayotganligi munosabati bilan “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi hamda “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi qonunlarga tegishli o‘zgartishlar kiritildi.

Xulosa qilib aytganda, milliy qonunchiligimizdagi jamoat tartibini saqlashga oid qabul qilingan qonunlar va amaldagi qonunchilikka kiritilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar mazkur sohani ilg‘or xorijiy tajribalar asosida isloh qilishga imkon yaratadi. Shuningdek, jamoat tartibini saqlashdagi Milliy gvardiya xamda boshqa huquq-tartibot organlari faoliyatini samarali tashkil etilishining muhim huquqiy omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – Б. 464.

2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон демократик ўзгаришлар, кенг имкониятлар ва амалий ишлар мамлакатига айланмоқда. – Тошкент: Ўқитувчи, 2021. – Б. 184.

3. Мирзиёев Ш.М. Инсонпарварлик, эзгулик ва бунёдкорлик – миллий ғоямизнинг пойдеворидир. – Тошкент: “Тасвир”, 2021. – Б. 36.

4. Бекмуродов М, Қуронбоев Қ, Тангриев Л. Ҳаракатлар стратегияси асосида жадал тараққиёт ва янгиланиш сари. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2017. – Б.108.

5. Инсон ҳуқуқлари. Академик А.Саидов таҳрири остида. – Тошкент, 2019. –Б.284.

6. “Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси тўғрисида”ги ЎРҚ–647-сонли Қонун, 2020 йил 18 ноябрь.

7. “Қўриқлаш фаолияти тўғрисида”ги ЎРҚ–778-сонли Қонун, 2022 йил 15 июнь.

Choriyev T.R. Jamoat tartibini saqlashga oid qonunchilikning takomillashuvi

Mamlakatimizdagi jamoat tartibini saqlashga oid milliy qonunchilikni takomillashuvi, huquq-tartibot organlarini jamoat tartibini saqlashdagi huquqiy asoslari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: qonun, konsepsiya, huquq, vakolat, vazifa, prinsip, milliy qonunchilik, qonun ustuvorligi, jamoat xavfsizligi, xalqaro tajriba, qo‘riqlash, muhofaza qilish.

Чориев Т.Р. Совершенствование законодательства об общественном порядке

Описано совершенствование национального законодательства об охране общественного порядка в нашей стране, правовые основы деятельности правоохранительных органов в охране общественного порядка.

Ключевые слова: закон, концепция, право, полномочия, обязанность, принцип, национальное законодательство, правопорядок, общественная безопасность, международный опыт, охрана, защита.

Choriev T.R. Improvement of public order legislation

The improvement of the national legislation on the protection of public order in our country, the legal basis for the activities of law enforcement agencies in the protection of public order are described.

Key words: law, concept, authority, obligation, principle, national legislation, law and order, public safety, international experience, security, protection.

Karimov To‘lqin Payziyevich,
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati,
Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi a’zosi,
siyosiy fanlar nomzodi

QONUNCHILIKDAGI ISLOHOTLAR – FUQAROLIK HUQUQINING KAFOLATI

Yangi O‘zbekistonning “Taraqqiyot strategiyasi”da belgilangan keng ko‘lamli vazifalar xalqparvar davlatni barpo etish, inson huquq va manfaatlarini, qadr-qimmatini yanada samarali ta’minlash maqsadlarini o‘zida ifodalaydi. Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan “Insonning qadri-qimmati, sha’ni va g‘ururi bundan buyon barcha sohalarida birinchi o‘rinda turishi kerak” degan tamoyil asosida uzoq vaqtdan buyon fuqarolik huquqiga oid to‘planib qolgan ko‘p masalalar huquqiy islohotlar bilan o‘z yechimini topmoqda. Ta’kidlash joizki, fuqarolik masalalariga oid qonunchilikni takomillashtirish, shuningdek, mamlakatimizda uzoq vaqtdan beri yashab kelayotgan, lekin O‘zbekiston fuqarosi degan huquqiy maqomga ega bo‘la olmayotgan minglab yurtdoshlarimizning ushbu muammosini qonuniy hal etish bo‘yicha tashkiliy-huquqiy choralar ko‘rildi.

Prezident Sh.Mirziyoyevning 2020 yil 29 dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga yo‘llagan Murojaatnomasida fuqarolikning yo‘qligi teng huquqlilik, ijtimoiy adolat tamoyillarining buzilishiga, qator ijtimoiy muammolarga olib kelishi qayd etilib, fuqarosizlikni qisqartirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan tub islohotlarni izchil davom ettirish maqsadida – 2005 yil 1 yanvarga qadar O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olingan, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi hududida uzluksiz 15 yil davomida doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatda turib, fuqaroligi bo‘lmagan shaxs yashash guvohnomasi yoki identifikatsiya ID-kartasi asosida yashab turgan va chet davlat fuqaroligini qabul qilmagan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi deb tan olish taklif etildi. O‘zbekiston Respublikasida fuqarosizlikni qisqartirish yo‘lida olib borilayotgan ishlarni davomi sifati “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga qo‘shimcha va o‘zgartishlar kiritish haqida”gi O‘RQ-696-son Qonuni qabul qilindi va mazkur qonun 2021 yil 14 iyun kunidan kuchga kirdi.

O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik qonunchiligi izchil rivojlanayotgan tizim bo‘lib, tizimning bosh harakati fuqarolik qonunchiligini mukammallashtirish va sodda-lashtirishga, shuningdek, fuqarolikni olish va tugatish borasidagi shaxsning huquq va erkinliklarining huquqiy mexanizmlarini mustahkamlashga qaratilgan. Yangi tahrirda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi qonun bilan – O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy istiqomat qiladigan fuqaroligi bo‘lmagan 90 mingdan ziyod shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini olishiga imkoniyat yaratildi.

“O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi fuqarolik to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish, ushbu sohada samarali va to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladigan qonunchilik bazasini yaratish, fuqarolik sohasidagi ma’muriy tartib-taomillarni yanada soddalashtirish, shaxslarning O‘zbekiston fuqaroligini olish va bekor qilish borasidagi huquq va erkinliklarini ta’minlashning huquqiy mexanizmlarini mustahkamlash bilan ham izohlanadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2021 yilda dunyoda fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar soni taxminan 12 million deb yuritilgan. BMT QBB 2021 yil uchun bergan ma’lumotiga ko‘ra, Markaziy Osiyoda 88117 nafardan ortiq fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar yashab keladi. Shundan 69791 nafari (79,1%) O‘zbekiston Respublikasida, 6385 nafari (9,1%) Tojikiston Respublikasida, 7999 nafari (9,3%) Qozog‘iston Respublikasida, 18 nafari

(0,2%)) Qirg‘iziston Respublikasida, 3924 nafari (4,5%) Turkmanistonda yashovchilarni tashkil qiladi. Fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning ko‘pchiligi Sobiq ittifoqning 1991 yilda parchalanishi oqibatida mavjud fuqaroligini yo‘qotib, fuqaroligi yo‘q shaxs bo‘lib qolganlarni tashkil qilgan.

Fuqarolik insonlarni hayot rejalarini amalga oshirish jarayoniga va inson taqdiriga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham fuqarolik bilan bog‘liq muammolar doimo dolzarb hisoblangan. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida 35 mln.dan ortiq fuqaro, shuningdek, 95857 nafar fuqaroligi bo‘lmagan shaxs hamda 14365 nafar chet el fuqarosi doimiy istiqomat qilishadi. 1991 yil sentabr oyidan bugungi kunga qadar 8249 nafar fuqaroligi bo‘lmagan shaxs O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilingan. Ularning asosiy qismi (7 765 nafari) 2016 yilning dekabr oyidan 2019 yilning iyul oyiga qadar O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilingan. Xuddi shunday, 2020 yil 1 may kuniga qadar O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga tan olish bo‘yicha 1995 yil 1 yanvar kuniga qadar respublikamizga ko‘chib kelib doimiy ro‘yxatdan o‘tgan 23969 nafar shaxslarning hujjatlari ko‘rib chiqilib, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik pasporti (identifikatsiya ID-kartasi) bilan hujjatlashtirish choralari ko‘rilgan.

O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini tan olish bo‘yicha 2005 yil 1 yanvar kuniga qadar respublikamizga ko‘chib kelib, doimiy ro‘yxatdan o‘tgan hamda muqaddam chet davlat fuqaroligida bo‘lmagan jami 20.570 nafar shaxslarning hujjatlari ko‘rib chiqilib, O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi identifikatsiya ID-kartasi bilan hujjatlashtirish choralari ko‘rildi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida kamida o‘n besh yil doimiy yashab kelayotgan va mazkur davr mobaynida chet davlat fuqaroligida bo‘lmagan shaxslarning hamda ota-onasidan biri (yolg‘iz otasi yoki onasi) O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi deb tan olingan, chet davlat fuqaroligini qabul qilmagan va O‘zbekiston Respublikasida yashab kelayotgan bolalarning murojaatlariga asosan jami 5.863 nafar shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi identifikatsiya ID-kartasi bilan hujjatlashtirish choralari ko‘rilgan.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi bilan bog‘liq masalalarini ko‘rib chiqishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, ularni o‘z vaqtida hamda sifatli ko‘rib chiqilishini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 10 martdagi “O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga oid masalalarni ko‘rib chiqishning yangilangan tartibini belgilash to‘g‘risida”gi PF–6185-sonli Farmoni va Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 16 sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi masalalarini ko‘rib chiqishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 557-sonli hamda 2020 yil 28 sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilishda davlat tilini bilish darajasini aniqlash tartibi to‘g‘risida”gi 592-sonli qarorlari ishlab chiqildi. Shuningdek, O‘zbekistonda fuqarosizlikni qisqartirish yo‘lidagi ishlarni davomi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 29 yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi PF–61-sonli Farmoni qabul qilindi. Farmon bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 10 martdagi “O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga oid masalalarni ko‘rib chiqishning yangilangan tartibini belgilash to‘g‘risida”gi PF–6185-sonli Farmoniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

Bugungi kunda yangi tahrirdagi “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi qonunning amal qilishi natijasida O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilish tartib-taomillari liberallashtirildi, shaxslarning fuqarolik sohasidagi huquqlari mustahkamlandi, fuqarolik masalalari bo‘yicha shikoyat qiluvchi shaxslarning e’tirozlari kamaydi, eng asosiysi, O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy istiqomat qiladigan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar soni keskin qisqarishiga (95 857 nafar fuqaroligi bo‘lmagan shaxsdan 49 228 nafari O‘zbekiston Respublikasi

fuqarosi sifatida tan olinadi) imkoniyat berdi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi masalalarini ko‘rib chiqishda idoralararo elektron hamkorlik mexanizmlari yaratildi, sohaga doir huquqni qo‘llash amaliyotining aniq va bir xilda bo‘lishi ta’minladi.

Fuqarolik huquqi bilan bog‘liq yana bir muhim islohotlar mamlakatimizda amal qilib kelayotgan va aholining ko‘p e’tirozlariga sabab bo‘layotgan eskirgan propiska tizimini isloh qilish bilan bog‘liq. Bu boradagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Doimiy propiska qilish hamda turgan joyi bo‘yicha hisobga olish tartibini isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni bilan keng jamoatchilik fikrlarini inobatga olgan holda ruxsat berish xususiyatiga ega bo‘lgan doimiy propiska qilish tizimidan bosqichma-bosqich xabar berish xususiyatidagi ro‘yxatdan o‘tkazish tizimiga o‘tish yuzasidan ishlar amalga oshirildi. Farmonda propiskaga qo‘yish bilan bog‘liq jarayonlar va ularni “yagona darcha tamoyili” asosida amalga oshirish mexanizmlari raqamlashtirilishi lozimligi belgilangan.

“Yagona darcha tamoyili” deyilganda fuqaroning ishi bir joyda hal bo‘lishi tushuniladi. Mazkur holatda doimiy ro‘yxatga ega bo‘lish uchun fuqaro talab etiladigan hujjatlarni taqdim etishda boshqa davlat idoralariga borishi shart emas. Murojaat ichki ishlar organining Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘linmasining o‘zida hal bo‘ladi. Masalan, uy-joy mulkdori nabirasini doimiy ro‘yxatga qo‘ymoqchi. Buning uchun uy-joy kadastr hujjatlari, farzandining va nabirasining tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnomalari elektron ko‘rinishda idoralararo hamkorlik tizimi orqali raqamlashgan shaklda olinadi. Xuddi shunday boshqa hujjatlar – o‘lim, nikoh tuzilganligi yoki nikohdan ajrashganlik to‘g‘risidagi guvohnomalar, shaxsning ishlayotganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar ham tarmoq orqali elektron tarzda olinishi mumkin.

Sohadagi o‘zgarishlar “Toshkent shahri va Toshkent viloyatida doimiy propiska qilinishi lozim bo‘lgan shaxslar – O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari toifalarining ro‘yxati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqidagi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida ham o‘z ifodasini topdi.

Mazkur Qonun O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini respublika hududida bir joydan ikkinchi joyga ko‘chish borasidagi huquq va erkinliklarini ta’minlashning huquqiy mexanizmlarini mustahkamlash bilan izohlanadi.

Qonunga kiritilgan o‘zgartish va qo‘shimchalar bilan “propiska” so‘zi ma’naviy eskirganligi va ushbu atama fuqarolar ongida “to‘sqinlik qiluvchi”, “erkinlikni cheklovchi” degan tushunchalarni keltirib chiqarayotganligi munosabati bilan “doimiy propiska” so‘zlari “yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish” so‘zlariga almashtirildi. Amaliyotda Toshkent shahri va Toshkent viloyatida ko‘chmas mulkka ega bo‘lish uchun bu hududlarda doimiy ro‘yxatda bo‘lish talabi bekor bo‘ldi.

Qo‘shimcha qulayliklar yaratish maqsadida fuqarolarga nafaqat birinchi va ikkinchi darajadagi qarindoshlari yashab turgan manzilga, balki ularning egaligida bo‘lgan uy-joy maydoniga ham doimiy ro‘yxatga turish imkoniyati yaratildi. Ya’ni, boshqa viloyatda doimiy ro‘yxatda bo‘lgan fuqaro Toshkent shahri va Toshkent viloyatidan ko‘chmas mulk sotib olgandan keyin avvalo o‘zi shu manzilga doimiy ro‘yxatga o‘tadi. So‘ngra oilasi (turmush o‘rtog‘i, farzandlari)ni, agar xohlasa, ota-onasi, bobo-buvisi va nabiralarini ham doimiy ro‘yxatga o‘tkazishi mumkin bo‘ldi.

Er-xotinning nikohdan keyin bir yil davomida birgalikda yashash sharti va bir yil ichida nikoh bekor qilingan taqdirda propiskani yo‘qotish bo‘yicha qoidalar bekor qilindi.

Oilaga tarbiyaga olingan (patronat) shaxslar ularning tutingan ota-onasining doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olinish imkoniga ega bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan lavozimlarga saylangan, tayinlangan, tasdiqlangan fuqarolar hamda ularning oila a’zolari belgilangan tart-

ibda doimiy propiska qilingandan so‘ng ular boshqa ishga o‘tishi yoki lavozimdan ozod etilishi yashash joyi bo‘yicha doimiy ro‘yxatdan chiqarilishiga oid qoida bekor qilindi.

Ilgari Toshkent shahrida va Toshkent viloyatida doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olingan fuqarolar – doimiy yashash uchun tegishincha Toshkent shahriga va Toshkent viloyatiga qaytib kelganida hech qanday to‘siqlarsiz doimiy yashash joyi bo‘yicha qayta ro‘yxatga olinadi. Ya’ni, oldin amalda bo‘lgan tartib bo‘yicha avvalgi yashagan manziliga faqatgina davlat yo‘llanmasi bilan ishga yuborilgan, o‘qish uchun ketgan, jazoni ijro etish muassasasidan ozodlikka chiqib qaytib kelgan fuqarolargina, agar shu holatlarni tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etsalar, yana qaytadan doimiy ro‘yxatga olingan. Endilikda har qanday shaxs Toshkent shahri va Toshkent viloyatidan ma’lum sabablarga ko‘ra, yoki o‘zining xohishiga ko‘ra ro‘yxatdan chiqib ketsa ham, xohlagan paytida yana qaytib, tegishincha Toshkent shahri yoki Toshkent viloyati hududiga doimiy ro‘yxatga turishi mumkin bo‘ldi.

Davlat hokimiyati organlarida, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarida hamda boshqa davlat tashkilotlarida uzluksiz besh yil va undan ortiq bo‘lgan davr mobaynida mehnat faoliyatini olib borayotgan mutaxassislar (texnik, xizmat ko‘rsatuvchi va ishlab chiqarish xodimlaridan tashqari) shuningdek, ularning oila a’zolari doimiy ro‘yxatga turish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Xulosa qilib aytganda, inson huquqlari sohasidagi xalqaro standartlarning milliy qonunchiligimizga va huquqni qo‘llash amaliyotiga implementatsiya qilinishi bilan mamlakatimizda fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar salmog‘i keskin kamayib, 90 mingdan ziyod shaxslar fuqarolikni olish imkoniga ega bo‘ldilar, shuningdek, poytaxt mintaqasida doimiy ro‘yxatga olish tartib-taomillari liberallashtirildi hamda fuqarolarning erkin ko‘chib yurish sohasidagi huquqlari mustahkamlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2021.– Б. 464.

2. “Ўзбекистон Республикаси фуқаролиги тўғрисида”ги ЎРҚ–610-сонли Қонуни, 2020 йил 13 март.

3. “Тошкент шаҳри ва Тошкент вилоятида доимий прописка қилиниши лозим бўлган шахслар – Ўзбекистон Республикаси фуқаролари тоифаларининг рўйхати тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш ҳақида”ги ЎРҚ–616-сонли Қонуни, 2020 йил 13 май.

4. “Доимий прописка қилиш ҳамда турган жойи бўйича ҳисобга олиш тартибини ислоҳ қилиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ–5984-сонли Фармони, 2020 йил 22 апрель.

5. “Ўзбекистон Республикаси фуқаролигига оид масалаларни кўриб чиқишнинг янгиланган тартибини белгилаш тўғрисида”ги ПФ–6185-сонли Фармони, 2021 йил 10 март.

6. “Ўзбекистон Республикаси фуқаролиги масалаларини кўриб чиқишда замонавий ахборот-коммуникация технологияларини татбиқ этиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ЎРВМ 57-сонли Қарори, 2020 йил 16 сентябрь.

Karimov T.P. Qonunchilikdagi islohotlar – fuqarolik huquqining kafolati

O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik bilan bog‘liq islohotlar, sohaga oid milliy qonunchilikdagi o‘zgarishlar va ushbu huquqiy omilning jamiyat hayotiga ta’siri oydinlashtirilgan.

Kalit so‘zlar: qonun, farmon, qaror, fuqaro, fuqarolik, huquq, pasport, propiska, ro‘yxat, ko‘chish, manzil, yashash, qayd etish, tan olish, milliy qonunchilik.

Каримов Т.П. Законодательные реформы – гарантия гражданских прав

Уточняются реформы, связанные с гражданством в Республике Узбекистан, изменения в национальном законодательстве, касающиеся сферы и влияние данного правового фактора на жизнь общества.

Ключевые слова: закон, указ, постановление, гражданин, гражданство, право, паспорт, предписание, список, миграция, адрес, место жительства, запись, признание, национальное законодательство.

Karimov T.P. Legislative reforms are a guarantee of civil rights

The reforms related to citizenship in the Republic of Uzbekistan, changes in national legislation regarding the scope and influence of this legal factor on the life of society are specified.

Key words: law, decree, ordinance, citizen, citizenship, right, passport, prescription, list, migration, address, residence, record, recognition, national law.

Shirinov Djaxongir Djabbarovich,
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo‘mitasi raisi

KONSTITUTSIYADA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI MASALASI

Fuqarolik jamiyati g‘oyasi – davlat va jamiyatdagi adolatli tuzum haqidagi tasavvurlar majmui sifatida g‘arb va sharq mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan.

Masalan, Abu Nasr Farobiyning “Fozil odamlar shahri” nomli asarida shunday deyilgan: “Inson barcha zarur narsalarni bir o‘zi hosil qila olmaydi, bularni topish uchun u turli kasbdagi odamlarning xizmatiga muhtojlik sezadi. Boshqa insonlar ham xuddi shunday holatda bo‘ladilar. Insonlar o‘z ehtiyojlarini qondirish va kamol topish uchun jamoaga va jamiyatga birlashishlari zarur bo‘ladi. Bu jamoada har bir shaxs o‘z tabiatiga, iste’dodi va qobiliyatiga yarasha kasb-hunarlarni o‘rganib, har kun o‘z san’atida (hunarida) kamolotga yetishga harakat qiladi. Shu sababli (turli millat va turli dinga mansub) turli joylarda yashovchi odamlar turli jamiyatlarga birlashadilar” [1].

Professor V.E.Chirkin davlat boshqaruvida “fuqarolik jamiyati” termini ishlatilishini qo‘llab-quvvatlamaydi. U bu boradagi fikrini zamonaviy konstitutsiyalarda fuqarolik jamiyati tushunchasidan foydalanilmaganligi bilan izohlaydi [2]. V.V.Boytsova va L.V.Boytsovalar esa bu fikrga qo‘shilmagan holda “zamonaviy konstitutsiyalarning yaratuvchilari ko‘pincha an’anaviy yuridik (konstitutsiyaviy-huquqiy) terminlarga asoslanishlarini” ta’kidlaydilar [3].

Ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida “fuqarolik jamiyati” degan termin ishlatilmagan bo‘lsada, fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega ekanliklari mustahkamlangan [4].

Ayrim olimlar oilani ham fuqarolik jamiyatining muhim institutlaridan biri deb hisoblaydi. Masalan, L.Yu.Grudsinaning fikriga ko‘ra “oila – fuqarolik jamiyati ijtimoiy tizimining muhim institutlaridan biri bo‘lib, inson unda o‘z hayotining asosiy qismini o‘tkazadi. Oilaning maqsadi, moddiy ta’minoti ahvoli, a’zolarining diniy qarashlari insonning hayot darajasini, uning ijtimoiy faolligini belgilab beradi, natijada u butun fuqarolik jamiyati muvaffaqiyatiga ijobiy ta’sir qiladi” [5].

Ta’kidlash lozimki, shaxs (individ) fuqarolik jamiyatining birlamchi bo‘g‘ini sanaladi. Fikrimizcha, oilani ham fuqarolik jamiyatining bo‘g‘ini deb hisoblash lozim. Binobarin, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasida “oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega” deb ko‘rsatilgan [6]. Lekin oilani “fuqarolik jamiyatining instituti” deb hisoblashdan oldin quyidagilarga alohida e’tibor qaratish kerak.

Birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksida oilaga huquqiy ta’rif berilmagan bo‘lib, Qonun oilaning ikki va undan ortiq shaxsdan iborat bo‘lishi majburiyatini belgilamaydi. Binobarin, oilaning bo‘linib ketish ehtimoli ham mavjud.

Ikkinchidan, tijorat tashkilotlari singari har bir oila ham faqat o‘z manfaati yo‘lida harakat qilishi mumkin.

Shunga muvofiq, ijtimoiy sohadagi fuqarolik jamiyati institutlari sirasiga bevosita oilaning o‘zini emas, balki oila masalalari bilan shug‘ullanuvchi nodavlat notijorat tashkilotlarini (oila markazlari, yoshlar, xotin-qizlar tashkilotlari va boshq.) kiritish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Binobarin, o‘zini o‘zi boshqarish organi mahalliy ahamiyatdagi masalalarni o‘zining ixtiyori bilan hal etadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasiga asosan “shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig‘inlari o‘zini o‘zi boshqarish organlari bo‘lib, ular raisni (oqsoqolni) saylaydi”.

Shu sababli, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini fuqarolik jamiyati institutlari sirasiga kiritishga barcha asoslarimiz bor deb hisoblaymiz.

Ma’naviy sohada fuqarolik jamiyati har bir shaxsga fikrlash, so‘z, e’tiqod va ijod erkinligi huquqini ta’minlashga xizmat qiladi. Bu esa fuqarolarning ma’naviyati, madani-

yati, ijodiy va ruhiy hayot tarzi bilan bevosita bog‘liqdir. Bu sohada qator jamoat birlashmalari, shu jumladan madaniy-ma’rifiy markazlar, ijodiy uyushmalar, diniy tashkilotlar va boshqa tashkilotlar faoliyat ko‘rsatadi.

1992 yilda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi mazkur masalalarni hal etishda muhim rol o‘ynadi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31- va 61-moddalariga muvofiq “hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi...”, “diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda Qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi” [7].

Sobiq Sovet Ittifoqi davrida nodavlat notijorat tashkilotlari “jamoat tashkilotlari” deb atalgan bo‘lsa, O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki yillarida “jamoat birlashmalari” nomini oldi. Buning asosiy sababi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida “nodavlat notijorat tashkiloti” emas, balki aynan “jamoat birlashmasi” atamasidan foydalanilgan [8].

Xalqaro shartnomalar nodavlat notijorat tashkiloti tushunchasini nazarda tutmaydi [9]. G‘arb mamlakatlari va Rossiya Federatsiyasida nodavlat notijorat tashkilotlari “nohukumat tashkilotlari” deb nomlanadi. M.Moxovikovaning aytishicha O‘zbekistonda “nohukumat” degan so‘zdan ataylab voz kechilgan, chunonchi olimaning fikriga ko‘ra bunday so‘zning ishlatilishi “hukumatga qarshi” degan ma’noni keltirib chiqaradi [10].

Biroq, bu fikrga qo‘shilib bo‘lmaydi. Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiq hukumat deganda – Vazirlar Mahkamasi, ya’ni ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiruvchi organ tushuniladi. Shunga muvofiq, nodavlat notijorat tashkilotlarni “nohukumat tashkiloti” deb nomlash, ularning faqatgina ijro etuvchi hokimiyatdan xoli ekanligini anglatadi. Vaholanki, nodavlat notijorat tashkilotlar nafaqat ijro etuvchi hokimiyatdan, balki boshqa hokimiyat organlari (qonun chiqaruvchi va sud)dan ham mustaqildirlar.

Aytish joizki, jamoatchilik o‘rtasida sotsiologik so‘rov o‘tkazilganda 59 foiz respondentlar O‘zbekistonda “nohukumat tashkiloti” so‘zini ishlatmaslikni, chunki bunday tashkilotlar nafaqat Hukumatdan, balki hokimiyatning boshqa tarmog‘idan ham xoli ekanligini ma’lum qilishgan [11].

Bundan tashqari, “nodavlat notijorat tashkiloti” degan so‘zlarning o‘zida, uning har ikkala zaruriy elementi, ya’ni “davlatdan” ham va “tijoratdan” ham xoli ekanligi aniq aks etgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O‘zbekistonda qonun ijodkorlari tomonidan “nohukumat” degan so‘zning ishlatilmasligi juda ham to‘g‘ri qaror bo‘lgan deb hisoblaymiz.

Aytish joizki, jamoat birlashmalari O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlarining konstitutsiyaviy shakliga mansub. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 58-moddasida “davlat jamoat birlashmalarining huquq va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta’minlaydi, ularga ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi” deb ko‘rsatilgan.

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Konstitutsiyasida nodavlat notijorat tashkiloti so‘zi biror marotaba ham ishlatilmagan bo‘lsa-da, jamoat birlashmasi so‘zidan 19 marotaba foydalanilgan.

Hatto jamoat birlashmalariga bag‘ishlab Konstitutsiyada alohida bob (XIII) ajratilgan [12]. Buning asosiy sababi mamlakat Konstitutsiyasi qabul qilingan vaqtda “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni mavjud emas edi. Aksincha, Konstitutsiya qabul qilinishidan oldinroq, ya’ni 1991 yilda “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi [13] Qonun qabul qilingan.

Aytish joizki, bugungi kunda yurtimizda olib borilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar doirasida Konstitutsiyamizdagi yuqorida qayd etilgan huquqiy bo‘shliqlarni to‘ldirish borasida ish olib borilmoqda.

Jumladan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan 2022 yil 25 iyunda e’lon qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonun loyihasi bilan Asosiy qonunimizning 56-moddasida “fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan mahallalar, siyosiy partiyalar, harakatlar, ommaviy axborot vositalari,

kasaba uyushmalari, jamoat fondlari va shaxslarning boshqa jamoat birlashmalari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi, uning mazmunini belgilaydi” degan norma taklif etilmoqda. Ya’ni bunday tahrirdan ko‘rinadiki, Konstitutsiya fuqarolik jamiyati institutlari tizimiga 3 ta tuzilma (nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari) kirishini ko‘zda tutmoqda.

Biroq, berilgan tahrir mazmuni diqqat bilan o‘qilsa, ushbu yuqoridagi tuzilmalar “shu jumladan” fuqarolik jamiyati institutlari tarkibiga kirishi ko‘rsatilgan bo‘lib, ya’ni ulardan tashqari yana boshqa subyektlar ham kirishi mumkinligini inkor etmaydi. Chunonchi, yuqoridagilardan tashqari asosiy maqsadi daromad (foyda) olishga qaratilmagan boshqa nodavlat tuzilmalar ham borki (masalan: yuridik shaxslarning notijorat birlashmalari, beg‘araz xizmat ko‘rsatuvchi huquqiy maslahatxona, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari va hok.) ularni fuqarolik jamiyati institutlari sirasiga kiritish uchun yetarlicha nazariy va huquqiy asoslar mavjud. Shu sababli, mualliflarning Konstitutsiyaviy qonun loyihasida fuqarolik jamiyati institutlari tarkibini cheklamaganliklari oqilona yo‘l bo‘lgan deb hisoblaymiz.

Bundan tashqari, Konstitutsiyaviy qonun loyihasi bilan Konstitutsiyamizning XIII bobida birinchi marotaba “nodavlat notijorat tashkilotlari” so‘zlaridan foydalanilmoqda. Shu bilan birga, Konstitutsiyamizda jamoat birlashmalari tushunchasi va tarkibi saqlanib qolmoqda.

Umuman olganda, jamoat birlashmalariga ta’rif 4 ta qonun hujjatida, ya’ni O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (56-modda), “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi Qonun (1-modda), Fuqarolik kodeksi (74-modda) hamda “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonun (11-modda)da berilgan.

Biroq, ushbu ta’riflar bir-biridan farq qiladi. Ular orasida Fuqarolik kodeksi va “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonunda keltirilgan ta’riflar deyarli o‘zaro bir xil bo‘lib, “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi Qonunda berilgan ta’rifdan keskin farq qiladi.

Jumladan, “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 11-moddasiga muvofiq, ma’naviy yoki boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish uchun o‘z manfaatlarining mushtarakligi asosida Qonunda belgilangan tartibda birlashgan fuqarolarning ixtiyoriy birlashmasi jamoat birlashmasi deb e’tirof etiladi [14].

Ko‘rib turganingizdek, ushbu ta’rifda asosiy urg‘u “fuqarolarning Qonunda belgilangan tartibda ixtiyoriy birlashuvi”ga qaratilgan.

“O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi Qonunning 1-moddasida esa jamoat birlashmasiga quyidagi ta’rif keltirilgan: o‘z huquqlari, erkinliklarini hamda siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy rivojlanish, fan, madaniyat, ekologiya va hayotning boshqa sohalaridagi Qonuniy manfaatlarini birgalikda ro‘yobga chiqarish uchun birlashgan fuqarolarning xohish-irodalarini erkin bildirishlari natijasida vujudga kelgan ixtiyoriy tuzilma jamoat birlashmasidir [15].

Ya’ni mazkur ta’rifda asosiy urg‘u “fuqarolarning Qonunda belgilangan tartibda birlashuvi”ga emas, balki “o‘zaro birlashgan fuqarolarning xohish-irodalarini erkin bildirishlari”ga qaratilgan.

Aslida yuqorida keltirilgan har ikkala jihatlar jamoat birlashmalariga xos.

D.Xolmanovaning fikricha, “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi Qonunda e’tirof etilgan “jamoat birlashmasi” tushunchasi mazmun va mohiyati jihatidan “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida berilgan “nodavlat notijorat tashkilot” tushunchasidan kengroq ma’no kasb etadi [16].

Biroq, “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi Qonunda keltirilgan ta’rifda fuqarolarning o‘zaro birlashuvi tartibini Qonun bilan bog‘lab qo‘yilmagan. Aytish joizki fuqarolarning har qanday o‘zaro birlashuvini jamoat birlashmasi deb bo‘lmaydi.

Masalan, Konstitutsiyaviy tuzumni zo‘rlik bilan o‘zgartirishni, respublika suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiqishni, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ‘ib

qilishni, xalqning sog‘lig‘i va ma’naviyatiga tajovuz qilishni, shuningdek harbiylashtirilgan, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarni tuzishni maqsad qilgan holda o‘zaro birlashgan fuqarolarni jamoat birlashmasi deb tan olib bo‘lmaydi.

Binobarin, bunday birlashmalarni tuzish Konstitutsiya va qonunlar bilan taqiqlangan.

Shunday ekan, jamoat birlashmasini tuzish uchun fuqarolarning o‘zaro birlashuvlari Qonunda belgilangan qoidalarga muvofiq kelishi lozim. Bunday qoidalar jamoat birlashmasini ta’sis etish jarayonini tartibga solishga qaratilgan.

Bu masalada O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi yanada aniq qoidani o‘rnatgan. Xususan, Konstitutsiyada jamoat birlashmasiga berilgan ta’rifda “Qonunda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan” degan jumla ishlatilgan bo‘lib, bu qoida yuqorida biz ta’kidlagan salbiy holatlardan “sug‘urtalovchi” norma hisoblanadi.

Biroq, Konstitutsiyada jamoat birlashmalariga bag‘ishlangan ushbu qoidani jamoat birlashmalariga huquqiy ta’rif deb baholab bo‘lmaydi. Chunonchi, unda jamoat birlashmalari tushunchasi ochib berilmagan, balki ularning turlari sanab o‘tilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 56-moddasiga muvofiq “O‘zbekiston Respublikasida Qonunda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e’tirof etiladi” [17].

Ta’kidlash lozimki, Konstitutsiya va qonunlarda “qonunda belgilangan tartibda” jumlasini havolaki norma sifatida qarash kerak emas deb o‘ylaymiz. Chunonchi, jamoat birlashmalarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi qonunlarda aniq belgilangan.

Shunga muvofiq, “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi Qonunning 1-moddasi birinchi qismidagi hamda “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 11-moddasi 1-qismidagi jamoat birlashmalariga keltirilgan ta’riflarni qayta ko‘rib chiqish, ularni o‘zaro muvofiqlashtirish maqsadga muvofiq.

Bunda jamoat birlashmasiga berilgan ta’rifda fuqarolarning Qonunda belgilangan tartibda birlashganliklari aks etib turishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри /таржимонлар : А . Ирисов , М . Маҳмудов, О . Отажон таржимаси – Тошкент : Янги аср авлоди , 2018 . – 320 б.

2. См.: Чиркин , В.Е. Конституционное право: Россия и зарубежный опыт. М., 1999. - С. 135.

3. См.: Бойцова, В.В, Бойцова, Л. В. Конституционное право в российской правовой системе // Общественные науки и современность. - М.: Наука, 1993. - Серия 6.

4. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси , Тошкент : Ўзбекистон НМИУ, 2018. - 80 б.

5. Грудцына, Л.Ю. Институты гражданского общества в России / научно-аналитический материал // https://studygur.ru/doc/674488/grudcyna-l.yu. - Ст.2.

6. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Тошкент: Ўзбекистон , НМИУ, 2018. - 80 б.

7. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси . - 1993 . -№ 1. 4-модда.

8. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2018 .- 80 б.

9. Асьянов, Ш.М., Куликова, М.Ш., Исаева , А. Нодавлат нотижорат ташкилотларни рўйхатдан ўтказиш ва уларнинг фаолиятига доир қўлланма . – Тошкент , 2008. – 54 б .

10. Моховикова, М.Н. Взаимодействие государства и негосударственных некоммерческих организаций в Узбекистане / автореф. дисс. на соиск. канд. полит. наук. . -Москва , 2016. - С.20 .

11. Ширинов Дж., Диссертация тадқиқоти доирасида ижтимоий тармоқларда жамоатчилик ўртасида ўтказилган социологик сўров натижалари (Жахонгир Ширинов @deputat_shirinov телеграмм канали 2020 й 27 декабрь).

12. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси .- Тошкент : Ўзбекистон НМИУ , 2018 . – 80 б.

13. Ўзбекистон Республикасида жамоат бирлашмалари тўғрисида : Ўзбекистон Республикаси Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси . - 1991 . - № 4 . 76-модда.

14. Ўзбекистон Республикасида жамоат бирлашмалари тўғрисида : Ўзбекистон Республикаси Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси . - 1991 . - № 4 . 76-модда.

15. Ўзбекистон Республикасида жамоат бирлашмалари тўғрисида : Ўзбекистон Республикасининг Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси . - 1991 . - № 4 . 76-модда .

16. Холманова, Д. “Ўзбекистон Республикасида нодавлат нотижорат ташкилотларининг жамоат бирлашмалари тизимидаги ўрни. / Юридик фанлар номзоди илмий даражасини олиш учун дисс. - Тошкент , 2012. – Б. 46 .

17. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси . - Тошкент : Ўзбекистон НМИУ , 2018 . -80 б.

Shirinov D.D. Konstitutsiyada fuqarolik jamiyati institutlari masalasi

Maqolada qonunchilikda fuqarolik jamiyati institutlari tushunchasidan foydalanilishi holati, nodavlat notijorat tashkilotlarini “nohukumat tashkilotlari” deb nomlamaslikning sabablari, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida fuqarolik jamiyati institutlari tarkibining ochib berilishi, jamoat birlashmalariga berilgan ta’rifning nazariy va huquqiy jihatdan bahsli jihatlari chuqur tahlil etilgan hamda mavzuga oid mualliflik takliflari berilgan.

Kalit so‘zlar: fuqarolik jamiyati institutlari, oila, nohukumat tashkilotlar, Konstitutsiya, nodavlat notijorat tashkilotlari, Fuqarolik kodeksi, jamoat birlashmalari, qonun, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, davlat ro‘yxati.

Ширинов Д.Д. Вопросы институтов гражданского общества в Конституции

В статье проводится углубленный анализ использования в законодательстве понятия институтов гражданского общества, причины отказа от наименования негосударственных некоммерческих организаций в качестве «неправительственных организаций», раскрытия структуры институтов гражданского общества в Конституции Республики Узбекистан, теоретических и правовых аспектов определения общественного объединения, а также излагаются авторские предложения по теме.

Ключевые слова: институты гражданского общества, семья, неправительственные организации, Конституция, негосударственные некоммерческие организации, Гражданский кодекс, общественные объединения, закон, органы самоуправления граждан, государственная регистрация.

Shirinov D.D. Issues of civil society institutions in the Constitution

The article provides an in-depth analysis of the use of the concept of civil society institutions in the legislation, the reasons for refusing to name non-governmental non-profit organizations as "non-governmental organizations", disclosing the structure of civil society institutions in the Constitution of the Republic of Uzbekistan, theoretical and legal aspects of defining a public association, and author's suggestions on the subject are given.

Key words: civil society institutions, family, non-governmental organizations, Constitution, non-governmental non-profit organizations, Civil Code, public associations, law, citizens' self-government bodies, registration.

Taxirov Farxod,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti professori,
yuridik fanlar doktori, professor

SHAXSNING SHA’NI VA QADR-QIMMATINI KAFOLATLASHNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmun va mohiyatiga inson huquqlari g‘oyasi chuqur singdirilgan. Asosiy qonunimizning ikkinchi bo‘limi yaxlit inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda burchlariga bag‘ishlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi **“2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonidan kelib chiqib, Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida ham inson huquqlarini har tomonlama himoya qilishga** [1] qaratilgan bir qancha maqsadlar belgilangan.

Darhaqiqat, davlatimizning inson huquqlariga bo‘lgan munosabatining konstitutsiyaviy kafolati sifatida 13-moddada “O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi” degan o‘ta mazmunli qoida mustahkamlangan.

Shaxsning erki, sha’ni va qadr-qimmatini huquqiy jihatdan ta’minlash zamonaviy huquqshunoslikning umuman muhim muammosidir. Ushbu masala mavjud ijtimoiy jarayonlarni xarakterlovchi ikkita qutbiy omil - butun insoniy munosabatlarni vayron qiluvchi, shaklini o‘zgartiruvchi negativ omil va insoniy axloqiy qadriyatlarni insonparvarlik va demokratiya tomon yo‘naltiruvchi konstruktiv, yaratuvchi omil mavjudligiga asoslanadi.

Sha’n va qadr-qimmat huquqiy institutlarini kompleks tadqiq qilishdan ko‘zlangan maqsadning dolzarbligi huquqning mazkur shaxsning ma’naviy qadriyatlarini aks ettiruvchi turli-tuman ijtimoiy munosabatlarga samarali ta’sirini ta’minlash, uning sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish to‘g‘risidagi konstitutsiyaviy talablarni amalga oshirish bilan belgilanadi.

Ma’lumki, huquqni sohalarga tasniflash uchun huquqiy tartibga solish predmeti va usuli asos qilib olingan. Shuning uchun, fuqarolarni huquqning konstitutsiyaviy, jinoyat, jinoyat-protsessual, fuqarolik, ma’muriy, mehnat va boshqa sohalaridagi o‘z sha’ni va qadr-qimmatlarini himoya qilish huquqlari to‘g‘risida va shu bilan birga, huquqda sha’n va qadr-qimmatning ma’naviy qadriyatlarini huquqiy institutning yaxlit tizimiga aks ettiruvchi sohaviy elementlarni birlashtirish to‘g‘risida gapirish mumkin.

Shaxs sha’ni va qadr-qimmatining huquqiy himoyalanganligi, ushbu qadriyatlarning jamiyat va davlat tomonidan hurmat qilinishi yangi insonparvarlik, ya’ni demokratik huquqning yetakchi, markaziy tamoyilining negizini tashkil etadi [2].

Sha’n va qadr-qimmat munosabatlarini belgilash va tartibga solishning huquqiy usullari va yuridik vositalari ushbu ma’naviy qadriyatlarni takomillashtirish va rivojlantirishga qaratilgan turli-tuman ijtimoiy ta’sir choralari doirasida ulkan maydonni egallaydi. Aytish mumkinki, shaxsning (yoki ijtimoiy umumjamoa, guruhning) sha’ni va qadr-qimmatini ifodalovchi ijtimoiy munosabatlar huquqning barcha sohalarini huquqiy tartibga solish predmetlari uchun, shuningdek, butun nazariy huquqshunoslik uchun umumiy va mufassaldir.

Inson huquqlari va ularning sha’ni va qadr-qimmatini himoyalash demokratik huquqiy davlatning eng muhim belgisidir. Binobarin inson huquqlari – har bir davlatning demokratik taraqqiyoti darajasini ko‘rsatuvchi muhim mezon hisoblanadi. Ta’kidlash joizki, birinchi navbatda inson huquqlari davlat tomonidan himoyalanishi kerak va o‘z navbatida uning himoyalangan-

ligi esa qonun hujjatlarida mustahkamlanishi lozim.

Shu o‘rinda qayd etish o‘rinliki, mamlakatimizning Asosiy qonuni - O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyada ushbu huquqlar xalqaro hujjatlarga monand ravishda to‘liq ta’minlangan desak hech ham mubolag‘a bo‘lmaydi. Ushbu fikrimizni asoslash uchun misollar talaygina. Masalan, buning isbotini ikki hujjatda ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi va O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi bevosita inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlashga qaratilgandir.

Darhaqiqat, Konstitutsiya xalq irodasini ifodalaydi. Konstitutsiya – inson huquqlari va erkinliklarini huquqiy kafolatlovchi aktlar yig‘indisi yoki konstitutsiyaviy odatlardan tashkil topgan yozma huquqiy aktdir. Har bir davlatning davlat sifatida qaytarilmas va o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon qiluvchi hujjat bu uning Konstitutsiyasidir.

Konstitutsiya O‘zbekiston hududida yashayotgan xalqlarning irodasi, ruhiyati, ijtimoiy ongi va madaniyatini aks ettiradi. U avvalambor umuminsoniy qadriyatlar va xalqaro huquqning ustunligi prinsipiga amal qiladi. Unda biror siyosiy mafkuraning, partiyalarning hukmronligi mavjud emas. Ta’kidlab o‘tish joizki, 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi inson hayoti, shaxsi va erkinliklarining daxlsizligi kabi deyarli barcha prinsipial qoidalarini o‘zida mujassamlashtirgan.

Oddiy so‘z bilan aytadigan bo‘lsak, mamlakatimiz Konstitutsiyasi bir tomondan, milliy tafakkurimizning, dinimizning, adolat, bag‘rikenglik, to‘g‘riso‘zlik, insoniylik kabi qadriyatlarini o‘zida aks ettirsa, ikkinchi tomondan, unda xalqaro me’yorlar, umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unlash-tirilganligi ayniqsa diqqatga sazovordir.

O‘zbekiston Respublikasida odamlarning millatiga, diniga, ijtimoiy ahvoliga, siyosiy va boshqa e’tiqodiga qarab cheklashlar yo‘q. Chunonchi, Konstitutsiyaning eng muhim qismlaridan bo‘lgan ikkinchi bo‘limi inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlariga bag‘ishlangan. Davlatimiz Asosiy qonunining yana o‘ziga xos jihatlaridan biri shundaki, u faqat O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini, balki O‘zbekistonda istiqomat qiluvchi barcha insonlarning muqaddas va daxlsiz huquqlarini kafolatlaydi.

Konstitutsiyamizda mustahkamlangan huquqlar ichida fuqarolarning tengligi prinsipi o‘ziga xos o‘rin tutadi. Ushbu huquqning mohiyatini chuqurroq anglash uchun biroz tarixga nazar solamiz. Binobarin insonlarning tengligi va tenglik uchun kurash tarixi qadimga borib taqaladi.

Ta’kidlash joizki, dastlab, insonlarning tengligini ilohiy yo‘l bilan asoslashga urinishgan, jumladan, tabiiy huquq nazariyasi vakillari “Yaratgan oldida hamma teng” deb ta’kidlashgan. Ushbu nazariya “barchaning tengligi va hamma abadiy ajralmas va daxlsiz huquqlarga ega ekanligini, bu huquqlarga hech kim daxl qilishga haqli emasligini” asoslashgan.

Shu joyda ta’kidlash o‘rinliki, insonlarning qonun oldida tengligini e’tirof etilishi kishilik jamiyati tarixida, jumladan siyosiy-huquqiy fikrlar rivojida o‘ta muhim o‘rin egallab, yangi davr boshlanganligidan guvohlik bergan.

Fuqarolarning tengligi g‘oyasi birinchi marta AQShning 1776 yildagi Mustaqillik Deklaratsiyasida o‘zining ifodasini topgan: Barcha insonlar Yaratgan tomonidan teng yaratilgan va yashash, erkinlik va baxtga intilish kabi ajralmas huquqlarga ega bo‘lishgan. Ushbu huquqlarni ta’minlash uchun insonlar tomonidan hukumatlar ta’sis etilgan va ular o‘zlarining qonuniy vakolatlariga boshqaruv ostidagilarning roziligi bilan erishgan” [3].

Jumladan, Konstitutsiyamizning 18-moddasida Respublikamizdagi barcha fuqarolarning tengligi e’tirof etilib shunday deyilgan: “O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat’iy nazar, qonun oldida

tengdirlar”.

Aynan shu norma Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 2-moddasida belgilanib qo‘yilgan. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25-moddasiga muvofiq “Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega” deyiladi. Ayni ushbu normaning ham fundamental asosi biz yuqorida to‘xtalib o‘tgan muhim xalqaro huquqiy hujjat – Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida o‘z ifodasini topgan.

Insonning erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati oliy qadriyatdir. Hech kim qullikka yoki asoratga solinishi, sudning hukmisiz yoki ruxsatisiz o‘zboshimchalik bilan qamoqqa olinishi mumkin emas. Har bir inson erkin bo‘lib tug‘iladi, shuningdek inson xohlagan joyida istiqomat qilish huquqiga ega. Lekin har doim ham shuni nazarda tutish kerakki, inson qayerda yashamasin, o‘sha yerda amal qiluvchi davlatning qonunlariga itoat etishga majbur.

Insonning sha’ni va or-nomusi ham daxlsiz. Hech kim insonning shaxsiy yoki oilaviy hayotiga o‘zboshimchalik bilan aralashishi, oilaviy sir-asrorlarini oshkor qilishi, insonning uy-joy daxlsizligiga tajovuz qilishi mumkin emas. Insonni kamsitish, obro‘sizlantirish, haqorat qilish, tahqirlash qonunga xilof xatti-harakat hisoblanadi va bunday harakatlar uchun qonun bo‘yicha tegishli javobgarliklar mavjud. Inson hayotiga tajovuz esa eng og‘ir jinoyat sanaladi.

Darhaqiqat, “Sha’n” va “qadr-qimmat” o‘zaro bog‘liq tushunchalar bo‘lib, odatda bir-biridan ajralmagan holda ishlatiladi.

Shaxsning erki, sha’ni va qadr-qimmatini huquqiy jihatdan ta’minlash zamonaviy huquqshunoslikning umuman muhim muammosidir. Ushbu masala mavjud ijtimoiy jarayonlarni xarakterlovchi ikkita qutbiy omil - bugun insoniy munosabatlarni vayron qiluvchi, shaklini o‘zgartiruvchi negativ omil va insoniy axloqiy qadriyatlarni insonparvarlik va demokratiya tomon yo‘naltiruvchi konstruktiv, yaratuvchi omil mavjudligiga asoslanadi.

Zamonaviy huquqshunoslikda jamiyat hayoti faoliyatida inson omili, inson tomonidan o‘zining shaxsiy qadr-qimmatini anglashida, jamiyat tomonidan uning sha’ni va ijtimoiy ahamiyatining e’tirof etilishida namoyon bo‘luvchi uning axloqiy salohiyatini tadqiq qilish muammosi borgan sari yanada yuqori ahamiyat kasb etmoqda. Huquqning axloqiy toifalari - erk, sha’n, qadr-qimmat, vijdon - huquqiy tadqiqotning maxsus sohasi bo‘lib, unda yuridik qonunlarda mustahkamlangan axloq asoslari, ma’naviy tamoyillar va inson faoliyatining mezonlarini belgilovchi me’yorlar tizimi o‘rganiladi [4].

Axloqiy yo‘l-yo‘riqlar jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy isloh qilinishida, ijtimoiy amaliyotning demokratlashtirilishi va insonparvarlashtirilishida, huquqiy davlatchilikni ko‘rishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Shaxsning sha’ni va qadr-qimmati uning huquqlar, majburiyatlar, erkinlik subyekti sifatidagi ijtimoiy-huquqiy tavsifida mustahkamlovchi halqadir. Ushbu axloqiy ibtidolar huquqiy tadqiqotning asosiy predmetlaridan birini tashkil etadi, zero aynan qonuniylik va huquq-tartibot shaxsning o‘z qadr-qimmati va sha’nining ma’naviy qadriyatlarida o‘z-o‘zini yuzaga chiqarishiga imkoniyat yaratadi.

Shaxsning yoki ijtimoiy umumjamoaning sha’ni va qadr-qimmati, nafaqat axloqiy, balki huquqiy ongni ifodalovchi favqulodda holat bo‘lgani holda, ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga soluvchi yuridik vositalarning butun yig‘indisida namoyon bo‘ladi. Shu holat tufayli, sha’n va qadr-qimmatni amalga oshirish mexanizmini tizimli, kompleks o‘rganish muammosi dolzarb vazifa hisoblanadi.

Huquq tizimida shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini mustahkamlashda me’yoriy blok, ya’ni jamiyatda amal qiluvchi huquqiy me’yorlar tizimi ustuvordir. Ijtimoiy munosabatlarning siyosiy, iqtisodiy, madaniy munosabatlar bilan tuzilmasida bevosita munosabatda bo‘la turib, sha’n va qadr-qimmat axloqiy qadriyatlar sifatida huquq tizimida me’yorlar - shaxs sha’ni va qadr-qimmati institutining sohalararo kompleks birlashuvi shaklida aks etadi [5]. Umumnazariy va sohaviy huquqshunoslikda sha’n va qadr-qimmat munosabatlarining

huquqiy tavsifi tadqiqoti ko‘pincha o‘zaro yagona tahlil tizimiga [6] bog‘lanmagan yondashuvlarning ko‘p turliligi bilan ajralib turadi, shuning uchun sha’n va qadr-qimmat muammolarini kompleks ravishda tadqiq qilish vazifasi yagona huquqiy institut kontekstida-tadqiqotning mazkur bo‘limi asosiy mavzusidir.

Sha’n va qadr-qimmat huquqiy institutlarini kompleks tadqiq qilishdan ko‘zlangan maqsadning dolzarbligi huquqning mazkur shaxsning ma’naviy qadriyatlarini aks ettiruvchi turli-tuman ijtimoiy munosabatlarga samarali ta’sirini ta’minlash, uning sha’ni va qadr-qimmatini voqeiy ravishda hurmat qilish to‘g‘risidagi konstitutsiyaviy talablarni amalga oshirish bilan belgilanadi.

Asosiy qomusimizning 13-moddasi alohida ravishda yana shuni e’tirof etadiki, O‘zbekistonda barcha fuqarolarning demokratik huquq va erkinliklari Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi. Ushbu me’yor Konstitutsiyaning inson huquqlari va erkinliklari kafolatlariga bag‘ishlangan X bobida maxsus tarzda yanada mustahkamlangan.

Shaxs sha’ni va qadr-qimmatining huquqiy himoyalanganligi, ushbu qadriyatlarning jamiyat va davlat tomonidan hurmat qilinishi yangi insonparvarlik, ya’ni demokratik huquqning yetakchi, markaziy tamoyilining negizini tashkil etadi [7].

Yana bir shunga o‘xshash misolni keltirish mumkin, masalan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining Maxsus qismi 1-bo‘limida “Shaxsga qarshi jinoyatlar” uchun javobgarlik belgilanadi. Bunda shaxsning hayotiga, sog‘lig‘iga, jinsiy erkinligiga, oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi qaratilgan jinoyatlar, shaxsning ozodligi, sha’ni va qadr-qimmatiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik berilgan.

Shaxsning huquq va erkinliklari, uning sha’ni va qadr-qimmati insoniy qadriyatlar va huquqiy manfaatlar tizimida ustuvor o‘ringa ega. Sha’n va qadr-qimmat huquqiy institutining bosh maqsadi bevosita O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida aks etgan bo‘lib, uning 13-moddasi birinchi qismiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

Fuqarolarning sha’ni va qadr-qimmatiga bo‘lgan huquqi avvalambor, Bosh qomusimiz tomonidan kafolatlanadi. Shu jumladan, har kim o‘z sha’ni va obro‘siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalanish va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega. Shu bilan birga, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27, 48-moddalari).

Konstitutsiyasimizda o‘z ifodasini topgan yuqoridagi qoidalar esa o‘z navbatida, Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro Pakt, “Inson huquqlari va asosiy erkinliklari to‘g‘risida”gi MDH Konvensiyasi va boshqa xalqaro normativ hujjatlarda bayon qilingan shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini g‘ayriqonuniy tajovuzlardan himoya qilinish huquqiga doir qoidalarga to‘la mos keladi [8].

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasining ikkinchi qismida “Hech kim qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatni kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas”, deb shuningdek, Konstitutsiyamizning 26-moddasi ikkinchi qismida “Hech kim qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr- qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas”, deb ta’kidlangan.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, 1984 yil 10 dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Qiynoqlarga solishga va muomalada bo‘lish va jazolashning boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni tahqirlovchi turlariga qarshi konvensiyasi”da

qiynoq tushunchasi, qiynoq harakatlarini oldini olishga oid davlatlar majburiyati, qiynoq harakatlarini sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilash hamda qiynoqni oldini olish va unga qarshi kurashga oid boshqa qator normalar belgilangan [9].

Mazkur Konvensiyani davomi sifatida qiynoqlar hamda muomala va jazolashning boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr qimmatni kamsitadigan turlarining oldini olish maqsadida mustaqil xalqaro va milliy organlar tomonidan ozodlikdan mahrum qilingan shaxslar saqlanadigan joylarda muntazam bo‘lish tizimini yaratish maqsadida 2002 yil 18 dekabrda BMT Bosh Assambleyasining 57/199-rezolyutsiyasi bilan “Qiynoqlar hamda muomala va jazolashning boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan turlariga qarshi konvensiyaga Fakultativ protokol” qabul qilindi.

Fakultativ protokolning asosiy maqsadi qiynoqni oldini olish bo‘yicha xalqaro va milliy preventiv mexanizmlarni joriy etish. Ushbu Protokolni 2-moddasiga asosan, xalqaro darajada BMTning Qiynoqlarga qarshi qo‘mitasining Qiynoqlar hamda muomala va jazolashning boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan turlarining oldini olish bo‘yicha kichik qo‘mitasi tashkil etilgan.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, sha’n va qadr-qimmat g‘oyalari jinoyat huquqining ko‘pgina normalari va institutlariga singdirilgan. Ushbu g‘oyalar jinoyat-huquqiy tartibga solishning maqsad va vazifalarini belgilovchi, shaxsning turli manfaatlariga, shu jumladan, uning sha’ni va qadr-qimmatiga nisbatan sodir etilgan aniq jinoiy tajovuzlar uchun javobgarlikni o‘rnatuvchi va bunday jinoyatlarni sodir etganlik uchun jazo tayinlash tartibini o‘rnatuvchi normalarda huquqiy ifodasini topdi. Bu bilan, inson sha’ni va qadr-qimmatining muhofazasi va turli jinoyatlardan himoya qilinishi O‘zbekiston Respublikasi amaldagi jinoyat qonun hujjatlarining butun bir normalar tizimi yordamida ta’minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони. https://lex.uz/

2. Гулиев В.Е., Рудинский Ф.М. Демократия и достоинство личности.-М., 1983.-С. 7.

3. Соединенные Штаты Америки: Конституция и законодательные акты. М., 1993. С. 25.

4. Солодухин О.А. Этика права. – ростов-на-Дону, 1997. 5-б.

5. Общая теория государства и права. Академический курс в 2-х томах. / Под ред. М.Н. Марченко. Т. 1. Теория государства. – М.: Зерцало, 1998. 312-6.

6. Воеводин Л.Д. Юридический статус личности в России. – М., 1997. 162-6.

7. Гулиев В.Е., Рудинский Ф.М. Демократия и достоинство личности. – М., 1983. – С. 7.

8. Қаранг: Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон Декларацияси (3-5, 12-моддалари); 1966 йил 19 декабрдаги “Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисида”ги халқаро Пакт, 17-модда (Ўзбекистон Республикаси мазкур Пактга 1995 йил 31 августда қўшилган); 1995 йил 26 майдаги “Инсон ҳуқуқлари ва асосий эркинликлари тўғрисида”ги МДҲ Конвенцияси; 1979 йил 17 декабрдаги Ҳуқуқ-тартиботни сақлашга бўйича мансабдор шахслар ахлоқ Кодекси (Ўзбекистон Республикаси мазкур Кодексга 1997 йил 30 августда қўшилган); 1984 йил 10 декабрдаги Қийноқ ҳамда муомала ва жазолашнинг қаттиқ, шафқатсиз, инсонийликка зид ёки қадр-қимматни камситувчи турларига қарши Конвенция (Ўзбекистон Республикаси мазкур Конвенцияга 1995 йил 31 август куни қўшилган).

9. Қийноқларга ҳамда муомала ва жазолашнинг бошқа шафқатсиз, ғайриинсоний ёки қадр қимматни камситадиган турларига қарши конвенция қийноқларга қарши БМТ қўмитасининг умумий тартибдаги мулоҳазалари ҳужжатлар тўплами. Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази. Т.–2014. 29-б.

Taxirov F. Shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini kafolatlashning konstitutsiyaviy asoslari

Maqolada shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini kafolatlashning konstitutsiyaviy asoslariga doir masalalar bayon etilgan. Shuningdek maqolada sha’n va qadr-qimmatning huquqiy institutlarini kompleks tadqiq qilish va shaxsning ma’naviy qadriyatlarini aks ettiruvchi turli-tuman ijtimoiy munosabatlarga samarali ta’sirini ta’minlash, uning sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish to‘g‘risidagi konstitutsiyaviy talablarni amalga oshirish bilan bog‘liq masalalar ham tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: shaxs, sha’n, qadr-qimmat, kafolatlash, konstitutsiyaviy asoslari, fuqarolarning huquqlari, qonun, hujjatlar, jinoyat, jinoyat-protsessual huquq.

Тахиров Ф. Конституционные основы обеспечения чести и достоинства человека

В статье описаны вопросы, связанные с конституционными основами обеспечения чести и достоинства человека. Также в статье анализируются вопросы, связанные с комплексным исследованием правовых институтов чести и достоинства и их действенного влияния на различные общественные отношения, отражающие духовные ценности человека, и реализацию конституционных требований об уважении его чести и достоинства.

Ключевые слова: личность, честь, достоинство, гарантия, конституционные основы, права граждан, закон, документы, преступление, уголовно-процессуальный закон.

Takhirov F. Constitutional basis for ensuring the honor and dignity of a human

The issues related to the constitutional foundations of ensuring the honor and dignity of a person are described. The article also analyzes issues related to a comprehensive study of legal institutions of honor and dignity and their effective influence on various social relations that reflect the spiritual values of a person, and the implementation of constitutional requirements to respect his honor and dignity.

Key words: personality, honor, dignity, guarantee, constitutional foundations, citizens' rights, law, documents, crime, criminal procedure law.

Ruziyev Rustam Djabborovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
“Fuqaroviy-huquqiy fanlar” kafedrasi professori,
yuridik fanlar doktori, professor

MULK VA UNI AMALGA OSHIRISHNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI MAZMUNINING FUQAROVIY-HUQUQIY TALQINI

“2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da[1] belgilangan chora-tadbirlar yuzasidan ortga qaytmas tus olayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va yangilanishlar, xususan samarali iqtisodiyotni rivojlantirish borasidagi ishlarning zalvori va salmog‘ini alohida qayd etish lozim. Vaholanki, yangi O‘zbekistonning “inson-jamiyat-davlat” tamoyiliga asoslangan xalqchil siyosati jamiyatimiz taraqqiyot yo‘lining yorqin istiqbollarini ochib berish bilan qatorda, shubhasiz, unga mos ruhdagi huquqiy tizimi ham izchillik bilan takomillashtirilmoqda.

Ta’kidlash joizki, oxirgi besh yillikda O‘zbekiston Konstitutsiyasida belgilangan iqtisodiyotimiz negizini tashkil etuvchi mulkning xilma-xil shakllari kafolatlanganligi va huquqiy jihatdan himoyalanganligi bilan bog‘liq islohotlar sur’ati muntazam o‘sib bormoqda. Buni mamlakatimizda ro‘y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va yangilanishlar davrida ko‘plab qonun hujjatlari ishlab chiqilib, qabul qilinganligi va hayotimizga joriy etib borilayotganligida ko‘rish mumkin. Ularning barchasi yurtimiz obodligi hamda xalqimiz farovonligiga qaratilgan iqtisodiyotimizni rivojlantirishda nafaqat mustahkam huquqiy asos, balki amalga oshirilayotgan islohotlarimiz ortga qaytmasligining kafolati bo‘lib xizmat qiladi va yana bir karra iqtisodiyotimiz negizini belgilovchi konstitutsiyaviy asoslarning hayotiyligi va fuqaro farovonligiga yo‘naltirilganligini tasdiqlaydi. Yurtboshimiz ta’kidlaganidek, “”Yangilangan Konstitutsiya mamlakatimizning uzoq muddatli strategiyalari, umuman, vatanimiz va xalqimizning ertangi farovon hayoti uchun mustahkam huquqiy asos hamda ishonchli kafolat yaratishi lozim”[2].

Ma’lumki, iqtisodiyotning samarali amal qilishiga va xalq farovonligi o‘sishiga imkoniyat yaratuvchi omil mulk hisoblanib, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 53-moddasida mulkning har qanday shakllariga ruxsat berilgan [3]. E’tiborli jihati, davlat mulkning xilma-xil shakllari zamirida bozor munosabatlarini rivojlantirish, halol raqobat uchun shart-sharoit yaratish, iste’molchilarning huquqlari ustuvorligini ta’minlash, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlash orqali fuqarolar farovonligini oshirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yganligidir.

Jamiyatning iqtisodiy negizi undagi mavjud mulkchilik munosabatlariga asoslanishi nuqtai-nazaridan mulk nafaqat huquqiy mazmunga, balki iqtisodiy ma’noga ham ega. Mulk insonlarning erki-irodasidan tashqarida vujudga keladi. Kishilar mehnati bilan yaratilgan yoki tabiat tomonidan insonlarga berilgan boyliklar har doim mulk bo‘lib kelgan. Mulk birinchidan, kishining ashyoga nisbatan egalik his-tuyg‘usi bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan, ushbu ashyo xususida kishilar o‘rtasida vujudga keladigan munosabatdir. Demak, lo‘nda aytganda, mulk - ashyo va unga nisbatan egalik hissi bilan bog‘liq munosabatlardan iborat. O‘z navbatida, mulkiy munosabatlar qonunlar bilan tartibga solinadi va ularning ta’siri ostida mulkiy huquqiy munosabatlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Qoida tariqasida mulk iqtisodiy va yuridik ma’nolardagi shakllarga bo‘linadi. Iqtisodiy ma’nodagi mulk shakllari deyilganda, moddiy ne’matlarni o‘zlashtirish usullarining yig‘indisi tushuniladi va bunday usullar yakka tartibda yoki jamoat bo‘lib yoxud davlat tomonidan amalga oshiriladi. Yuridik ma’nodagi mulk shakli esa – moddiy ne’matlarni muayyan subyektlarga tegishli bo‘lishini mustahkamlovchi va tegishli

mulkning huquqiy rejimini belgilovchi huquqiy me’yorlar yig‘indisini anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yuqorida tilga olingan 53-moddasi mamlakatimizda mulk shakllarining turli xil bo‘lishi mumkinligini o‘zida ifodalash bilan birga qonunda belgilangan asoslar va tartibga muvofiq vujudga kelgan mol-mulkning miqdorini chegaralamaydi. Ta’kidlash joizki, ushbu norma halol raqobat sharoitida iste’molchilarning huquqlari ustuvorligini ta’minlagan holda qonuniy tadbirkorlik va mehnat qilish natijasida orttirilgan mol-mulkning hajmi, soni, miqdori cheklanmasligini nazarda tutadi.

O‘zbekiston Respublikasida yuridik ma’nodagi mulkning xususiy va ommaviy shakllari mavjud. O‘z navbatida, xususiy mulk shakli quyidagi ko‘rinishlarda (turlarda) namoyon bo‘ladi:

- yakka shaxsga tegishli mulk (fuqarolar mulki);
- nodavlat yuridik shaxslar mulki.

Ommaviy mulk tarkibiga esa quyidagilar kiradi:

- O‘zbekiston Respublikasi mulki;
- ma’muriy-hududiy tuzilmalar mulki (munitsipal mulk).

Mulk shakllarining bunday turkumlanishida mulk subyekti maqomi va mol-mulk rejimining uzviy birligi asosiy mezon bo‘lib hisoblanadi. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasi mulkning boshqa shakl va ko‘rinishlarda ham bo‘lishi mumkinligini e’tirof etadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida mulkchilik to‘g‘risida”gi Qonuni 5-moddasida mulkning an’anaviy ikki shaklidan tashqari jamoa mulki, aralash mulk, boshqa davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar yuridik va jismoniy shaxslarining mulki kabi ko‘rinishlarda bo‘lishi ham ko‘zda tutilgan. Har qanday hollarda ham davlat mulkning xilma-xil shakllarini rivojlantirish uchun ularning qonuniy tengligini ta’minlaydi va himoyasini kafolatlaydi.

Ma’lumki, mulk huquqi obyektiv va subyektiv ma’nodagi huquqlarga bo‘linadi[4]. Obyektiv ma’nodagi mulk huquqi deganda, tabiat ashyolarini ijtimoiy o‘zlashtirishning mavjud zaxiralarini, usullarini belgilash, tartibga solish va mustahkamlash uchun xalq manfaatlarini ko‘zlab belgilangan tadbirlarni ifodalovchi huquq normalari yig‘indisi nazarda tutiladi. Chunonchi, mulk to‘g‘risidagi umumiy qoidalar obyektiv huquq normalari hisoblanadi. Obyektiv ma’nodagi mulk huquqi mutlaq huquqiy normalar asosida tartibga solinadi. Bunga misol sifatida mulk huquqini tartibga soluvchi qonun hujjatlarini keltirish mumkin.

Subyektiv ma’nodagi mulk huquqi deb, ayrim shaxslar, ya’ni huquq subyektlarining (fuqarolar (jismoniy shaxslar), yuridik shaxslar va davlat) obyektiv huquq normalari asosida kelib chiqadigan mulkni egallash, undan foydalanish va uni tasarruf qilish huquqlariga aytiladi. Subyektiv ma’nodagi mulk huquqi nisbiy-huquqiy normalar asosida tartibga solinadi. Subyektiv ma’nodagi mulk huquqi mulk sohibining o‘ziga mulk yoki ashyoviy huquq asosida tegishli bo‘lgan mol-mulklarni qonunda taqiqlanmagan asoslarda, vakolat doirasida, o‘zga shaxslarning manfaatlariga putur yetkazmagan holda egallash, undan foydalanish va uni tasarruf qilish maqsadida turli bitimlar tuzishida namoyon bo‘ladi. Masalan, turli shartnomalar tuzish, o‘z mulkini meros qilib qoldirish va boshqa bitimlar orqali mulkka bo‘lgan huquqni vujudga keltirish, o‘zgartirish yoki bekor qilish subyektiv ma’nodagi mulk huquqining mazmunini bildiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 54-moddasida mustahkamlangan qoida mazmun-mohiyatidan mulk huquqi mulkdorning o‘ziga qarashli mol-mulkka o‘z xohishi bilan va o‘z manfaatlarini ko‘zlab egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish bilan birga, o‘zining mulk huquqini kim tomonidan bo‘lmasin, har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilish huquqidan iboratligini ham anglatadi. Aniqroq aytganda, mulk huquqining mazmuni mulk sohibining vakolatlari doirasi bilan belgilanadi. Shu ma’noda, mulkdor o‘z mulkiga bo‘lgan huquqlarini ixtiyoriy ravishda o‘z xohishiga ko‘ra amalga oshiradi. Mulkdorning

o‘z xohishi deganda, uning o‘z erki, irodasi bilan o‘z manfaatlarini ko‘zlab, birovning (uchinchi shaxslarning) tazyiqisiz, g‘ayrihuquqiy ta’sirsiz harakat qilishi nazarda tutiladi. Agar mulkdorga nisbatan bunday holatda zo‘rlik, tazyiq ko‘rsatiladigan bo‘lsa, qonun mulkdorning xohish-irodasi erkin amalga oshirilishini himoya qiladi va kafolatlaydi. Ayni vaqtda, mulkdorning o‘z xohishiga ko‘ra ish tutishi qonun, insof va adolat doirasida amalga oshirilishi lozim.

Qonunda belgilanishicha, mulk huquqi uch elementni – mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etishni o‘zida ifoda etadi[5]. Mulkka egalik qilish huquqi – uni qonunda belgilangan tartibda qo‘lga kiritish orqali o‘z ixtiyorida yoki o‘z erki-irodasi ta’siri ostida bo‘lishi, saqlanishi yoki boshqa shaxslarga topshirilishida namoyon bo‘ladi. Mulkka egalik qilish huquqi yuridik va faktik asoslarda bo‘lishi mumkin. Masalan, qonunda belgilangan tartibda davlat mol-mulkini xususiylashtirish yoki meros qilib olish natijasida egalik qilsa, mulkning haqiqiy egasi sifatida yuridik egalik hisoblanadi, agar mol-mulkdan foydalanish jarayonda ham uning vaqtincha egalikda saqlab turilsa, faktik egalikda bo‘ladi, mulkka egalik qilish huquqi esa yuridik egaligida bo‘lgan shaxsda saqlanib qoladi. Mulkka egalik qilish huquqi mulk huquqi va o‘zga ashyoviy huquqlar asosida amalga oshirilishi mumkin. Mol-mulkka mulk huquqi asosida egalik qilishda ashyoviy huquqdan farqli ravishda egalik shaxsning o‘z ixtiyori va erki-irodasida bo‘ladi. Egalik qilish huquqi muddatli va muddatsiz tarzda amalga oshirilishi mumkin.

Mulkdan foydalanish huquqi – mulkni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan o‘zlashtirish natijasida ma’naviy yoki moddiy foyda olishda ifodalanadi. Mulkdan foydalanish mol-mulkka egalik qilish huquqi bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Masalan, mulk ijarasi shartnomasi bo‘yicha ijaraga beruvchi ijaraga oluvchiga haq evaziga mol-mulkni vaqtincha egalik qilish va foydalanish yoki foydalanish uchun topshiradi.

Mulkni tasarruf etish – mulkning yuridik taqdirini belgilash, ya’ni mulkdorning mol-mulkka tegishli huquqlarini o‘zgartirishi, bekor qilishi yoki ixtiyoriy voz kechishidir. Masalan, mulkdorning mol-mulk taqdirini hal qiladigan bir tomonlama qaror qabul qilishi mulk huquqining bekor bo‘lishiga asos bo‘ladi.

Ta’kidlash joizki, mulkdor mulkiy huquqini o‘z xohishiga ko‘ra amalga oshirishi zamirida uning manfaati yotadi. Bu manfaat bevosita uning o‘ziga, yaqinlariga yoki boshqalarga taalluqli bo‘lishi mumkin. Masalan, ota-ona voyaga yetmagan farzandi nomiga bankka omonat pul mablag‘i qo‘yganda ham, garchi bunda uchinchi shaxsning manfaati ko‘zlanganday bo‘lsa ham, aslida mulkdorning harakati zamirida ota-ona sifatidagi burchi yotadi. Har qanday hollarda ham mulkdorning o‘z huquqlarini amalga oshirishi boshqa shaxslarning huquqlarini va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart. Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda, shartlarda va doirada mulkdor boshqa shaxslar uning mol-mulkidan cheklangan tarzda foydalanishiga yo‘l qo‘yiladi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 173-moddasi[6] hamda O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 30-moddasida[7] o‘zganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish huquqi (servitut) belgilangan.

Bir so‘z bilan aytganda, mulkdor o‘zining ustunlik mavqeyini suiiste’mol qilishga, boshqa shaxslarning huquqlarini va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini kamsitadigan o‘zga harakatlarni qilishga haqli emas.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги Фармони // «Ўзбекистон Республикаси қонунчилик маълумотлари

миллий базаси» www.lex.uz.

2. Ўзбекистон янгиликлари. Расмий сайт www.gazeta.uz/uz.

3. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Т.:”Ўзбекистон”, 2021. -80 б.

4. Қаранг: Гражданское право (Общая часть). Учебник. –Т.:Издательство ТГЮИ, 2010. –С.494-503; Fuqarolik huquqi: [o‘quv qo‘llanma] Umumiy qism /R.Dj.Ruziyev, V.R/Topildiyev; mas’ul muharrir B.B.Samarxo‘jayev. –T.:”Cho‘lpon” NMIU, 2011. –B.242-247; R.Dj.Ruziyev. Fuqarolik huquqi: tizimi, pedmeti, metodi, vazifalari va prinsiplari. Ilmiy-ommabop risola. T.:”JXU” nashriyoti, 2022. –B.21-27.

5. Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексига шарҳ. 1-жилд (биринчи қисм). Адлия вазирлиги. –Т:”Vektor-Press”, 2010. –(Профессионал (малакали) шарҳлар). –Б.401-402.

6. Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодекси: (2021 йил 1 мартгача бўлган ўзгартиш ва қўшимчалар билан). Расмий нашр. –Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги. –Т.:”Адолат”, 2021 й. –576 б.

7. ҚММБ.,30.06.2022 й., 03/22/782/0576-сон.

Ruziyev R.D. Mulk va uni amalga oshirish konstitutsiyaviy asoslari mazmunining fuqaroviy-huquqiy talqini

Ushbu maqolada mulk va uni amalga oshirishning konstitutsiyaviy asoslari fuqarolik huquqi nuqtai nazaridan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, Fuqarolik kodeksi, taraqqiyot strategiyasi, mulk, mulk huquqi, mol-mulkka egalik qilish huquqi, mol-mulkdan foydalanish huquqi, mol-mulkni tasarruf etish huquqi.

Рузиев Р.Д. Гражданско-правовое толкование содержания конституционных основ собственности и её реализация

В данной статье анализировано содержание конституционных основ собственности и её реализация с точки зрения гражданского права.

Ключевые слова: Конституция, стратегия развития, собственность, право собственности, право владения имуществом, право ползования имуществом, право распоряжения имуществом.

Ruziev R.D. Civil law interpretation of the content of the constitutional foundations of property and its implementation

This article analyzed the content of the constitutional foundations of property and its implementation from the point of view of civil law.

Key words: constitution, development strategy, property right, right to own property, right to use property, right to dispose of property.

Muxammadiyev Ayub Abduraxmonovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti professori,
yuridik fanlar doktori, professor

KONSTITUTSIYADA XOTIN-QIZLAR VA ERKAKLARNING TENG HUQUQLILIGI

Xotin-qizlar va erkaklar tengligi – ularning teng huquq va majburiyatlar sohibi ekanligini anglatadi. Xotin-qizlar va erkaklar tengligi – demokratiyaning muhim elementi hisoblanadi. Bu tenglik fuqarolarning davlat, qonun va sud oldida rasmiy tan olinadigan huquqiy tengligi bo‘lib, u har bir fuqaroning qaysi jinsga mansubligidan qat’iy nazar teng huquq va erkinlikka ega ekanligini anglatadi.

Mamlakatimizda xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligining asosiy qomusimiz - Konstitutsiyada mustahkamlab qo‘yilganligi, uning 18-moddasida O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar, imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo‘yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo‘lishi shart deb qayd etilganligi va shuningdek 46-moddasida xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar deb belgilab qo‘yilganligi ushbu ijtimoiy masalaning naqadar muhimligini bildirib turibdi.[1]

Ma’lumki, “Ayollar bilan erkaklarning teng huquqligini ta’minlash uchun davlat keng miqyosda qo‘shimcha tadbirlarni amalga oshirmoqda. Davlat ayollarga bilim olish, kasb egallash, mehnat qilish, unga haq olish, siyosiy hayotda faol ishtirok etish uchun erkaklar bilan teng imkoniyatlar yaratish bilan birga, ayollarning oiladagi o‘rni, jismoniy imkoniyatlarini hisobga olib, ularga mehnat qilishda, sog‘lig‘ini mustahkamlashda yaxshi sharoitlar va imtiyozlar yaratib berishi ham zarurdir. Chunki, teng imkoniyat va qo‘shimcha sharoit, imtiyozlar o‘rnatish bilangina ayollarning teng huquqliligi ta’minlanishi mumkin. Bundan tashqari, oiladagi ishlarning asosiy qismi ayollar zimmasiga tushadi, buning natijasida ayollar o‘zlarining to‘la huquqliligi imkoniyatidan foydalana olmaydilar. Shuning uchun davlat ayollar bilan erkaklarning tengligini e’lon qilar ekan, buni ta’minlash uchun ayollarni qo‘shimcha ravishda moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish choralarini ko‘rmoqda”[3].

O‘zbekiston Respublikasida xotin-qizlarga beriladigan e’tibor milliy qonunchiligimizda ham o‘z aksini topmoqda. Jumladan, “O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi (yangi tahrirda) 2003-yil 29-avgustda qabul qilingan qonunda [4] siyosiy partiyalar tomonidan deputatlikka qo‘yiladigan nomzodlarning 30 foizi xotin-qizlardan bo‘lishligi mustahkamlandi.

O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarga qo‘shimcha imtiyozlar to‘g‘risida”gi qonuni 1999-yil 14-aprelda qabul qilindi. Unga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga qo‘shimcha 228^1-modda kiritilib, uch yoshga to‘lmagan bolalari bor, budjet hisobidan moliyaviy jihatdan ta’minlanadigan muassasalar va tashkilotlarda ishlayotgan ayollarga mehnatga to‘lanadigan haqni kamaytirmasdan, ish vaqtining haftasiga o‘ttiz besh soatdan oshmaydigan qisqartirilgan muddati belgilandi hamda kamida yigirma yillik ish staji bo‘lgan ayollar ellik to‘rt yoshga to‘lganda pensiya olish huquqiga ega bo‘ldilar.

Bugungi kunda ham ayollar huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, ularning jamiyatda tutgan o‘rni yanada mustahkamlash borasida bir qator qonun hujjatlari qabul qilindi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF – 4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida aholini ijtimoiy himoya qilish va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni davlat va jamiyat boshqaruvidagi o‘rnini kuchaytirish, xotin-qizlar, kasb-hunar kolleji bitiruvchi qizlarining bandligini ta’minlash, ularni

tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish, oila asoslarini yanada mustahkamlash vazifasi belgilab qo‘yildi.

Bu borada qabul qilingan asosiy qonun hujjatlardan biri O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2 fevraldagi PF – 5325-son “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni [5] bo‘lib, mazkur Farmonga muvofiq O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyati yanada takomillashtirilib, faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi 562-sonli qonunining [6] maqsadi xotin-qizlar va erkaklar uchun hamda imkoniyatlarni ta’minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratligi belgilangan.

Qonunga binoan qonuniylik, demokratizm, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi, jins bo‘yicha kamsitishga yo‘l qo‘yilmasligi, ochiqlik va shaffoflik xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta’minlashning asosiy tamoyillari hisoblanadi.

Qonunning 5-moddasiga binoan quyidagilar jins bo‘yicha kamsitish hisoblanmaydi:

bola tug‘ish va ona suti bilan oziqlantirish vazifalari bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishda farqlarni belgilash;

qonunda belgilangan tartibda muddatli harbiy xizmatga chaqirish;

ushbu Qonun asosida gender siyosati amalga oshirilishini ta’minlashga doir vaqtinchalik maxsus choralar ko‘rish;

xotin-qizlar va erkaklar mehnatini muhofaza qilishda ularning reproduktiv salomatligini saqlash xususiyatlari;

majburiyatlar faqat muayyan jinsdagi shaxslar tomonidan bajarilishi mumkinligiga asoslangan holda kasbiy malakaga doir tavsiyalar berish;

qamoqda saqlash, jazoni ijro etish joylarida saqlash tartibi va shartlarini hamda huquqiy jihatdan ta’sir ko‘rsatishning boshqa choralarini tartibga solishda farqlarni belgilash;

xotin-qizlarning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini mustahkamlashga, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlashga qaratilgan ijobiy choralar.

Davlat xotin-qizlar va erkaklarga shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni amalga oshirish chog‘ida teng huquqlilikni, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda, saylov jarayonida teng ishtirok etishni, sog‘liqni saqlash, ta’lim, fan, madaniyat, mehnat va ijtimoiy himoya sohalarida, davlat va jamiyat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlar ta’minlanishini kafolatlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 1 martdagi “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 81-son farmoni [7] bilan Oila, xotin-qizlar va keksa avlod vakillari bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish, mahallani qo‘llab-quvvatlashni yanada takomillashtirish, mahallabay ishlashga mas’ul bo‘lgan shaxslar faoliyatini samarali tashkil etish va o‘zaro hamkorligini ta’minlash maqsadida gender tenglikni ta’minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo‘llab-quvvatlashga doir islohotlarni amalga oshirish

Mamlakatimizda oila va xotin-qizlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish, ularning muammolariga tizimli yechim topish, vakolatli organlar faoliyatini samarali tashkil etish va muvofiqlashtirish maqsadida Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi (keyingi o‘rinlarda-Qo‘mita), uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar va tuman (shahar) bo‘linmalari tashkil etilgan.

Qo‘mitaning asosiy vazifa va faoliyat yo‘nalishlaridan biri etib, xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o‘rni va faolligini oshirish, gender tenglik kafolatlarini ta’minlash etib belgilangan.

Xulosa o‘rnida mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Konstitutsiyamizda oliy qadriyat sifatida belgilab qo‘yilgan inson huquqlarini ta’minlash masalasi bundan buyon ham e’tiborimiz

markazida bo‘ladi”[2] deb ta’kidlaganligining ijobatini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Zero, bugungi kunda mazkur xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi haqidagi konstitutsiyaviy normaning amaliy hayotga tatbiq etilishida yuqoridagi amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga asosan xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o‘rni va faolligini oshirish, gender tenglik kafolatlarini ta’minlash, ilmiy faoliyatga keng jalb qilish; xotin-qizlar haq-huquqlarni himoya qilish, ularga qulayliklar yaratish davlat siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T.,”O‘zbekiston” NMIU, 2021.

2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатьият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. -Тошкент, “Ўзбекистан”, НМИУ, 2017.Ж.I. -107 б.

3. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 26-dekabrdagi “Keksalar, nogironlar va aholining boshqa ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ijtimoiy xizmatlar to‘g‘risida”gi qonuni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 15-martdagi “Keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj boshqa qatlamlariga tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish sohasidagi faoliyatga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 203-son qarori.

5. Қаюмов.Р. Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий ҳуқуқи.Т.: “Адолат”, 1998. 181-б.

6. “O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi (yangi tahrirda) 2003-yil 29-avgustda qabul qilingan qonuni.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 1 martdagi “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g ‘risida”gi 81-son farmoni.

Muxammadiyev A.A. Konstitutsiyada xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi

Ushbu maqolada xotin-qizlar va erkaklar tengligi demokratiyaning muhim elementi hisoblanishi ta’kidlanadi. Shuningdek maqolada, xotin-qizlar va erkaklar tengligi fuqarolarning davlat, qonun va sud oldida rasmiy tan olinadigan huquqiy tengligi bo‘lib, har bir fuqaroning qaysi jinsga mansubligidan qat’iy nazar teng huquq va erkinlikka ega ekanligini anglatishi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: xotin-qizlar, erkaklar, huquq, majburiyat, demokratiya, konstitutsiya, fuqaro, davlat, qonun, sud, huquqiy tenglik, jins, erkinlik, qonuniylik, gender tenglik.

Мухаммадиев А.А. Равные права женщин и мужчин в Конституции

В этой статье подчеркивается, что равенство женщин и мужчин считается важным элементом демократии. В статье также поясняется, что равенство женщин и мужчин является юридическим равенством граждан, официально признанным государством, законом и судом, и означает, что каждый гражданин имеет равные права и свободы независимо от пола.

Ключевые слова: женщины, мужчины, право, обязательство, демократия, государство, закон, суд, правовое равенство, род, свобода, законность, гендерное равенство.

Mukhammadiev A.A. Equal rights of women and men in the Constitution

This article emphasizes that the equality of women and men is considered an important element of democracy. The article also explains that the equality of women and men is the legal equality of citizens, officially recognized by the state, law and court, and means that every citizen has equal rights and freedoms regardless of gender.

Key words: women, men, law, obligation, democracy, state, court, legal equality, gender, freedom, legality, gender equality.

Миразов Даврон Мирагзамович,
начальник кафедры Университета общественной безопасности Республики Узбекистан, доктор юридических наук, профессор

КОНСТИТУЦИОННО-ПРАВОВОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА НА НЕПРИКОСНОВЕННОСТЬ

Соблюдение прав и свобод личности установлены в нашей стране в числе основных обязанностей государства, его должностных лиц, что подтверждается нормами Конституции и подавляющего большинства актов международного права, устанавливающих и защищающих принцип неприкосновенности личности, его частной жизни и жилища.

Основные черты института неприкосновенности личности граждан получили отражение в ст. 12 «Всеобщей декларации прав человека» от 10 декабря 1948 г., согласно которой «никто не может подвергаться произвольному вмешательству в его личную и семейную жизнь, произвольным посягательствам на неприкосновенность его жилища, тайну его корреспонденции или на его честь и репутацию. Каждый человек имеет право на защиту закона от такого вмешательства или таких посягательств» [1].

Кроме того, в ст. 13 Конституции Республики Узбекистан регламентировано «Человек, его права и свободы являются высшей ценностью» [2].

В сущности, неприкосновенность частной жизни означает запрет для государства, его органов, должностных и иных лиц вмешиваться в личную жизнь граждан, право последних на свои личные и семейные тайны, наличие правовых механизмов и гарантий защиты своей чести и достоинства от всех посягательств на указанные социальные блага.

Безусловно, от уровня гарантированности сохранения тайны личной жизни граждан зависят степень свободы личности в государстве, демократичность и гуманность политической системы. Вместе с тем имеются противоречия, связанные с гарантиями реальной защиты прав граждан.

Все еще нередки случаи нарушения конституционных норм и законодательства, регулирующих вопросы неприкосновенности частной жизни, что в конечном счете приводит к ущемлению основных прав и свобод человека.

Актуальность исследованию придает и конституционное положение о недопустимости сбора, хранения, использования и распространения информации о частной жизни граждан. Данная норма призвана защитить частную жизнь, личную и семейную тайну от какого бы то ни было проникновения в нее со стороны органов государственной власти, органов местного самоуправления, негосударственных предприятий, учреждений, организаций, а также отдельных граждан.

В связи с широким внедрением в жизнь информационных систем, основанных на использовании средств вычислительной техники и связи, позволяющих накапливать и обрабатывать значительные массивы информации, особое значение имеет запрет на сбор, хранение, использование и распространение информации о частной жизни лиц. Поэтому увеличение объемов и интенсивности информационных потоков, создание централизованных банков данных на государственном, региональном и иных уровнях указывают на необходимость объединения усилий разных ведомств для отыскания баланса между свободой информационных обменов и соблюдением требований в части, касающейся защиты данных и ограничений на их сбор, обработку и распространение.

Все большое значение приобретает результативность решения проблемы достижения консенсуса во взглядах на фундаментальные принципы функционирования системы защиты тайны частной

жизни. Это обстоятельство способствует снижению и/или устранению необходимости в регулировании экспорта данных даже при несовершенстве законодательных норм.

Несомненная актуальность данной проблематики обусловлена еще и тем, что в нашей стране еще не сформирована специальная подотрасль права, регулирующей право на защиту тайны личной и семейной жизни. Хотя в различных отраслях российской правовой системы, включая конституционное, административное, трудовое, гражданское, международное, частное и иные виды права, имеются нормы, регулирующие их различные аспекты. Более того, анализ действующих нормативных правовых актов показывает, что их содержание не обеспечивает целостное регулирование права человека на защиту тайны личной и семейной жизни.

Основной из ключевых идей, лежащих в основе конституционного строя, является признание человека, его прав и свобод высшей ценностью. Человеку должна быть предоставлена достаточная свобода. А для этого он должен быть максимально огражден от вмешательства государства и, что не менее важно, от вмешательства общества в его частную жизнь.

Одна из проблем, которая при этом возникает, - это проблема создания законодательных гарантий защиты информации о частной жизни лица. Создание системы таких гарантий необходимо для защиты интересов самого общества. Человеку необходимо чувствовать себя защищенным; потребность в физической и психологической безопасности является одной из его основных потребностей. Если она не удовлетворена, возникают препятствия в реализации других базовых потребностей: в причастности к группе, в уважении, в порядке и справедливости, наконец, в самореализации. Одной из угроз безопасности личности является угроза разглашения информации о частной жизни. Таким образом, на государство, коль скоро оно провозгласило гуманистические идеалы, ложится задача защиты тайны частной жизни человека. Особую остроту данной проблеме придает совершенствование технологий шпионажа, многие из которых доступны сегодня не только правоохранительным органам или, напротив, организованным преступным группировкам, но и рядовому гражданину.

Неприкосновенность частной жизни означает прежде всего запрет для государства, его органов и должностных лиц вмешиваться в частную жизнь граждан, право самих граждан на свои личные и семейные тайны, наличие правовых механизмов и гарантий защиты своей чести и достоинства от всех посягательств на указанные социальные блага [3].

Вместе с тем как юридическая категория право на неприкосновенность частной жизни состоит из ряда правомочий, обеспечивающих гражданину возможность находиться вне службы, вне производственной обстановки в состоянии известной независимости от государства и общества, а также юридических гарантий невмешательства в реализацию этого права. Неприкосновенность частной жизни гражданина – один из элементов правового статуса гражданина.

Фундаментальными основами Конституции является признание человека, его прав и свобод высшей ценностью. Государство уже не рассматривается как ассоциация, охватывающая все общество, а как представитель общества, несущий перед ним, гражданами, отдельным человеком определенные обязанности и ответственность.

В Конституции записано, что признание, соблюдение и защита прав и свобод человека и гражданина – обязанность государства. Таким образом Конституция стоит на позициях признания основных прав и свобод человека (ст. 13 Конституции Республики Узбекистан).

В Конституции Республики Узбекистан впервые получил закрепление принцип примата норм международного права, в частности в области прав человека. В ней закреплено, что общепризнанные

принципы и нормы международного права и международные договоры являются составной частью правовой системы. Устанавливается, что, если международным договором установлены иные правила, чем предусмотренные законом, то применяются правила международного договора. Согласно Конституции признаются и гарантируются права и свободы человека и гражданина согласно общепризнанным принципам и нормам международного права.

Следует отметить, что в современной юридической науке, как и в действующем законодательстве, отсутствует единое понимание права на неприкосновенность частной жизни. Нет и четкого определения понятия «частная жизнь». Обеспечение и охрана права на неприкосновенность частной жизни в значительной степени затруднена дискуссионностью самого понятия «частная жизнь». Частная жизнь, являясь неотъемлемым элементом жизни человека в целом, имеет свои специфические черты и особенности. Термин «частная жизнь» употребляется издавна и даже фигурирует в названиях исторических работ. Вместе с тем как научное понятие «частная жизнь» используется сравнительно небольшой период времени - лишь последние два десятилетия. При этом существует большой разброс во мнениях о ее сущности и особенностях. Понятие частной жизни никогда в прошлом не было и поныне не является универсальным. Одни специалисты в области прав человека исходят из того, что право на неприкосновенность частной жизни прямо связано со свободой мысли, совести и религии, свободой выражения своего мнения, свободой собраний и ассоциаций, правом создавать семью. Другие включают в право на уважение частной жизни право располагать собой, право на тайну частной жизни и тайну корреспонденции, право на защиту личности и право на уважение к личному статусу.

Право на неприкосновенность частной жизни - это естественное и неотчуждаемое право человека на уединение и обособленное общение со своими близкими людьми, свободное от какого-либо произвольного вмешательства, обеспеченное государством. Семейная тайна, в свою очередь, учитывает не только отношения между кровными родственниками. Право на личную и семейную тайны состоит в запрете сбора, хранения, использования и распространения информации, касающейся частной жизни лица и членов его семьи, его близких и родственников. Личная тайна представляет собой конфиденциальные сведения, касающиеся одного лица, а семейная - затрагивает интересы членов семьи и иных родственников.

Исходя из вышесказанного для повсеместного исполнения конституционных гарантий прав на неприкосновенность личности и его частной жизни предлагается установить в законодательстве исчерпывающий перечень случаев прямого ограничения таких прав в соответствии с основаниями и решениями суда; закрепить во всех законах, касающихся сбора, хранения, использования и распространения информации о частной жизни, дополнительные механизмы охраны и защиты прав; определить механизмы установления ответственности должностных лиц, превысивших свои полномочия.

Использованная литература

1. Всеобщая декларация прав человека. Принята 10 декабря 1948 г. на 3-й сессии Генеральной Ассамблеи ООН // Международная защита прав и свобод человека: Сб. док. – Т., 2004. С. 14-19.

2. Конституция Республики Узбекистан. – Т., 2018.

3. См.: Трошкин Ю. В. Права человека: Учеб. пос. М., 1997. С. 31; Ростовщиков И. В. Права личности в России: их обеспечение и защита органами внутренних дел. Волгоград, 1997. С. 54-55.

Maxmudov Rozmet Muratovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori, professor;
Qoraboyev Abdulaziz Abduraxmonovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti doktoranti

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KONSTITUTSIYASI FUNDAMENTAL QONUN SIFATIDA

Ma’lumki, har bir davlatning barcha davlatlarga xos umumiy xususiyatlari bo‘lishi bilan bir qatorda, faqat yakka o‘ziga xos xususiyatlari ham mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi 1992 yilda o‘z Konstitutsiyasini qabul qilib, dunyo siyosiy xaritasida yangi suveren davlat paydo bo‘lganini e’lon qildi. Suveren demokratik davlat o‘z mohiyatiga ko‘ra xalq manfaatlarini ifodalaydi, fuqarolar va inson xaq-huquqlarini qonunlar asosida kafolatlaydi. Konstitutsiyada O‘zbekiston odil demokratik jamiyat va huquqiy davlat qurishining asoslari va shunday davlatda inson huquqlari, demokratiya va ijtimoiy adolat g‘oyalariga to‘liq amal qilinishi bayon etildi. Konstitutsiya turli mulkchilik shakllariga va ijtimoiy bozor iqtisodiyotiga asoslangan yangi siyosiy tuzum barpo etayotgan xalqning irodasini va ezgu istaklarini qonunlashtirdi.

O‘z mazmuni va ijtimoiy vazifasiga ko‘ra, Konstitutsiya davlatning mohiyatini ta’riflovchi, uning tashkiliy tuzilmasini ifodalovchi, davlat siyosatining asoslarini belgilovchi hujjat sifatida gavdalandi va gavdalanadi.

Konstitutsiya hokimiyatni tashkil etish va rasmiylashtirishning huquqiy shakli, uni oqilona cheklash va fuqaroviy jamiyatga bo‘ysundirish vositasidir. Demokratik jamiyatda davlat konstitutsiyaviy davlat bo‘ladi. Zotan, demokratiya davlatning shakli sifatida Konstitutsiyaning mazmunini tashkil etadi. Ammo bu o‘z konstitutsiyasiga ega har qanday davlat ham konstitutsiyaviy va ham demokratik davlat bo‘laveradi, degani emas.

Konstitutsiya o‘z ijtimoiy vazifasini bajara borib, bir qator o‘zaro bog‘liq funksiyalarni ham ado etadi. Konstitutsiyaning eng muhim funksiya-laridan biri davlatchilikni rivojidagi vorislikni ta’minlashdir. Anglo-sakson mamlakatlarida bu ancha aniq ibora - “kontinuiment”, ya’ni “davlat hokimiyatining uzluksizligi, davomiyligi, vorisligi” degan tushunchalar orqali ifoda etiladi. Bu bilan konstitutsiya davlatchilikning qat’iy zaminga ega ekanligi hamda o‘zgarmasligini anlgatadi[1, 56]. Xalqimiz teran davlatchilik negizlariga ega bo‘lgan o‘ziga xos siyosiy, huquqiy, madaniy merosning sohibidir. Miloddan bir necha ming yillar oldin hududimizda davlat va huquqqa oid institutlar mavjud bo‘lgan. Yurtimiz minglab ulug‘ allomalar, davlat arboblarini etishtirib bergan. Buyuk ajdodlarimiz bashariyat madaniyatini yaratishda bevosita ishtirok etib, unga ulkan hissa qo‘shganlar.

O‘zbek xalqi ham dunyo xalqlari singari asrlar mobaynida saqlanib, sayqallanib kelgan milliy urf-odatlari, rasm-rusmlari va an’analariga ega. Ularda xalqning ijtmoiy-iqtisodiy hayoti, dini, huquqiy ongi va umuman, milliy davlatchilik xususiyati aks etgan. Yurtimizda ilk davlatlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi, milliy davlatchiligimiz shakllanishi qadimgi manbalarda yozib qoldirilgan. Jumladan, “Avesto”ning yaratilganiga uch ming yil bo‘lyapti. “Avesto” o‘z talqinida “Ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu amal” tamoyilining xalq tafakkuri va turmush tarzidan mustahkam o‘rin olishiga sabab bo‘lgan.

Bu nodir kitob bundan o‘ttiz asr muqaddam ikki daryo oralig‘ida, shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlarga qoldirgan ma’naviy, tarixiy merosidir. “Avesto” ayni zamonda bu qadim o‘lkada buyuk davlat, buyuk madaniyat, buyuk ma’naviyat bo‘lganidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdirki, uni hech kim inkor etolmaydi. “Avesto”da tasvirlangan Humo-afsonaviy davlat qushi sifatida

mustaqil O‘zbekiston Respublikasi Gerbida o‘z aksini topgan.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi “O‘zbekiston - suveren demokratik Respublika. Davlatning “O‘zbekiston Respublikasi” va “O‘zbekiston” degan nomlari bir ma’noni anglatadi” degan qoidadan boshlanadi. “Suveren so‘zi oliy hokimiyat sohibini anglatib, suveren davlat hokimiyatining asosiy xususiyati-uning mustaqilligidir”. Davlat hokimiyatining mustaqilligi shu davlatning boshqa davlatlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri, bevosita munosabatlarda o‘z ifodasini topadi. 1990-yilning 20-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sovetining ikkinchi sessiyasida “Davlat mustaqilligi to‘g‘risida”gi deklaratsiya qabul qilinib, unda: “o‘zbek xalqining davlat qurilishidagi tarixiy tajribasi va tarkib topgan boy an’analari, har bir millatning o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqini ta’minlashdan iborat oliy maqsadi, haqqi, har bir kishining farovon hayot kechirishini ta’minlashni oliy maqsad deb bilgan holda, O‘zbekiston xalqlarining kelajagi uchun tarixiy mas’uliyatni chuqur his etgan holda, xalqaro huquq qoidalari, umumbashariy qadryatlari va demokratiya tamoyillariga asoslanib, O‘zbekiston Respublikasini davlat mustaqilligini e’lon qiladi”, deya ta’kidlangan. Deklaratsiya O‘zbekiston Respublikasi suverenitetining siyosiy, iqtisodiy va huquqiy kafolatlarini belgilab bergan. U xalqqa davlat va jamiyat ishlarni hal qilishda to‘la huquq beradi, Konstitutsiya va qonunlarning O‘zbekiston hududida ustunligini belgilaydi hamda xalqning o‘z boyliklaridan foydalanishi, ularga egalik qilish uchun zamin yaratadi. Deklaratsiya mustaqil O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini yaratish uchun asos bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari oltinchi sessiyasida “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e’lon qilish to‘g‘risida”gi qaror qabul qilindi[2]. Shu qaror asosida, 1991 yil 31 avgustda O‘zbekiston Respublikasi Oliy kengashining navbatdan tashqari oltinchi sessiyasida “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi [3]. Oradan bir oy o‘tgach, 1991 yil 30 sentabrida O‘zbekiston Respublikasi Oliy kengashining navbatdan tashqari yettinchi sessiyasida “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to’g’risida”gi konstitutsiyaviy qonun qabul qilindi. Mazkur qonun “O‘zbekiston Respublikasi o‘z tarkibidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi bilan birga mustaqil, demokratik davlatdir”, - deb e’lon qildi.

Qonunning ikkinchi moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining xalqi suveren va u respublikada davlat hokimiyatining birdan-bir sohibidir. U o‘z hokimiyatining ham bevosita, ham vakillik idoralari tizimi orqali amalga oshiradi.

Mustaqillik deklaratsiyasi va davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risidagi konstitutsiyaviy qonunning asosiy g‘oya va qoidalari konstitutsiyaning birinchi moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi demokratik davlatdir. Uning demokratligi, avvalo, uning xalqparvarlikni ta’minlashida, davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishida, mafkuraviy va siyosiy xurfikrligida, fuqarolarning mahalliy o‘z-o‘zini boshqarishda aks etadi. Bu qonuniy hujjatda mamlakatimizda davlat va jamiyat qurilishining asosiy tamoyillari aniq ifodalanib berildi, davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud tarmoqlariga bo‘linishi eng muhim tamoyil sifatida belgilandi. Shuningdek, inson huquqlari davlat manfaatlaridan, umum e’tirof etilgan xalqaro huquq normalarining esa milliy-huquqiy me’yorlardan ustunligi ham Konstitutsiyada muhrlanib qo‘yildi.

Asosiy qonunimizda hech qanday mafkuraning davlat mafkurasi sifatida o‘rnatilishi mumkin emasligi va ijtimoiy-siyosiy hayot siyosiy institutlarning rangbarangliligi, mafkura va fikrlarning xilma-xilligiga asoslanishi belgilab berildi. Ayni paytda barcha mulk shakllarining teng huquqliligi sharoitida xususiy mulkning ustvorligi konstitutsiyaviy asosda mustahkamlab qo‘yildi. O‘zbekiston siyosiy va iqtisodiy taraqqiyot, davlat va jamiyat qurish strategiyasini barpo etishda xalqimizning

tarixan shakllangan milliy va madaniy o‘ziga xos xususiyatlarni hisobga olib, mamlakatimizning mavjud tabiiy, iqtisodiy, mineral xomashyo salohiyatini xolisona va jiddiy baholagan holda, jahon xo‘jalik aloqalari tizimida o‘zimizga munosib joy egallashni maqsad qilib qo‘yib bunday marralarga erishishni asosiy vazifa sifatida belgilab oldi. Shu asosda eski ma’muriy buyruqbozlik tizimiga barham berildi, milliy davlatchilikni shakllantirishning puxta huquqiy asoslari yaratildi, davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati tarmoqlari tashkil etildi, ijtimoiy va fuqarolik institutlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi, iqtisodiyotni erkin bozor munosabatlariga o‘tkazish jarayoni amalga oshirildi.

O‘z-o‘zidan ayonki, O‘zbekistonning jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallashi, o‘z xalqining tinchligi va farovonligini ta’minlashga intilayotgan boshqa davlatlar qatori hozirgi shiddat bilan o‘zgarib borayotgan murakkab davr o‘rtaga qo‘yayotgan talablarga to‘liq javob beradigan, aniq va ravshan har tomonlama puxta o‘ylangan strategiya va harakat dasturiga ega bo‘lishi zarurligini bugun hayotning o‘zi taqozo etmoqda.

Bu strategiya, avvalombor, tajribada o‘zini oqlab, demokratik, siyosiy va iqtisodiy islohotlar, ijtimoiy o‘zgarishlarni chuqurlashtirish, jamiyatda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, tinchliksevar tashqi siyosat yuritish va jahon xo‘jalik tizimiga integratsiyalashishga qaratilgan kuchimizni bundan buyon ham izchil davom ettirishni ta’minlashi darkor.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi fundamental qonun sifatida davlatning huquqlarini belgilash bilan birga xalqning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan qonunlar majmuasidan iboratdir. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasini qabul qilinganiga 30 yil to‘lgan bo‘lib, ushbu konstitutsiya jamiyatdagi o‘zgarishlardan kelib chiqib takomillashishini bugungi kun taqozo etmoqda.

Konstitutsiya – siyosiy manfaat ko‘zgusi, chunki konstitutsiyada siyosiy partiyalar va ularning siyosiy munosabatlari plyuralizmi har-xil ijtimoiy tashkilotlar, partiyalar faoliyat olib bora boshladi. O‘zbekiston Respublikasida “Jamoat birlashmalari to‘g‘risida” qonun qabul qilinib (1992 yil 3-iyul) unda siyosiy partiyalarning tashkil qilinishining tartiblari ularning huquqiy maqomi belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinishi bilan demokratiyaning zarur belgisi bo‘lgan tub ma’nodagi ko‘ppartiyaviylikni shakllantirish uchun siyosiy tuzumni mutlaqo yangilash zarurati ham yuzaga keldi. Konstitutsiyamizning 60-moddasida ta’kidlanishicha, siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarning siyosiy irodasini ifodalaydilar va o‘zlarining demokratik yo‘l bilan saylab qo‘yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar. Siyosiy partiyalar o‘z faoliyatini moliyaviy ta’minlash manbalari haqida Oliy Majlisga yoki u vakil qilgan organga belgilangan tartibda oshkora hisobotlar berib turadilar.

Ushbu modda 1992 yildagi Konstitutsiyada 68-moddada sal boshqacharoq qilib berilgan edi. Bugungi kunga kelib Konstitutsiyaga o‘zgartirishlar kiritilib, ushbu moddani 60-moddaga o‘zgartirishgan. Hozirda Respublikada siyosiy partiyalar ko‘ppartiyaviylik asosida faoliyat yuritishmoqda. Respublikamizda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalarning dasturiy vazifalarida va faoliyatlarida o‘xshashliklar bor, lekin bu aynan shuning o‘zi degani emas. Ushbu partiyalar Respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo‘lini qo‘llab-quvvatlash; boshqa tomondan fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash, ularning tinchligi, sha’ni, or-nomusi va qudratini himoya qilish; millatlar va elatlar o‘rtasida o‘zaro totuvlik, mustahkam do‘stlikni ta’minlash uchun kurash, shu bilan birga partiyalarning dasturlarida amaliy faoliyatlari, jamiyat turmush tarzida tutgan o‘rni jihatidan bir-birlaridan farq qiladigan jihatlari ham mavjud.

Mazkur siyosiy partiyalar, jamiyat siyosiy tizimining muhim tarkibiy elementlaridan biri sifatida uning funksiyalarini amalga oshirishda faollikni jonlantirish

maqsadga muvofiqdir. Shundagina siyosiy va iqtisodiy islohotlarni keng ko‘lamda amalga oshirish, uni chuqurlashtirish shunda ijobiy siljishlarning samarali bo‘lishiga yordam bergan bo‘ladi.

Siyosiy partiyalar Respublikamizda siyosiy kuch hisoblanadi, ushbu partiyalarning faoliyati ham dasturi ham takomillashtirilib boriladi. Ayniqsa, siyosiy partiyalar nafaqat saylov va saylov oldi faoliyatlarini faollashtiradi shuningdek, jamiyatda doimo siyosiy “Flagman” rolida faoliyat olib borishadi.

O‘zbekiston Respublikasini mustaqil davlat tarzida jahonning 150 dan ortiq davlat tan olganligi uni BMTga, ShXTga va bir qator xalqaro uyushma va tashkilotlarga a’zo bo‘lganligi respublikamizning mustaqilligidan dalolat beradi va O‘zbekistonning jahon siyosiy munosabatlariga kirib borishi hozirgi kunda ham davom etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining jahonning bir qator davlatlari bilan ikki yoqlama va ko‘p yoqlama shartnoma va bitimlarni imzolashda chet el investitsiyasi salmog‘ini oshirishga harakat qilib bormoqda. Tabiiyki, bunday siyosiy huquqiy masalalarning negizida konstitutsiyamiz yotibdi. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi va uning asosida yuzaga kelgan qator qonunlar tizimi ushbu munosabatlarni huquqiy, iqtisodiy, siyosiy jihatdan tartibga solishga xizmat qilmoqda.

Ushbu muammoga bir qaraganimizda jarayon sifatida silliq, tekis ketayotgandek bo‘lib ko‘rinadi, aslida unday emas, unga ilmiy-nazariy, siyosiy-huquqiy nuqtai nazardan yondashganimizda O‘zbekistonni jahon hamjamiyatiga teng huquqli subyekt sifatida kirib borishi, siyosiy-huquqiy asoslar zaminida amalga oshayotganligi va qator ba’zi bir muammolar zaminida o‘tayotganligi ma’lum bo‘lmoqda.

Mazkur muammolar jumlasiga fuqarolarda huquqiy, siyosiy madaniyatni yetarli darajada shakllanmayotganligi, fuqaroviy siyosiy, huquqiy dunyoqarashning sobiq ittifoq dunyoqarashidan xalos bo‘lishni qiyinligi, hokimiyatlar o‘rtasida uyg‘unlikni yo‘qligi. Fuqarolarning ongida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida fuqarolarga faqat huquqlari va erkinliklarini kafolatlaydi degan fikrlar mustahkamlanib qolgan. Bu esa ba’zi ommaviy-axborot vositalari tomonidan demokratik jarayonlarni avj olishiga to‘sqinlik qiladi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan qamrovli islohotlarning asosiy maqsadi – inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati, qonuniy ehtiyojlari va manfaatlarini, bir so‘z bilan aytganda, inson qadrini har tomonlama himoya qilishdir.

Konstitutsiyamiz va qonunlarimizda, millati, tili va dinidan qat’i nazar, barcha fuqarolar teng huquq va erkinliklarga ega ekani mustahkamlab qo‘yilgan. Ularga o‘z milliy madaniyati, an’ana va urf-odatlarini saqlash hamda har tomonlama rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan.

“Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta’minlashni nazarda tutamiz. Inson qadri deganda, biz har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni, malakali tibbiy xizmat ko‘rsatish, sifatli ta’lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog‘lom ekologik muhit yaratib berishni tushunamiz”[4].

O‘zbekistonda demokratik islohotlar yangicha politologik paradigma, ya’ni andoza modelidan qochishni taqozo etmoqda. Ushbu fikrga quyidagicha ta’rif beramiz, ya’ni fuqarolarning tabiiy huquqlarini ta’minlash ustuvor bo‘lishga erishish lozim.

Yuqoridagi fikrlar asosida shunday xulosa qilishimiz mumkin, ya’ni fuqarolar faolligining asosi – ularning ehtiyojlari va turli-tuman manfaatlaridir. Konstitutsiya bugungi kunda ham fundamental qonun sifatida nafaqat davlatni shuningdek, xalqni manfaatlarini himoyasiga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Odilqoriyev H.T. va boshqalar. O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi. Yuridik oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – T.:2005. – 56-б.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy kengashining axborotnomasi. 1991. -№11. -245-м.
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy kengashining axborotnomasi. 1991. -№11. -246-268-м.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2021. 62,453-betlar.
5. https://www.kun.uz;
6. https://www.ziyonet.uz.

Maxmudov R.M., Qoraboyev A.A. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi fundamental qonun sifatida

Maqolada fuqarolar va inson haq-huquqlarini Konstitutsiya asosida kafolatlanishi, Konstitutsiyada O‘zbekiston odil demokratik jamiyat va huquqiy davlat qurishining asoslari va shunday davlatda inson huquqlari, demokratiya va ijtimoiy adolat g’oyalariga to‘liq amal qilinishi bayon etilgan. Konstitutsiya davlatning mohiyatini ta’riflovchi, uning tashkiliy tuzilmasini ifodalovchi, davlat siyosatining asoslarini belgilovchi asosiy hujjat sanalishi e’tirof etilgan.

Kalit so‘zlar: suveren davlat, demokratik jamiyat, fuqaroviy jamiyat, huquqiy davlat, davlat siyosati, davlat mustaqilligi, ma’naviy va tarixiy meros.

Махмудов Р.М., Қорабоев А.А. Конституция Республики Узбекистан как фундаментальный закон

В статье изложены конституционные гарантии прав граждан и человека, основы построения в Узбекистане справедливого демократического общества и правового государства и полное соблюдение в таком государстве идей прав человека, демократии и социальной справедливости. Было признано, что Конституция является основным документом, описывающим сущность государства, представляющим его организационную структуру, определяющим основы государственной политики.

Ключевые слова: суверенное государство, демократическое общество, гражданское общество, правовое государство, государственная политика, государственная независимость, духовное и историческое наследие.

Makhmudov R.M., Koraboev A.A. The Constitution of the Republic of Uzbekistan as a fundamental law

The article outlines the constitutional guarantees of citizens and human rights, the foundations for building a fair democratic society and a rule of law in Uzbekistan and full observance of the ideas of human rights, democracy and social justice in such a state. It was recognized that the Constitution is the main document describing the essence of the state, representing its organizational structure, defining the foundations of state policy.

Key words: sovereign state, democratic society, civil society, rule of law, state policy, state independence, spiritual and historical heritage.

Селиманова Светлана Михайловна,
начальник кафедры Университета общественной безопасности Республики Узбекистан, доктор юридических наук, профессор

КОНСТИТУЦИОННАЯ РЕФОРМА: ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ

Реалии современного мира и нынешнее стремительно меняющееся время требует от нас созвучных ему действий и перемен. Это в полной мере относится к нормам права как регулятору общественно-политических процессов в обществе и государстве. В современном мире особое влияние на национальные правовые системы в целом и на конституционное развитие в частности оказывают глобализационные процессы, глубина которых нередко влечет потенциальную возможность и даже неизбежность наступления фундаментальных изменений на уровне конституционных норм.

Опыт конституционных реформ, произошедших в последнее десятилетие, позволяет выявить ряд новых проблем в конституционном праве, требующих своего разрешения, в том числе ввиду необходимости учета международных демократических правовых стандартов. Исследования подтверждают, что большая часть конституций, действующих в современных государствах, корректировалась. Это коснулось и «старейших» конституций, и достаточно новых основных законов. Так, в завершающее десятилетие XX в. и начале XXI в. происходили многочисленные конституционные реформы во всем мире, назначение, масштаб и динамика которых заметно отличаются от прежних лет.

Принятие конституционных изменений -ключевое событие для каждой страны, поскольку в большинстве случаев этот процесс продиктован целями реформирования общественных отношений. Даже частичное изменение конституционного текста может повлечь за собой значительное переустройство конституционно-правовых институтов, влекущее для страны новую модель конституционного развития.

В целях реализации задач, отраженных в Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 г.г. и имеющих важное значение в построении справедливого, действительно народного государства, прежде всего будут необходимы конституционная основа и еще более прочная законодательная база. В этом смысле важной задачей становится гармонизация Основного закона с современными реалиями нашего общества, сутью наших последовательных реформ, а также создание прочного правового фундамента Стратегии развития Нового Узбекистана.

Конституционная реформа - это всегда определенный перерыв постепенности, качественное изменение конституционно-правовых институтов и норм, и этим она отличается от других изменений конституционного текста.

Принятие конституционного или иного закона о конституционной реформе - это только часть процесса реформирования общественных отношений. В самом законе о реформе часто содержится только принципиальное положение, затрагивающее определенный институт общественного и государственного строя, основы правового положения личности.

Изменения конституционного текста имеют неодинаковую значимость. В юридической науке понятия «изменение конституции», «поправка к конституции», «реформа конституции», «пересмотр конституции» различаются. В то же время указанные изменения в своей совокупности могут составлять элемент длящейся конституционной реформы определенной части государственно-территориального устройства страны.

Изучение опыта реформ конституции в странах мира свидетельствуют о том, что далеко не все из проведенных конституционных преобразований, не-

редко при внешнем обозначении их в качестве конституционных реформ, в реальности являются таковыми. Большинство изменений действующих конституций связано с частичной внутриинституциональной смысловой коррекцией их текста, когда имеет место замена, включение или исключение из конституционного текста положений, формулировок, понятий, относящихся к определенному конституционно-правовому институту, при этом не затрагивается сама его природа. Как правило, они вызваны эволюцией взглядов в политической сфере, иными процессами, необходимостью привести в соответствие статьи конституции с другими, уже измененными или изменяемыми, что нередко связано со сроками полномочий органов государства.

Изменения конституции могут выражаться во включении в текст нового конституционно-правового института, в замене или упразднении ранее существовавшего. Тем не менее такой процесс тоже не всегда может быть отнесен к реформе.

Конституционная реформа - это действие, имеющее целенаправленный характер, или совокупность однородных целенаправленных действий, растянутых во времени. Ее всегда отличают масштаб и последствия как для современного и развивающегося правового регулирования, так и в целом для системы общественных отношений в орбите конституционного воздействия. В то же время конституционная реформа не может быть охарактеризована одним каким-то уникальным признаком, идентифицирующим ее в ряду схожих явлений, не может быть измерена количественными показателями, поэтому важно выявить условия, или критерии, соответствие которым позволит отнести конституционные преобразования к классу конституционных реформ.

Вместе с тем оценки конституционных изменений едва ли могут опираться на непреложное действие неких исторических законов, они вытекают, несомненно, из конкретных государственно-правовых концепций и условий, позволяющих реализовать те или иные преобразования. В настоящее время многие государства все еще находятся на этапе дальнейшего внедрения и углубления демократических принципов.

В странах мира продолжается поиск наиболее соответствующей формы государственного устройства, отвечающей характеру развития внутренних исторических, политических, социальных, экономических и других процессов. В конечном итоге это приведет к тому, что эти страны найдут свой образ сильных демократических, правовых, социальных государств, который будет соответствовать их истории, традициям и культуре.

В заключение хотелось бы отметить, что современные реалии требуют того, что Конституция не должна превращаться в статичный нормативно-правовой акт, а быть «живым организмом» отвечающим требованиям времени. Исходя из этого она должна воплощать в себе механизмы прямого действия в качестве Основного закона государства, с установлением приоритетности конституционных норм над нормами отраслевого законодательства. Решение этой задачи обеспечит формирование конституционного пространства государства и соблюдение законности, что является необходимой гарантией успешного развития страны.

Нет сомнения в том, что перечисленные и иные проблемы Конституционного правотворчества заслуживают постановки задачи перед государственно-правовой наукой по их теоретической разработке. Решение всего комплекса указанных задач будет способствовать дальнейшему развитию национальной государственности в целом, отдельных ее направлений, отраслей, учений, в том числе и теории конституционного и административного права.